

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

S.R.Cho'lliyev

**MIKROIQTISODIYOT VA
MAKROIQTISODIYOT**

Uslubiy qo'llanma

Navoiy –2021

S.R. Cho'lliyev “Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot”.
Uslubiy qo'llanma. –Navoiy.: NDPI, 2021, 119 bet.

Mazkur Uslubiy qo'llanma “Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu fan ishchi o'quv dasturidan o'rin olgan barcha mavzular bo'yicha amaliy va nazariy masala va topshiriqlar o'rin olgan. Qo'llanmada turli mikro va makroiqtisodiy masalalar, fanni chuqur o'rganish va mustahkamlashga qaratilgan test, glossary va krossvordlar ham kiritilgan.

Qo'llanmadan tinglovchilarning zaruriy tayyorgarlik darajasi bilimlariga qo'yiladigan talablar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va mazkur fanni o'qitishning Namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

Qo'llanma 5112200 – Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi yo'nalishi talabalari, magistrantlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va iqtisodiyot ilmiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **H.N.Baqoyev** – Navoiy davlat konchilik instituti,
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori,
PhD;

Z.Zoyirov – Navoiy davlat pedagogika instituti,
“Iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasini dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1-MODUL. IQTISODIYOTNING BAZIS TUSHUNCHALARI, TALAB VA TAKLIF NAZARIYASINING ASOSLARI, ISTE'MOLCHI TANLOVI	
1-mavzu. Iqtisodiyotning bazis tushunchalari.....	5
2-mavzu. Talab va taklif tahlili asoslari.....	13
3-mavzu. Iste'molchi tanlovi nazariyasi.....	21
2-MODUL. ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI, QISQA VA UZOQ MUDDATLI FIRMA FAOLIYATINING TAHLILI ASOSLARI	
4-mavzu. Ishlab chiqarish nazariyasi.....	25
5-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari.	29
6-mavzu. Raqobatlashgan bozorda qisqa va uzoq muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi.....	39
3-MODUL. MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI, ULARNING MUTANOSIBLIGI VA IQTISODIY O'SISH	
7-mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash.....	45
8-mavzu. Yalpi talab – Yalpi taklif modeli.....	66
9-mavzu. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.....	70
10-mavzu. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli	75
4-MODUL. MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA UNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	
11-mavzu. Byudjet-soliq va pul-kredit siyosatlari	77
12-mavzu. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat	89
GLOSSARY.....	97
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	118

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti har bir kishidan qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, iqtisodiy mushohada yuritish va shu asosda xulosa chiqarishni o'rganishni talab qiladi. Iqtisodchi kadrlar esa voqeliklarni, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish bilan birga, ulardan xulosa chiqarish bilan chegaralanmay, iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tanlovning eng maqbul variantlarini amalga oshirish, buning uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, bilganlarini joriy qilish layoqatiga ega bo'lishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar kishilar ongi va ruhiyatini o'zgartirmoqda, ularni yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini chuqurroq idrok etish va bozor talablariga moslashib ishlash va yashashga yo'naltirilmoqda, tadbirkorlikka intilish keng tus olmoqda. Bu esa o'z navbatida bozor ilmi iqtisodiy bilimlarni chuqurroq o'rganishga katta ehtiyoj va qiziqishni keltirib chiqarmoqda.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan jamiyatda bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarining xo'jalik yuritish faoliyatini, ularning bozor sharoitidagi harakatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini va shu asosda samarali faoliyat yuritishlarini tadqiq qilish fanning dolzarbligini belgilaydi. Yuqorida ta'kidlangan masalalarni hal etishda hamda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot" fanining ahamiyati beqiyosdir.

Shu borada "Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot" fanidan olgan bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishi va talabani mustaqil ishlashga undash maqsadida quyidagi amaliy mashg'ulotlar taklif qilinmoqda.

Iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq yechish egallaydi. Sababi:

Birinchidan, masala, mashq yechish fanni o'rganishning bosh maqsadi - olingan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, masala, mashq yechish orqali talabalarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

Uchinchidan, masala fikrlashni o'rgatadi.

Shuning uchun ham masala so'ziga faqat hisob-kitob asosida topshiriqni bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish ob'ekti sifatida qaralishi bejiz emas. Aytaylik, yechimini kutayotgan masalalar, hal qilinishi zarur masalalar va hokazo.

Mashqlar mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish bilan birga vaqtni tejash, ayrim masalalarda ikkilanib turgan talabalarni to'g'ri javob topishga o'rgatadi.

Masala va mashqlar hisob-kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchi, talabalarda aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi.

1-MODUL. IQTISODIYOTNING BAZIS TUSHUNCHALARI, TALAB VA TAKLIF NAZARIYASINING ASOSLARI, ISTE'MOLCHI TANLOVI

1-mavzu

IQTISODIYOTNING BAZIS TUSHUNCHALARI.



Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Iqtisodiy ehtiyoj
2. Real ehtiyoj
3. Noreal ehtiyoj
4. Ne'matlar noyobligi
5. Bir-birining o'rnini bosuvchi ne'matlar

6. Nafflilik
7. Iqtisodiy resurslar
8. Tadbirkorlik qobiliyati
9. Alternativ xarajatlar
10. Ishlab chiqarish imkoniyati
11. O'zaro bir - birini to'ldiruvchi ne'matlar

a) shaxsni, korxonani yoki jamiyatni faoliyat ko'rsatishini va rivojlanishini ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar;

b) ushbu ehtiyojni qondirish uchun shaxsning daromadi yetarli bo'lishi taqozo qilinadi;

c) ehtiyojni qondirish uchun daromad yetarli bo'lmaydi;

d) iqtisodiy subyektlardagi mavjud ne'matlar zahirasi shu ne'matlarga ehtiyoj sezgan xaridorlarning talablarini yetarli darajada qondira olmasligi tushuniladi;

e) bir xil ehtiyojni qondiruvchi ne'matlardir;

f) shaxsni yoki ishlab chiqarish ehtiyojini komplektlarda qondiradigan ne'matlar;

g) iqtisodiy ne'matlar orqali shaxs ehtiyojini qondirish darajasi. Ne'mat inson ehtiyojini qancha to'laroq qondirsa uning nafligi shuncha yuqori bo'ladi;

h) iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarishda qatnashadigan elementlar (yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va axborotlar);

i) o'ziga xos bo'lgan shunday inson resursi tushuniladiki, u o'zidan boshqa ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalana olish qobiliyatini mujassamlashtiradi;

j) resurslardan eng samarali foydalanishdan voz kechish natijasida yo'qotilgan imkoniyatlar bilan bog'liq xarajatlar;

k) berilgan texnologik rivojlanishda barcha mavjud resurslardan to'liq va samarali foydalangan holda jamiyatning iqtisodiy ne'matlar ishlab chiqarish qobiliyatidir.



QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG

Topshiriq

1. Ishlab chiqarish imkoniyati	A) berilgan texnologik rivojlanishda barcha mavjud resurslardan to'liq va samarali foydalangan holda jamiyatning iqtisodiy ne'matlar ishlab chiqarish qobiliyatidir.
2. Pozitiv iqtisodiyot	B) U iqtisodiyotning bor bo'lgan (bo'ladigan) haqiqiy holatini o'rganadi va subyektiv ravishda iqtisodiyotga baho berishdan ozoddir.
3. Normativ iqtisodiyot	C) U subyektni, shaxsiy fikrlashlar asosida ma'lumotlar beradi, nima bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.
4. Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot	D) U bunday tuzumni markazlashgan rejalashtirish yo'li bilan barcha moddiy resurslarni ijtimoiy mulkka asoslanishi va iqtisodiy qarorlarni jamoa tomonidan qabul qilinishini ifodalaydi.
5. Aralash iqtisodiyot	E) U ma'muriy iqtisodiyotning aksi – erkin bozor iqtisodiyotidir. Erkin bozor iqtisodiyotida resurslarni taqsimlanishida davlat hech qanday rol o'ynamaydi. Bunday tuzumda iqtisodiy qarorlar uy xo'jaliklari, korxonalar tomonidan ularning bozordagi o'zaro aloqadorligi, bir-biriga ta'siri jarayonida davlat aralashuvisiz qabul qilinadi.
6. Iqtisodiyot	F) ehtiyojlarning cheksiz o'sib borishi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi ziddiyat va uni hal qilish yo'lini izlab topishdan iboratdir.



MASALA VA MASHQLAR


1-masala. Solijon bir orolda yashaydi. U bir soatda 10 ta kokos yong'og'i yoki 5 kg baliq ovlashi mumkin. Solijon bir kunda 8 soat ishlasa uning 1 kunlik ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i chizilsin va ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i formulasi aniqlansin.

Yechish. Mahsulot ishlab chiqarish variantlarini aniqlaymiz: Solijon 8 soat davomida kokos yong'og'i tersa 80 ta teradi, lekin baliq ishlab chiqarilmaydi. Agar

u bir soatini baliq ishlab chiqarishga sarflasa 70 ta kokos yong'og'i va 5 kg baliq ishlab chiqaradi. Solijonning ishlab chiqarish variantlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Ishlab chiqarish variantlari								
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Kokos	80	70	60	50	40	30	20	10	0
Baliq	0	5	10	15	20	25	30	35	40

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i



Solijon bir soat kokos yig'ishdan voz kechsa u 10 ta kokos yong'og'idan voz kechgan bo'ladi, lekin u qo'shimcha 5 kg baliq ishlab chiqaradi. Demak, 10 ta kokos yong'og'ining alternativ qiymati 5 kg baliqqa teng.

Solijonning ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i formulasini aniqlaymiz.

Solijon bir kunda L soat ishlaydi deylik. SHundan L_b soatni baliq ishlab chiqarishga, L_k soatni kokos yong'og'i yig'ishga sarflaydi.

Demak, $L_a + L_k = 8$ (1). Solijonning kokos yong'og'i va baliq ishlab chiqarish funktsiyalarini yozamiz.

$$K = 10 * L_k \quad B = 5 * L_b \quad (2)$$

Bu erda: K – kokos miqdori (donada);

B – baliq miqdori (kg.da)

(2)-chidan L_k va L_b larni aniqlaymiz

$$L_k = \frac{K}{10} \quad L_b = \frac{B}{5} \quad (3)$$

(3) ni (1)ga qo'yamiz

$$\frac{B}{5} + \frac{K}{10} = 8 \quad \text{yoki}$$

$$K = 80 - 2 * B \quad (4)$$

(4) – funktsiya orqali Solijonni ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'ini aniqlash mumkin va 8 soatlik ish kunida kokos va baliq ishlab chiqarishning barcha kombinatsiyalarini aniqlash mumkin.

2-masala. Faraz qilaylik, jamiyat ikkita ne'mat ishlab chiqaradi deylik, ya'ni traktorlar va don mahsuloti. Agar jamiyat barcha resurslarni don mahsuloti ishlab chiqarishga sarflasa 5 mln.tonna don mahsuloti ishlab chiqaradi, agarda faqat traktor ishlab chiqarishga sarflasa undan 7 birlik ishlab chiqarishi mumkin. Ikkala ne'matni bir vaqtda ishlab chiqarish kombinatsiyalari quyidagi jadvalda berilgan.(1.1 - jadval).


1.1 – jadval

Ishlab chiqarish imkoniyatlari

Ishlab chiqarish imkoniyatlari	Don, mln. Tonna	Traktor, dona
1	5,0	0
2	4,7	1
3	4,3	2
4	3,8	3
5	3,0	4
6	2,0	5
7	0,9	6
8	0,0	7

1.2 — rasmdagi shtrixlangan sohaga ishlabchiqarish imkoniyatlari to'plami deyiladi (rasmda 0 AB soha). 0 AB soha ichida joylashgan nuqtalarda korxonalar ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanmagan. Masalan, K nuqtada 2 mln. tonna don, 2 ta traktor ishlab chiqaradi, lekin resurslarni bir qismi ortib qoladi. 0 AB sohadan tashqarida yotgan har qanday nuqtaga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish dasturi mavjud resurslar bilan ta'minlanmaydi (masalan, L nuqta). Ishlab chiqarish imkoniyati to'plamining chegarasi bo'lgan AB chiziq ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'ini beradi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'i odatda qavariq ko'rinishda bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, har bir traktorni ishlab chiqarish oldingisiga ko'ra ko'proq don ishlab chiqarishni qisqartirishni talab qiladi. Jadvaldan va grafikdan ko'rish mumkinki, birinchi traktorni ishlab chiqarish, don ishlab chiqarish 0,3 mln. tonnaga qisqartirilgan bo'lsa, ikkinchisi-0,4 mln. tonnaga, uchinchisi-0,5 mln. tonnaga va hokazo.




1.2.-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i.

Ishlab chiqarish imkoniyati chizig'i mavjud resurslardan to'liq va samarali foydalangan holda har xil miqdordagi tovarlar kombinatsiyalarini ishlab chiqarish variantlarini ifodalaydi. Boshqa tomondan, ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i foydalanilayotgan texnologiyaning rivojlanganlik darajasini va resurslardan foydalanish darajasini ifodalaydi.


Shuning uchun ham, agar resurslar oshsa yoki texnologiya takomillashsa, AB chizig'i o'ziga parallel ravishda o'ngga, yuqoriga siljiydi, ya'ni AB holatga o'tadi (1.3-rasm).

Agar ushbu ikkita mahsulotdan birini ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashsa (masalan, don ishlab chiqarishni), u holda AB chizig'i A_1B holatga siljiydi. Agarda traktor ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashsa (masalan, don ishlab chiqarish), u holda AB chizig'i A_1B holatga siljiydi. Agar traktor ishlab chiqarish kengaysa — AB_1 holatga siljiydi (1.4-rasm).

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i mahsulotlarni ishlab chiqarishning har xil alternativ variatnlari mavjudligini ko'rsatadi. Bu ishlab chiqaruvchilar mahsulot tarkibini tanlashi uchun muhim axborot hisoblanadi.



1.3-rasm.



1.4-rasm.


2. Ishlab chiqarish imkoniyatlariga misol. Korxonaning ishlab chiqarish imkoniyati deganda - mavjud texnologiyadan va korxonalar resurslaridan to'liq foydalangan holda iqtisodiy ne'matlamini ishlab chiqarish hajmi yoki mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmi tushuniladi.

Ishlab chiqarish imkoniyati chegaralari ishlab chiqarish egri chizig'ini ifodalaydi.

Ishlab chiqarishda ishlab chiqarish omilidan faqat mehnat qatnashgan holni ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, bir oila uzumdan musallas ishlab chiqaradi va daraxt shoxlaridan savat to'qiydi. Oila o'z vaqtini vino ishlab chiqarishga yoki savat ishlab chiqarishga sarflaydi. Quyidagi 1.5-rasmda oilaning vino va savat ishlab chiqarish kombinatsiyalari tasvirlangan. Oila u yoki bu faoliyatga har xil miqdorda vaqt sarflaydi.

1.5-rasmda shtrixlangan zona ishlab chiqarish imkoniyatlarining to'plamini ko'rsatadi.

Ushbu sohani gorizontal va vertikal o'qlar orasidagi chegarasini ko'rsatuvchi egri chiziq ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i hisoblanadi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'ining yotiqligi chekli transformatsiya normasi (ChTN) ni beradi, ya'ni u qo'shimcha bir birlik vino ishlab chiqarish uchun qancha miqdorda savat ishlab chiqarishdan voz kechish kerakligini ko'rsatadi.



1.5-rasm. Oilaning ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i

Masalan, savat ishlab chiqarish ma'lum vaqt oralig'ida $DS=S^*-S^0=5$ donaga oshsa, vino ishlab chiqarish $DV=V^*-V^0=-10$ litrga qisqaradi. Demak, bir litr vino ishlab chiqarishdan voz kechsak, qoshimcha yarimta savat ishlab chiqarish mumkin bo'ladi.

OMN chizig'i ichida joylashgan nuqtalariga to'g'ri keladigan ishlab chiqarishda mehnat resursi to'liq sarflanmaydi. Xuddi shunday OMN chizig'idan tashqarida yotgan nuqtalarda ishlab chiqarish mehnat bilan yetarli ta'minlanmaydi. MN chizig'i ustida yotgan nuqtalariga to'g'ri keladigan ishlab chiqarishda mehnat to'liq sarflanadi. Agar ishlab chiqarish faqat mehnat sarfiga bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish hajmi mehnat sarfiga proporsional bo'lsa, vino va savat ishlab chiqarish funksiyalari chiziqli mehnat sarfi funksiyalaridan iborat bo'ladi.

Faraz qilaylik, oila bir kunda 20 dona savat yoki 10 litr vino ishlab chiqaradi. Bir oyda 24 kun ishlaydi deylik. Oila bir oy ichida savat ishlab chiqarishga L_s ish kuni va vino ishlab chiqarishga L_v ish kuni sarflaydi deylik. U holda oilani savat (S) va vino (V) ishlab chiqarish funksiyalari mos ravishda quyidagi ko'rinishga ega

$$S = 20 L_s, \quad V = 10 L_v$$

Oilaning bir oyda savat va vino ishlab chiqarish imkoniyatlari quyidagi kombinatsiyalaridan iborat bo'ladi, ya'ni

$$S = 20 L_s, (1) \quad V = 10 L_v (2) \quad L_s = L_v = 24 (3)$$

bu yerda S - savat miqdori (donada), V - vino miqdori (litrd) bo'lib, mehnat sarfiga bog'liq. Oxirgi tenglik resurslar chegarasini ifodalaydi (mehnati resursi 24 ish kuni bilan chegaralangan).

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasini yoki chizig'ini topish uchun (1) va (2) lardan L_s va L_v larni aniqlaymiz.

$$L_s = \frac{S}{20} \quad L_v = \frac{V}{10}$$

Endi bu munosabatlarni resurs tenglamasi (3) ga qo'yamiz.

$$\frac{S}{20} + \frac{V}{10} = 24$$

yoki

$$S = 480 - 2V .$$

Ushbu tenglama orqali oilaning 24 ish kunida savat va vino ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan barcha kombinatsiyalarini aniqlash mumkin. Bu to'plam yuqoridagi 1.5-rasmda kehirilgan.

Savat ishlab chiqarish bilan vino ishlab chiqarishni almashtirish koeffitsiyenti, ya'ni savat ishlab chiqarishni vino ishlab chiqarishga chekli transformatsiya koeffitsiyenti

$$ChTK = - \frac{\Delta S}{\Delta V} = 2, \frac{\Delta S}{\Delta V} = S(V).$$

Chekli transformatsiya koeffitsiyenti oila bir tovardan qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarish uchun ikkinchi tovardan qancha hajmda ishlab chiqarishdan voz kechish kerakligini bildiradi. Demak, oila 10 litr vino ishlab chiqarishga sarflaydigan bir ish kunini savat to'qishga sarflasa, u 20 dona ortiqcha savat ishlab chiqargan bo'ladi.



Testlar

1. Jamiyat va undagi xar bir shaxsning vazifasi:

- A. O'z manfaatini ta'minlash;
- B. Cheklangan resurslardan samarali foydalanish;
- C. Cheklangan resurslardan maqsadga muvofiq foydalanish va maksimal natijalarga erishish;
- D. Jamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish.

2. Mikroiqtisodiyot fani qaysi xo'jaliklar haqida ma'lumot beradi?

- A. Uy xo'jaligi haqida;
- B. Jamoa xo'jaligi haqida;
- C. Korxonalar va quyi xo'jalik bo'g'inlari faoliyati haqida;
- D. Davlat xo'jaliklari haqida.

3. Mikroiqtisodiyot fanining predmetini aniqlang?

- A. Cheklangan imkoniyatlar doirasida talab va taklif asosida tashkil etishning asosiy qonuniyatlarini o'rganadi;
- B. Korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy sharoitini o'rganadi;
- C. Korxonalarining moliyaviy ahvolini o'rganadi;
- D. Korxonalarining xuquqiy asoslarini o'rganadi.


4. Mikroiqtisodiyot faniga eng yaqin fanlar...

- A. Iqtisodiyot nazariyasi;
- B. Tarmoq fanlari;
- C. Umumta'lim fanlari;
- D. Ijtimoiy-siyosiy fanlar.

5. Mikroiqtisodiyot fanining maxsus tadqiqot usullarini belgilang.

- A. Dialektika;
- B. Analiz va sintez;
- C. Induksiya va deduksiya;
- D. Iqtisodiy-statistik, matematik.

KROSSVORD



KROSSVORD SAVOLLARI

1. Doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy nazariy tushuncha bu -.....?
2. Davlat tomonidan o'z vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larini shakllantirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning byudjetga majburiy to'lovlarni undirish shakli.
3. Insonning muayyan sharoitda yashashi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan narsalarga muhtojligi.
4. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan lekin ish bilan ta'minlanmaslik.
5. Iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarishning pasayishi va yalpi talabning qisqarishiga duch kelgan tadbirkorlar ishlab chiqarish hajmi kamaytirish maqsadida ishchilarni bo'shatishi nima deyiladi?
6. Mablag'larni jamg'arish va ko'paytirish maqsadida ma'lum ustama haq, foiz evaziga bankka qo'yish.
7. Kishilarning (oilaning) ma'lum vaqt davomida ishlab topgan yoki qo'lga kiritgan barcha moddiy tushumlari.
8. Bozorda pulini tovarga almashadigan, ya'ni tovarni sotib oladigan tomon.
9. Kishining barcha insoniy va moddiy kapitallar yig'indisi.
10. Ayirboshlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulot.
11. Mamlakatdagi o'rtacha narx-navoning muttasil oshib borishi.


Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Talab.	8. Taklif qonuni
2. Talab egri chizig'i	9. Taklif elastikligi
3. Talab qonuni.	10. Talab va taklif muvozanati
4. Talab elastikligi	11. Bir-birini to'ldiruvchi tovarlar
5. Me'yoriy naflilik	12. Talab o'zgarishi
6. Taklif	13. Talab miqdorining o'zgarishi
7. Taklif egri chizig'i	14. Bozor muvozanati

a) Narxning o'zgarishi ishlab chiqaruvchi(sotuvchi)larga qanday ta'sir qilishi, ya'ni ularning reaksiyasini ifodalovchi ko'rsatkich.

b) Pul mablag'lari bilan ta'minlangan ehtiyojni bozorda namoyon bo'lishi yoki to'lov qobiliyatiga ega ehtiyoj.

c) Tovar narxlari bilan talab miqdorini teskari nisbatda sabab oqibatli funksional bog'lanishi.

d) Ma'lum bir vaqt mobaynida turli narxlar bo'yicha xaridorlarni sotib olishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini grafik orqali ifodalanishi.

e) Xaridorga narxning o'zgarishi qanday ta'sir qilishini, ya'ni narxning 1%ga o'zgarishi sotib olinadigan tovar miqdorini qanchaga o'zgarishini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich.

f) Iste'molchining tovar yoki xizmatni qo'shimcha birligidan ko'rgan nafi, ya'ni umumiy nafga qo'shilgan nafni bildiradi.

g) Ma'lum bir vaqt mobaynida turlicha narxlar bo'yicha sotuvchilarning sotishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini grafikda ifodalanishi.

h) Bozorda mavjud yoki bozorga olib kelinishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar.

i) Narxlar bilan sotiladigan tovarlar miqdorini to'g'ridan-to'g'ri sabab-oqibatli, funksional bog'lanishi.

j) Talab va taklifni miqdor va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.

*Talab (iste'mol) va taklif
iqtisodiyotda muvozanat
elementlaridir.*

Vilfredo Pareto

Odamlarning ehtiyoji jamiyat shakllanishining asosiy sababidir.

Abu Nasr Forobiy

k) Tovarlar juftligida birini narxining o'sishi ikkinchisiga talabni kamayishiga olib keladigan tovarlar.

l) Talab miqdori (hajmi)ning o'zgarishi, talab egri chizig'i bo'yicha narxning o'zgarishiga qarab siljishi.

m) Talab egri chizig'ining narxdan boshqa bir yoki bir necha dterminantlar o'zgarishi natijasida siljishi.

n) xaridor sotib olmoqchi bo'lgan tovar miqdori bilan sotiladigan tovar miqdorining tengligi.

?

QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG

1-Topshiriq

1. Yakka talab	A) Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxonalar, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi
2. Bozor talabi	B) Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi
3. Ekzogen talab	C) bu davlat yoki erkin bozor tizimidan tashqaridagi qandaydir kuchning aralashuvi natijasida o'zgargan talab
4. Endogen yoki ichki talab	D) bu jamiyatda mavjud bo'lgan omillar ta'sirida jamiyat ichida tarkib topgan talab
5. Talab qonuni	E) Mahsulot narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik
6. Talab egri chizig'i	F) Narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq.
7. Oliy toifali tovarlar	G) Daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar
8. Past toifali tovarlar	J) Daromadlar o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

2-Topshiriq

1. Taklif	A) bu ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar tomonidan berilgan narxlarda sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori
2. Taklif qonuni	B) to'g'ridan-to'g'ri narx o'zgarishi bilan bog'liq holda taklifning o'zgarishi

3. Iste'molchi ortiqchaligi (yutug'i)	C) iste'molchi tovarlar uchun to'lashi mumkin bo'lgan narxlar bilan tovarlarga bozorda haqiqiy to'langan narxlar ayirmalarining yig'indisi
4. Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi (yutug'i)	D) tovarlarnig haqiqiy narxlaridan chekli (bir birlik qo'shimcha tovar ishlab chiqarishga ketgan) xarajatlarni ayirmalari yig'indisiga teng.
5. Taklif chizig'i	E) tovar narxi bilan taklif qilinadigan ushbu tovar miqdori o'rtasidagi bog'liklikni ifodalovchi egri chiziq.
6. Muvozanat narx	F) talab bilan taklifni tenglashtiruvchi narx. Muvozanat narxga to'g'ri keladigan tovar miqdoriga muvozanat mahsulot miqdori deyiladi.
7. Taklif funksiyasi	G) taklifga ta'sir qiluvchi omillar mikdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi bog'liklikni ifodalaydi
8. Bozor muvozanati	J) bozorda taklif miqdori bilan talab miqdori teng bo'lgan hol; taklif chizig'i bilan talab chizig'i kesishgan nuqtaga muvozanat nuqta deyiladi.



MASALA VA MASHQLAR

1-masala. Biror bir tovarga bo'lgan talab va taklif funksiyasi berilgan bo'lsin,

$$Q_D = 100 - 1,5 \cdot P$$

$$Q_S = 20 + 0,5 \cdot P$$

Berilgan funksiyalardan foydalanib, bozor muvozanatini aniqlang.

Yechimi:

Bizga ma'lumki, bozor muvozanati talab va taklif hajmlari o'zaro tenglashganda ta'minlanadi.

$$Q_E = Q_S = Q_D$$

Demak,

$$100 - 1,5 \cdot P = 20 + 0,5 \cdot P$$

$$2 \cdot P = 80$$

$$P_E = 40$$

$$Q_E = 100 - 1,5 \cdot 40 = 40$$

Javob: Muvozanat narx 40 birlik, muvozanat hajm 40 birlikka teng.

2-masala. X tovarga talab va taklif funksiyalari quyidagicha berilgan:

$$Q_D = 200 - 5 \cdot P$$

$$Q_S = 80 + P$$

Davlat har bir tovarga 10 doll. Soliq belgiladi.

Bu qaror natijasida:

- A) Muvozanat parametrlari qanday o'zgarishini grafikda tasvirlang.
- B) Bu soliqning iste'molchi, ishlab chiqaruvchi to'laydigan qismi va soliq yuki ortiqchaligi hisoblansin.

Yechimi:

Dastlab bozor muvozanatini topamiz.

$$Q_D = Q_S$$

$$200 - 5 \cdot P = 80 + P$$

$$6 \cdot P = 120$$

$$P_E = 20$$

$$Q_E = Q_D = Q_S = 80 + 20 = 100$$

Davlat 10 so'm soliq belgilagandan so'ng $Q'_S = 80 + (P - 10) = 70 + P$

Yangi muvozanat quyidagicha bo'ladi

$$Q_D = Q'_S$$


$$200 - 5 \cdot P = 70 + P$$

$$6 \cdot P = 130$$

$$P_t = 21,6$$

$$Q_D = Q'_S = 70 + 21,6 = 91,6$$

Endi grafikda tasvirlaymiz:



Iste'molchi to'lovchi qism

$$= (21,6 - 20) \times 91,6 = 146,5$$

$$91,6 = 80 + P$$

$$P_m = 11,6$$

Ishlab chiqaruvchi to'laydigan qism

$$= (20 - 11,6) \times 91,6 = 769,4$$

Soliq yuki ortiqchaligi

$$= (21,6 - 11,6) \times (100 - 91,6) / 2 = 42$$

3-masala. Faraz qilaylikki, “golden” deb nomlangan olma naviga bo’lgan bir oylik talab funksiyasi ushbu ko’rinishda berilgan bo’lsin,

$$Q_D = 100 - 3P_G + 2P_O + 0,01I$$

Bu yerda, (100) o’zgarmas parametr bo’lib, olmaning narxi nolga teng bo’lganda talab hajmi 100 birlikka teng bo’lishini anglatadi; $(-3P_G)$ esa, agar “golden” navli olmaning bir kilogram narxi bir so’nga ko’tarilganda ushbu olmaga bo’lgan talab hajmi uch kilogramga pasayib ketishini anglatadi; $(+2P_O)$ esa, boshqa navli olmaning narxi (o’rinbosar) bir so’nga oshganda “golden” olmasiga bo’lgan talab ikki kilogramga oshishini ko’rsatadi; $(+0,01I)$ koeffitsiyenti esa, iste’molchilar daromadlarining har yuz so’nga oshishiga “golden” olmasiga bo’lgan talab hajmining 1 kilogrammga oshishini anglatadi.

Quyidagi shartlar berilgan: bir kg “golden” navli olmaning bozor narxi $P_G = 400$ so’m; boshqa navli olmaning narxi $P_O = 300$ so’m; iste’molchining bir oylik daromadlari $I = 200000$ so’m bo’lsa, “golden” navli olmaga bo’lgan bir oylik talab hajmi aniqlansin.

$$Q_D = 100 - (3 \times 400) + (2 \times 300) + (0,01 \times 200000) = 1500$$

Faqat bir omil la'sir qilganda va boshqa omillar o'zgarmas deb qabul qilingandagi sharoitda hisoblab chiqamiz:

Faqat narx P_G omili la'sir ko'rsatganda:

$$Q_D = 100 + (2 \times 300) + (0,01 \times 200000) - 3P_G$$

$$Q_D(P_G) = 2700 - 3P_G;$$

P_O uchun:

$$Q_D(P_O) = 100 - (3 \times 400) + (0,01 \times 200000) + 2P_O$$

$$Q_D(P_O) = 900 + 2P_O;$$

I uchun:

$$Q_D(I) = 100 - (3 \times 400) + (2 \times 300) + 0,01I$$

$$Q_D(I) = -500 + 0,01I.$$

4-masala. 2019 yilning 1-yarmida O'zbekiston bozorida tamaki mahsuloti taklifi $Q_S = 1800 + 5P$

Ichki bozorimizdagi talab $Q_D^1 = 3800 - P$. Tashqi bozordagi talab esa

$$Q_D^2 = 6000 - 2P$$

Bu yerda: P – 1 quti tamaki narxi, Q – qutilar soni.

Tashqi bozordagi o'zgarishlar sabab tashqi talab 20%ga kamayib ketdi.

Aniqlansin:

A) Tashqi bozordagi bu o'zgarish ishlab chiqaruvchi daromadining qancha kamayishiga olib kelishi.

B) Agar davlat 1 quti tamaki narxini 900 so'm qilib belgilab qo'ysa bu qaror qanday oqibatlarga olib kelishi.

Yechimi:

Umumiy talab

$$Q_D^U = Q_D^1 + Q_D^2 = 3800 - P + 6000 - 2P = 9800 - 3P$$

Muvozanat parametrlarini topib olsak:

$$Q_D^U = 9800 - 3P = Q_S = 1800 + 5P$$

$$8P = 8000$$

$$P = 1000;$$

$$Q_D^U = Q_S = 6800$$

O'zgarishdan keying umumiy talab

$$Q_D^U = Q_D^1 + 0,8Q_D^2 = 3800 - P + 0,8(6000 - 2P) = 3800 + 4800 - P - 1,6P = 8600 - 2,6P$$

$$Q_D^U = Q_S$$

$$8600 - 2,6P = 1800 + 5P$$

$$6800 = 7,6P$$

$$P = 894,7;$$

$$Q_D^U = Q_S = 6273$$

Ishlab chiqaruvchi daromadi $TR = PQ = 1000 \times 6800 = 6800000$ so'm

O'zgarishdan keyin $TR = PQ = 894,7 \times 6273 = 5612534$ so'm

Iste'molchining yo'qotgan daromadini topamiz:

$6\ 800\ 000 - 5\ 612\ 453 = 1\ 187\ 547$ so'mni tashkil etadi.

Davlat tomonidan 1 quti tamaki narxi 900 so'm qilib belgilanganidan keyin

$$Q_D^U = 8600 - 2,6 \times 900 = 6260$$

$$Q_S = 1800 + 5 \times 900 = 6300$$

Ortiqcha $6300 - 6260 = 40$ quti mahsulot ortib qoladi, agar davlat uni sotib olmasa va 900 so'mdan kam sotishga ruxsat bermasa chayqov bozori vujudga keladi undagi narx

$$6300 = 8600 - 2,6P$$

$$2,6P = 2300$$

Javob: P=884 so'm bo'ladi.



Quyidagi bildirilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

T/N

1. Bozor iqtisodiyotida kimning puli ko'p bo'lsa, u shuncha ko'p tovar sotib olishi mumkin .
2. Tovar ishlab chiqarish hajmi va usuli ishlab chiqarish resurslarining bahosiga bog'liq.
3. Mukammal raqobatga asoslangan iqtisodiyotda alohida tovar ishlab chiqaruvchi mahsulot miqdorini kamaytirish orqali narxga ta'sir etadi.
4. Bozor iqtisodiyotida qanday tovar ishlab chiqarish zarurligini oxir-oqibat iste'molchilar hal qilishadi.
5. Avtomashinalarga benzin quyish shoxobchasi – bozorga misol bo'la oladi.
6. Talab egri chizig'i narxning pasayishi tufayli, talab hajmini o'sishini ko'rsatadi.
7. Kishilarning daromadlarini ortishi barcha tovarlarga talabni oshiradi.
8. Resurslar bahosining har qanday o'zgarishi talab va taklif muvozanatini taklif egri chizig'i bo'yicha yuqori yoki pastga tomon o'zgartiradi.
9. Bir vaqtning o'zida tovar taklifi va iste'molga ajratilgan daromadning o'sishi natijasida baholar o'zgarmasligi mumkin.
10. Taklif egri chizig'ini o'ngga siljishi ishlab chiqaruvchilarning har bir narx darajasida avvalgiga qaraganda kamroq tovar taklif qilinayotganini ko'rsatadi.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

- 1. Bozor talabiga quyidagi omillardan qaysi biri ta'sir etmaydi?**
 - A. istemolchilarning daromadi;
 - B. o'rmini to'ldiruvchi tovarlar narxi;
 - C. istemolchilar soni;
 - D. sotuvchilar soni.
- 2. Qaysi omil talab egri chizig'iga tasir etmaydi?**
 - A. istemolchilar didi va afzal ko'rishi;
 - B. tovarlar narxi;
 - C. istemolchilar soni va yoshi;
 - D. tovarlar sifati.
- 3. Agar bozor narxi muvozanat narxdan past bo'lsa:**
 - A. ortiqcha taklif paydo bo'ladi;

- B. defitsit paydo bo'ladi;
 - C. istemolchilar bozori paydo bo'ladi;
 - D. sotuvchilar kamayadi.
- 4. Olmaga bo'lgan talab chizig'ining chap tomonga siljishiga quyidagilar sabab bo'ladi:**
- A. olma narxini kamayishi;
 - B. olma narxini ko'tarilishi;
 - C. olmani etishtirish xarajatlarini ortishi;
 - D. to'g'ri javob keltirilmagan.
- 5. Chayqovchilar faoliyati:**
- A. qonuniy tadbirkorlik xatarini kuchaytiradi;
 - B. narxlar barqarorligini kuchaytiradi;
 - C. iqtisodiy noqulayliklar paydo qiladi;
 - D. doimo foyda keltiradi;
- 6. Talab va taklif konuniga muvofik, talabning ko'payishi:**
- A. muvozanat narxni ham, muvozanat miqdorni ham kamaytiradi;
 - B. muvozanat narxni oshiradi, muvozanat miqdorni esa kamaytiradi;
 - C. muvozanat narxni kamaytiradi;
 - D. to'g'ri javob keltirilmagan.
- 7. Tovarining muvozanat narxi bu –**
- A. ortiqcha talabni paydo qiladigan narxdan yuqori narx;
 - B. ortiqcha talab ham, ortiqcha taklif ham bo'lmaydigan narx;
 - C. ortiqcha taklifni paydo qiladigan narxdan yuqori narx;
 - D. to'g'ri javob keltirilmagan.
- 8. Qaysi omillarning o'zgarishi talab egri chizig'ining siljishiga olib kelmaydi?**
- A. moda va didlarning o'zgarishi;
 - B. milliy daromadning xajmi va uning taqsimlanishi;
 - C. mahsulotning narxi;
 - D. iste'molchilarning soni yoki yosh darajasi;
- 9. Texnologiyaning takomillashuvi nimaning siljishiga olib keladi:**
- A. egri talab chizig'ini yuqori va o'ngga;
 - B. egri talab chizig'ini chapga va pastga;
 - C. egri taklif chizig'ini yuqori va o'ngga;
 - D. egri taklif chizig'ini chapga va pastga;
- 10. Tovar va xizmatlar bozori muvozanat holatda deyiladi, agar:**
- A. talab taklifga teng bo'lsa;
 - B. narx xarajatlar qo'shilgan foydaga teng bo'lsa;
 - C. texnologiya darajasi bosqichma-bosqich o'zgarib tursa;

D. taklif xajmi talab xajmiga teng bo'lsa;

11. Talab qonuni deyiladi, agar:

- A. taklif xajmining talab xajmidan oshib ketishi narxni tushushiga olib keladi;
- B. iste'molchilarning daromadi ko'paysa, u xolda ular tovarlarni ko'proq sotib oladilar;
- C. talab egri chizig'i musbat qiyaqlikka ega;
- D. mahsulotning narxi pasaysa, uni olish xajmi ko'payadi;

3-mavzu	ISTE'MOLCHI TANLOVI NAZARIYASI.
----------------	--



Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

<ul style="list-style-type: none">1. Ne'matning nafli2. Iste'mol nazariyasida ne'mat3. Naflik funksiyasi4. Chekli naflik (MU)5. Byudjet chizig'i	<ul style="list-style-type: none">6. Befarqlik egri chizig'i7. Daromad samarasi8. Almashtirish samarasi9. Giffen Tovar10. Engel chiziqlari
--	--

a) ne'matning inson ehtiyojini qondira olish xususiyatidir.

b) iste'molchining ehtiyojini qondira oladigan har qanday iste'mol ob'yektidir.

c) iste'molchining iste'mol qiladigan ne'matlar hajmi bilan, u ushbu ne'matlarni iste'mol qilish natijasida oladigan naflik darajasini ifodalaydi.

d) biror ne'matdan qo'shimcha bir birlik iste'mol qilish natijasida (boshqa ne'matlar iste'moli o'zgarimganda) iste'molchi tomonidan olinadigan qo'shimcha naf.

e) iste'molchi uchun bir xil naf beruvchi ne'matlar kombinatsiyalarini ifodalaydi.

f) ne'mat narxi o'zgarishi (almashish samarasi hisobga olinimganda) natijasida real daromad o'zgarishining iste'molchi talabiga ta'siridir.

g) naflik darajasi o'zgarimganda, tovarlar narxi o'zgarishi munosabati bilan iste'mol tovarlar talabi tarkibining o'zgarishidir.

«Hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, insonga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u oziq ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvonlar tabiat ne'matlarini o'zlashtiradi, inson esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim-kechak, uy-joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik bilan shug'ullanishi kerak. Hayvonlar garchi poda bo'lib yashasalar ham, yolg'iz yashay oladi, odamlar esa yakka holda o'zlari uchun barcha yashash vositalarini topa olmaydilar. Shuning uchun odamlar muloqot va o'zaro yordamga muhtoj bo'ladilar».

Abu Ali Ibn Sino

h) kam daromadli iste'molchilar byudjetining katta qismiga to'g'ri keladigan tovar bo'lib, uning daromad samarasi almashtirish samarasidan katta bo'lgani uchun, unga bo'lgan talab narx oshsa oshadi va narx kamaysa kamayadi.

i) Iste'mol qilingan tovarlar miqdorini iste'molchi daromadining o'zgarishiga bog'liqligini ko'rsatuvchi chiziq.

j) Byudjetni to'liq sarflash sharti bilan iste'molchi sotib oladigan tovarlar kombinatsiyalarini ifodalaovchi chiziq.

?

MASALA VA MASHQLAR

Naflik funksiyasi:

$$U(X_1, X_2) = X_1 \cdot X_2 \rightarrow \max$$

$$P_1 X_1 + P_2 X_2 = R,$$

$$X_1 \geq 0, X_2 \geq 0.$$

Optimallik shartidan

$$\frac{\partial U}{\partial X_1} = MU_1 = X_2;$$

$$\frac{\partial U}{\partial X_2} = MU_2 = X_1;$$

$$\frac{X_2}{X_1} = \frac{P_1}{P_2}.$$

Bu munosabatdan ne'matlarga sarflanadigan mablag'lar teng bo'lishi kerak:

$$X_2 \cdot P_2 = X_1 \cdot P_1, X_2 = \frac{P_1}{P_2} \cdot X_1,$$

bu munosabatni byudjet chizig'i tenglamasiga qo'yib $P_1 X_1 + P_2 \cdot \frac{P_1}{P_2} \cdot X_1 = R$ birinchi ne'mat uchun talab funksiyasini aniqlaymiz.

$$X_1 = \frac{R}{2 \cdot P_1},$$

va ikkinchi ne'mat talab funksiyasi aniqlanadi:

$$X_2 = \frac{R}{2 \cdot P_2}.$$

Misol 1. Ikki tovar uchun iste'molchining naflik funksiyasi va byudjet chegarasi quyidagicha berilgan bo'lsin:

$$U(X_1, X_2) = 2 \cdot X_1 \cdot X_2 \rightarrow \max$$

$$3 \cdot X_1 + 2 \cdot X_2 \leq 100$$

$$X_1 \geq 0, X_2 \geq 0.$$

Bu erda $P_1 = 3$, $P_2 = 2$ va $R = 100$.

a) Iste'molchining ushbu daromadi doirasida unga maksimal naf beruvchi, xarid qilinadigan tovarlar miqdori aniqlansin.

Yechish. Muvozanatlik shartidan kelib chiqib, aniqlangan talab formulalaridan foydalanib, quyidagilarni aniqlaymiz:

$$X_1 = \frac{100}{2 \cdot 3} \approx 16,7, \quad X_2 = \frac{100}{2 \cdot 2} = 25.$$

Iste'molchi birinchi tovardan 16,7 birlik, ikkinchi tovardan 25 birlik sotib olsa, maksimal naf oladi.

Misol 2. Naflik funksiyasi ko'rsatkichli funksiya ko'rinishida berilgan bo'lsin:

$$\begin{aligned} U(X_1, X_2) &= A \cdot X_1^\alpha \cdot X_2^\beta \rightarrow \max \\ P_1 \cdot X_1 + P_2 \cdot X_2 &\leq R \\ X_1 \geq 0, \quad X_2 &\geq 0. \end{aligned}$$

X_1, P_1 - mos holda birinchi tovar miqdori va narxi;

X_2, P_2 - mos holda birinchi tovar miqdori va narxi;

R - iste'molchi daromadi.

Iste'molchining birinchi va ikkinchi tovarga bo'lgan talabi aniqlansin.

Yechish. Muvozanatlik shartidan foydalanamiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial U}{\partial X_1} &= A \cdot \alpha \cdot X_1^{\alpha-1} \cdot X_2^\beta, \\ \frac{\partial U}{\partial X_2} &= A \cdot \beta \cdot X_1^\alpha \cdot X_2^{\beta-1}, \\ \frac{A \cdot \alpha \cdot X_1^{\alpha-1} \cdot X_2^\beta}{A \cdot \beta \cdot X_1^\alpha \cdot X_2^{\beta-1}} &= \frac{P_1}{P_2}. \end{aligned}$$

Ushbu munosabatdan ba'zi bir almashtirishlar orqali talab funksiyalarini quyidagicha aniqlaymiz:

$$X_1 = \frac{\alpha \cdot R}{P_1 \cdot (\alpha + \beta)}, \quad X_2 = \frac{\beta \cdot R}{P_2 \cdot (\alpha + \beta)}.$$

Misol 3. Iste'molchining naflik funksiyasi va byudjet chegarasi berilgan bo'lsin. Faraz qilaylik

$$\begin{aligned} U(X_1, X_2) &= 10 \cdot X_1^{0,3} \cdot X_2^{0,7} \rightarrow \max \\ 5 \cdot X_1 + 4 \cdot X_2 &\leq 200 \\ X_1 \geq 0, \quad X_2 &\geq 0. \end{aligned}$$

Bu erda $P_1 = 5$, $P_2 = 4$ va $R = 200$.

Iste'molchiga maksimal naf beradigan tovarlar miqdori yuqorida aniqlangan formulaga ko'ra aniqlanadi: $\alpha = 0,3$; $\beta = 0,7$.

$$X_1 = \frac{0,3 \cdot 200}{5 \cdot 1} = 12, \quad X_2 = \frac{0,7 \cdot 200}{4} = 35.$$



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Umumiy naflik oshadi, qachonki chekli naflik:

- a) pasayganda;
- b) ko'tarilganda;
- c) past sur'atda oshganda;
- d) o'ssa yoki kamaysa, lekin musbat miqdor bo'lsa;
- e) to'g'ri javob yo'q.

2. Iste'molchilar tanlovi nazariyasida, iste'molchi nimani maksimallashtirishga harakat qiladi deb yuritiladi?

- a) o'rtacha naflilikni;
- b) umumiy naflilikni;
- c) umumiy va chekli naflilikni;
- d) chekli naflilikni;
- e) to'g'ri javob yo'q.

3. Muvozanat naflilik holatiga erishish uchun iste'molchi nima qilishi zarur?

- a) oliy kategoriyali mahsulotlarni sotib olishi kerak;
- b) sifatsiz tovarlarni xarid qilmasligi;
- c) biror-bir tovar sotib olish uchun sarflanayotgan bir birlik pul miqdoridan olinayotgan naflilik boshqa bir tovardan ham bir birlik pul evaziga olinadigan naflilikka teng bo'lishi zarur;
- d) pulning chekli nafliligi har bir tovar narxiga teng bo'lishiga ishonch hosil qilishi kerak.
- e) to'g'ri javob yo'q.

4. Qaysi hollarda befarqlik kartasida joylashgan nuqtaga iste'molchining muvozanat holati deymiz?

- a) eng yuqorida joylashgan befarqlik chizig'iga;
- b) byudjet chizig'i bilan befarqlik egri chizig'i kesishgan har qanday nuqtaga;
- c) byudjet chizig'i bilan befarqlik chizig'ining burchak koeffitsiyenti bir biriga teng bo'lganda;
- d) byudjet chizig'i chegarasidan tashqarida yotgan nuqtaga;
- e) to'g'ri javob yo'q.

5. Iste'molchilar daromadining ko'payishi grafikda qanday o'zgarish hosil qiladi?

- a) byudjet chizig'i o'ngga parallel siljiydi;
- b) byudjet chizig'ining og'ish burchagi o'zgaradi;
- c) byudjet chizig'i chapga parallel siljiydi;
- d) byudjet chizig'ining og'ish burchagi qisqaradi;
- e) to'g'ri javob yo'q.

2-MODUL. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI, QISQA VA UZOQ MUDDATLI FIRMA FAOLIYATINING TAHLILI ASOSLARI

4-mavzu

ISHLAB CHIQRISH NAZARIYASI



Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Ishlab chiqarish

2. Mehnat

3. Ishlab chiqarish funksiyasi

4. Izokvanta

5. Izokvantalar kartasi

6. Umumiy mahsulot

7. O'rtacha mahsulot

8. Chekli mahsulot

9. Izokosta

10. Ishlab chiqarish omillari

- a) ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mahsulot yaratish jarayonini yoki ishlab chiqarish omillarini tayyor mahsulotga aylantirish jarayoni.
- b) ishlab chiqarish omili sifatida malakali mehnatni (payvandchi, buxgalter, elektr ustasi), malakasiz mehnatni (har xil ishchilar) va korxonah rahbarlarining tadbirkorlik harakatini o'z ichiga oladi.
- c) sarflanadigan ishlab chiqarish omillari miqdori bilan, ushbu omillardan foydalangan holda maksimal ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlik.
- d) bir xil hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziqdir.
- e) izokvantalar majmuasidan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalariga to'g'ri keladigan maksimal ishlab chiqarish hajmini o'zida akslantiradi.
- f) ma'lum vaqt oralig'ida jami ishlab chiqarilgan mahsulot.
- g) umumiy mahsulotni ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan o'zgaruvchan ishlab chiqarish omillari sarfiga nisbati.
- h) o'zgaruvchan resurslar kombinatsiyasini kichik miqdorda qo'shimcha sarfi hisobidan umumiy mahsulotning o'sgan qismi.
- i) ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi chiziq bo'lib, u umumiy qiymati bir xil bo'lgan ikkita ishlab chiqarish omillari sarflarining barcha kombinatsiyalarini ifodalovchi nuqtalarni o'z ichiga oladi, ya'ni umumiy qiymati bir xil bo'lgan mehnat va kapital sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi nuqtalarni o'z ichiga oladi.

j) Biror ne'matni ishlab chiqarishda foydalaniladigan boshqa har qanday tovar yoki ne'mat.

?

MASALA VA MASHQLAR

1. Ishlab chiqarish funksiyasi $Q = 5L^{0.5}K$, bu erda L – mehnat sarfi, K – kapital sarfi. Agar mehnat sarfi 9 ga va kapital sarfi 6 ga teng bo'lsa, kapitlaning chekli mahsuloti topilsin. Yechish:

$$MP_{(9,7)}^K = Q_{9,7} - Q_{9,6} = 5 * 3 * 7 - 5 * 3 * 6 = 15$$

Boshqa usul:

$$MQ_K = 5L^{0.5} \quad \text{bundan}$$

$$MQ_K(9, 7) = 5 * 3 = 15$$

2. Kapital sarfi 10 foizga mehnat sarfi 15 foizga oshdi. Ishlab chiqarish funksiyasi bir jinsli bo'lsa, masshtab samarasi qanday bo'ladi?

Yechish. Ikkala resurs sarfi 10 foizga oshganda ishlab chiqarishning ortishi 10 foizdan oshmaydi. Lekin mehnat sarfi 15 foiz bo'lgani uchun bu erda ishlab chiqarishning o'sish sur'atini pasayishi ro'y bermoqda.

3. Ishlab chiqarish funktsiyasi $Q = L^{0.8}K^{0.2}$. Yalpi xarajat 30 ga teng. Mehnat narxi 4 so'm, kapital narxi 5 so'm bo'lsa. Maksimal mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan resurslar sarfi aniqlansin.

Yechish.

$$1) MRTS = \frac{0,8L^{-0,2}K^{0,2}}{0,2L^{0,8}K^{-0,8}} \quad \text{yoki} \quad MRTS = \frac{4K}{L}$$

$$2) \text{ Muvozanat nuqtada: } \frac{4K}{L} = \frac{4}{5}; \quad K = \frac{1}{5}L$$

$$3) \text{ Izokosta tenglamasi: } 4L + 5K = 30$$

$$\text{Demak, } 4L + 5 * \frac{1}{5}L = 30$$

$$L = 6 \quad \text{va} \quad K = 12 \quad \text{miqdorda sarflanadi.}$$

4. Korxonaning ishlab chiqarish funktsiyasi $Q = (X_1X_2)^{\frac{1}{2}}$. X_1 omilning narxi 6 so'm, X_2 omilning narxi 5 so'm. Korxonaning yalpi xarajati 600 so'm bo'lsa, maksimal hajmda mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha X_1 va X_2 omillardan sarflaydi?

Yechish:

$$X_1 = \frac{600 * \frac{1}{2}}{6} = 50; \quad X_2 = \frac{600 * \frac{1}{2}}{5} = 60$$

Maksimal mahsulot xajmi

$$Q = [50 \cdot 60]^{\frac{1}{2}} = 54,8$$

5. Firmaning ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:
 $Q = 2 \cdot L \cdot K$.

Kapital narxi 4000 so'm, ishchi kuchi narxi 12000 so'm. Agar firma byudjeti 120 ming so'm bo'lsa, u maksimal miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun ancha ishchi kuchidan va qancha miqdordagi kapitaldan foydalanadi? Maksimal ishlab chiqarish hajmi qancha bo'ladi?

Demak, masalaning ko'rinishini quyidagicha yozamiz:

$$Q = 2 \cdot L \cdot K \rightarrow \max .$$

Firmaning byudjeti chegarasida $12 \cdot L + 4 \cdot K \leq 120$. Izokostani chizamiz

Umumiy formuladan foydalanib maksimal ishlab chiqarishni ta'minlaydigan resurslar miqdorini aniqlaymiz.

$$K = \frac{120}{2 \cdot r} = \frac{120}{2 \cdot 4} = 15 \text{ birlik}, \quad L = \frac{120}{2 \cdot W} = \frac{120}{2 \cdot 12} = 5 \text{ birlik},$$

Demak, maksimal miqdori $Q = 2 \cdot 5 \cdot 15 = 150$ birlik.

Firma 150 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 15 birlik kapitaldan va 5 birlik ishchi kuchidan foydalanadi.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Birinchi yili ishlab chiqarish hajmi 20%ga oshdi, ikkinchi yili esa 5%ga oshdi. Bu ikki yil ichida ishlab chiqarish hajmi necha foizga oshgan?

- a) 25%
- b) 30%
- c) 26%
- d) 28%
- e) 29%

2. Mehnat va capital ma'lum kombinatsiyada ularning chegara unumdorligi nisbati 2:1 ga teng bo'lsa, xarajatlarni, minimallashtirish uchun:

- a) ikki birlik mehnat bir birlik kapital bilan birlashishi kerak;
- b) ular narxining nisbati 2:1 bo'lishi kerak;
- c) ularning narxi nisbati 1:2 bo'lishi kerak;
- d) mehnatga ko'ra kapital ishlatilishi kerak;
- e) to'g'ri javob keltirilmagan.

3. Izokvanta nimani anglatadi?

- a) yalpi egri ishlab chiqarish hajmini;
- b) bir xil hajmda mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi omillar kombinatsiyasini;

- c) berilgan resurslar hajmida turlicha ishlab chiqarish hajmlarini;
- d) o'rtacha egri mahsulotni;
- e) to'g'ri javob yo'q.


4. Izokvanta ba izokosta chiziqlarida joylashgan har qanday nuqta nimani bildiradi?

- a) ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini;
- b) qiymat ko'rinishidagi mahsulot hajmini;
- c) xarajatlar summasini;
- d) resurslar hajmi kombinatsiyasini;
- e) to'g'ri javob yo'q.

5. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?

- a) ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish jarayoni;
- b) iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;
- c) ishchi kuchini ishlab chiqarish;
- d) jamiyat miqyosida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni;

KROSSVORD



KROSSVORD SAVOLLARI

1. Tovarlarini ayirboshlash usuli;
 2. O'z egasiga daromad keltiradigan ishlab chiqarish vositasi;
 3. O'zlashtirilgan moddiy va moliyaviy mablag'lar;
 4. Ishlab chiqarish omillaridan biri;
 5. Ishlab chiqarishning pirovard natijasi;
- Bo'yiga: 6. Iqtisodiyotda jarayonlarning maxsus bo'limlarga ajratilganligi.


Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar
1. Firma (korxonona)
2. Mas'uliyati cheklanmagan jamiyat
3. Korporatsiya
4. Qisqa muddatli oraliq
5. Uzoq muddatli oraliq
6. Iqtisodiy foyda
7. Sof foyda
8. Foyda massasi
9. O'zgarmas xarajat
10. O'rtacha o'zgarmas xarajat
11. O'zgaruvchan xarajat
12. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar
13. Umumiy xarajatlar
14. Chekli xarajat

a) ishlab chiqarish resurslari egalari qorolarini va manfaatlarini muvofiq lashtiruvchi institutsional tuzilma hisoblanadi;

b) firmani birgalikda tashkil qilib, birgalikda egalik qiluvchi va boshqaruvchi shaxslar guruhi bo'lib, ular firmaning barcha majburiyatlari bo'yicha to'liq javobgarlikni cheklanmagan ravishda o'zlarining zimmalariga oladilar;

c) paychilikka asoslangan jamiyat bo'lib, har bir mulk egasining mas'uliyati ushbu korxonaga qo'shgan hissasi bilan cheklangan. Korxonona aksiyalarini sotib olgan shaxslar korxonona mulki egalari ga aylanadilar;

d) bu shunday vaqt oralig'iki, firma bu oraliqda faoliyat ko'rsatganda, u ishlab chiqarish omillaridan kamida bittasining hajmini o'zgartira olmaydi. Bunday omilga o'zgarmas ishlab chiqarish omili deyiladi.;

e) bu oraliqda firma ishlab chiqarishda foydalanayotgan barcha ishlab chiqarish omillari hajmini (ishlab chiqarish quvvatini ham) o'zgartiradi;

f) tovarlarni sotishdan tushgan yalpi pul tushumidan shu mahsulotlarni ishlab chiqarishga qilingan barcha xarajatlar ayirmasining natijasidir;

g) korxonaning umumiy foydasidan byudjetga ya'ni soliq to'lovlari, banklarga to'lovlar va boshqa majburiyatlar chiqarib tashlangandan keyingi foydadir;

h) korxonona foydasining mutloq miqdoridir. Foyda massasini umumiy xarajatlarga nisbatining foizlardagi ifodasi foyda normasi deyiladi;

i) (*FC - fixed cost*) qisqa muddatli oraliqda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan xarajattir (mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshganda ham, kamayganda ham o'zgarmaydigan xarajat);

j) (*AFC - Average Fixed Cost*) - bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgarmas xarajat;

k) (*VC - Variable Cost*) - mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lgan xarajat, ya'ni mahsulot hajmi oshganda yoki kamayganda o'zgaradigan xarajat. o'zgaruvchan xarajat Q ga bog'liq funksiya bo'lib, $VC(Q)$ ko'rinishida yozilishi mumkin;

l) (*AVC - Average Variable Cost*) - bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajat bo'lib, u o'zgaruvchan xarajat miqdorini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi;

m) (*TC - Total Cost*) - qisqa muddatli orliqda ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisiga teng;

n) (*MC - Marginal Cost*) - ishlab chiqarish hajmini kichik miqdorga (odatda bir birlikka) oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha umumiy xarajattir.



QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG

1-Topshiriq

<p>1. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari</p>	<p>A) Tovarlarini o'rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi</p>
<p>2. Korxonaga (firma) mahsulotining ishlab chiqarish xarajatlari</p>	<p>B) sotuvchi maoshi, marketing (iste'molchilar talabini o'rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi</p>
<p>3. Ishlab chiqarish xarajatlari</p>	<p>C) korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilingan barcha sarflari yig'indisidir</p>
<p>4. Muomala xarajatlari</p>	<p>D) mahsulot ishlab chiqarish uchun ijtimoiy zaruriy mehnatning umumiy (jonli va moddiy) sarflaridir</p>
<p>5. Qo'shimcha muomala xarajatlari</p>	<p>E) tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib, iste'molchiga etkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi.</p>
<p>6. Sof muomala xarajatlari</p>	<p>F) mahsulotni bevosita ishlab chiqarish uchun qilinadigan barcha sarflar (ish haqi, xom ashyo va material sarflari, amortizatsiya va</p>

	h.k.) tushuniladi
7. Qaytarilmaydigan xarajatlar.	G) qaytarilmaydigan xarajatlar oldin qilingan xarajatlar bo'lib, ularni qaytadan tiklash mumkin emas. Bu xarajatlar qaytarilmasligi uchun ham firmaning qaror qabul qilishiga ta'sir qilmaydi

2-Topshiriq

1. Tannarx	A) mahsulotning navbatdagi qo'shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar
2. Chekli xarajat (MC - Marginal Cost)	B) mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir
3. Qo'shimcha xarajatlar	C) ishlab chikarish xajmini kichik miqdorga (odatda bir birlikka) oshirish bilan bog'lik bo'lgan qo'shimcha umumiy xarajaddir
4. To'g'ri xarajatlar	D) mahsulot tannarxiga ustama bo'lib, narxda aks etadigan xarajatlar
5. Egri xarajat	E) mahsulot tannarxiga bevosita qo'shilib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlar



MASALA VA MASHQLAR

1. Jadvalda ishlab chiqarish hajmiga bog'liq umumiy xarajatlari berilgan jadvaldagi qolgan xarajatlar topilsin.

Q	TC	FC	VC	AFC	AVC	ATC	MC
0	60						
1	100						
2	130						
3	155						
4	190						
5	210						

Yechish.

Yuqoridagi jadvalda bizga ishlab chiqarish mahsulot miqdori (Q, 0 dan 5 tagacha) va unga mos ravishda umumiy xarajatlar hajmi ma'lumotlari berilgan. Demak, biz berilgan ma'lumotlar asosida quyidagi formuladan foydalanib ketma-ket ustunlarni to'ldiramiz.

Demak, mahsulot ishlab chiqarilmaganda umumiy xarajat 60 ga teng bo'lishi doimiy xarajat ham 60 ga tengligini bildiradi.

1) $TC(0)=FC$ ya'ni $FC=60$

Bundan jadvaldagi FC ustundagi barcha kataklarga 60 ni kiritamiz

2) VC (o'zgaruvchan xarajat) ustunidagi kataklarga quyidagi formuladan foydalanib kiritamiz.

Umumiy xarajatlar (TC - *Total Cost*) - qisqa muddatli orliqda ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisiga teng:

$$TC = FC + VC(Q),$$

$$VC(0)=TC(0)-FC=60-60=0$$

$$VC(1)=TC(1)-FC=100-60=40$$

$$VC(2)=TC(2)-FC=130-60=70$$

$$VC(3)=TC(3)-FC=155-60=95$$

$$VC(4)=TC(4)-FC=190-60=130$$

$$VC(5)=TC(5)-FC=210-60=150$$

3) AFC (o'rtacha doimiy xarajat) ustunidagi kataklarga quyidagi formuladan foydalanib kiritamiz.

O'rtacha o'zgarmas xarajat (AFC - *Average Fixed Cost*) - bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgarmas xarajat bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$AFC(Q) = \frac{FC}{Q}.$$

$$AFC(1)=FC(1)/Q(1)=60/1=60$$

$$AFC(2)=FC(2)/Q(2)=60/2=30$$

$$AFC(3)=FC(3)/Q(3)=60/3=20$$

$$AFC(4)=FC(4)/Q(4)=60/4=15$$

$$AFC(5)=FC(5)/Q(5)=60/5=12$$

4) AVC (o'rtacha o'zgaruvchan xarajat) ustunidagi kataklarga quyidagi formuladan foydalanib kiritamiz.

O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar (AVC - *Average Variable Cost*) - bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajat bo'lib, u o'zgaruvchan xarajat miqdorini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

$$AVC(Q) = \frac{VC}{Q}$$

$$\begin{aligned}AVC(1) &= VC(1)/Q(1) = 40/1 = 40 \\AVC(2) &= VC(2)/Q(2) = 70/2 = 35 \\AVC(3) &= VC(3)/Q(3) = 95/3 = 31,6 \\AVC(4) &= VC(4)/Q(4) = 130/4 = 32,5 \\AVC(5) &= VC(5)/Q(5) = 150/5 = 30\end{aligned}$$

5) ATC (o'rtacha umumiy xarajat) ustunidagi kataklarga quyidagi formuladan foydalanib kiritamiz.

O'rtacha umumiy xarajatlarni umumiy xarajatni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$ATC = \frac{TC}{Q},$$

yoki o'rtacha o'zgarmas (*AFC*) va o'rtacha o'zgaruvchan (*AVC*) xarajatlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi:

$$ATC = AFC + AVC = \frac{(FC + VC)}{Q}.$$

$$\begin{aligned}ATC(1) &= AFC(1) + AVC(1) = 60 + 40 = 100 \\ATC(2) &= AFC(2) + AVC(2) = 30 + 35 = 65 \\ATC(3) &= AFC(3) + AVC(3) = 20 + 31,6 = 51,6 \\ATC(4) &= AFC(4) + AVC(4) = 15 + 32,5 = 47,5 \\ATC(5) &= AFC(5) + AVC(5) = 12 + 30 = 42\end{aligned}$$

6) MC (chekli xarajat) ustunidagi kataklarga quyidagi formuladan foydalanib kiritamiz.

Chekli xarajat (*MC - Marginal Cost*) - ishlab chiqarish hajmini kichik miqdorga (odatda bir birlikka) oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha umumiy xarajaddir:


Bu yerda chekli o'zgarmas xarajat $\frac{\Delta(FC)}{\Delta Q} = 0$ bo'lgani uchun, chekli xarajat

chekli o'zgaruvchan xarajat *MVC* ga teng ($MC = MVC$).

MVC - chekli o'zgaruvchan xarajat bo'lib, mahsulotni qo'shimcha bir birlikka (ΔQ) oshirgandagi o'zgaruvchan xarajatning o'sgan qismi ΔVC ga teng.

$$\begin{aligned}MC(1) &= VC(1) - VC(0) = 40 - 0 = 40 \\MC(2) &= VC(2) - VC(1) = 70 - 40 = 30 \\MC(3) &= VC(3) - VC(2) = 95 - 70 = 25 \\MC(4) &= VC(4) - VC(3) = 130 - 95 = 35 \\MC(5) &= VC(5) - VC(4) = 150 - 130 = 20\end{aligned}$$

Q	TC	FC	VC	AFC	AVC	ATC	MC
0	60	60	0	-	-	-	-
1	100	60	40	60	40	100	40
2	130	60	70	30	35	65	30
3	155	60	95	20	31,6	51,6	25
4	190	60	130	15	32,5	47,5	35
5	210	60	150	12	30	42	20



2. Mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishiga ko'ra, iqtisodiy xarajatlar va uning tarkibi quyidagicha o'zgaradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot	FC	VC	TC	MC	AFC	AVC	ATC
0	120	0	120		-	-	-
1	120	90	210		120	90	210
2	120	170	290		60	85	145
3	120	240					
4	120	300					
5		370					
6		450					
7		540					

Doimiy xarajatlar **FC**; O'zgaruvchan xarajatlar **VC**; Umumiy xarajatlar **TC**; Me'yoriy xarajatlar **MC**; O'rtacha xarajatlar **ATC**; O'rtacha doimiy xarajatlar **AFC**; O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar **AVC**; Bu kategoriyalarni aniqlashni tushunish uchun eng ma'quli masaladan hamda grafik shaklidan foydalanish.

A) Berilganlar bo'yicha xarajatlarni hisoblab, jadvalni to'ldiring. Ularni grafik orqali ifodalang.

B) Bunda doimiy, o'zgaruvchan va umumiy xarajatlar egri chiziqlarini bitta grafikda ifodalang:

- doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasida qanday farq bor?
- nima sababdan FC gorizontaal chiziqni ifodalaydi?
- nima sababdan TC egri chizig'i VC egri chizig'iga o'xshash? Izohlang.

C) O'rtacha doimiy AFC, o'zgaruvchi AVC, umumiy ATC va me'yoriy xarajatlar egri chizig'ini bitta grafikda ifodalang:

- mahsulot o'sishi bilan AFC egri chizig'i qanday o'zgaradi? Nima sababdan?
- AVC egri chizig'i qanday o'zgaradi? Nima sababdan?
- o'rtacha xarajatlar qanday o'zgaradi, nima sababdan?
- me'yoriy xarajatlarchi, nima sababdan? Izohlang.

3. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Uning qaysi birlarini o'zgaruvchan xarajatlarga, qaysi birlarini doimiy xarajatlarga qo'shamiz va nima sababdan?

- 1) bino, inshoot, asbob uskuna amortizatsiyasi;
- 2) ishchilarni ish xaqi;
- 3) korxonada direktorining belgilangan maoshi;
- 4) mulk solig'i;
- 5) elektr energiyasi va suv xarajatlari;
- 6) xom ashyo xarajatlari;
- 7) material va instrumentlar sotib olish xarajatlari;
- 8) qo'yilgan o'z pul mablag'lariga boy berilgan protsent;
- 9) yer solig'i

4. Firmaning quyidagi ma'lumotlari berilgan:

Yalpi daromadi – 10 mln. So'm,

Tashqi xarajat – 4 mln. So'm,

Normal foyda – 2,5 mln. So'm.

Firmaning buxgalteriya va iqtisodiy foydasi topilsin.

Yechish.

Buxgalteriya foydasi = Yalpi daromad – buxgalteriya xarajati = $10 - 4 = 6$ mln. so'm.

Iqtisodiy foyda = yalpi daromad – iqtisodiy xarajat = $10 - (4 + 2,5) = 3,5$ mln. so'm

5. Firmaning buxgalteri firmaning xarajatlari hisobotini yo'qotib qo'ydi. U ba'zi bir xarajatlarni eslab jadvalga tushirdi. qolgan xarajatlar topilsin.

Q	AFC	VC	AC	MC	TC
0					100
10			20		
20	5				
30				11	390
40		420			
50	2		14		



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Firmaning doimiy xarajatlari bu -

- A. resurslarni sotib olish xarajatlari;
- B. mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan minimal xarajatlar;
- C. firma mahsulot ishlab chiqarmasa ham sarflanadigan xarajatlar;
- D. mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga bog'liq xarajatlar;

2. Firmaning o'zgaruvchi xarajatlari bu -

- A. mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'rtacha xarajatlar;
- B. firma mahsulot ishlab chiqarmasa ham sarflanadigan xarajatlar;
- C. mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga bog'liq xarajatlar;
- D. mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan minimal xarajatlar;

3. Me'yoriy xarajatlar bu -

- A. qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan qo'shimcha xarajatlar;
- B. qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan maksimal xarajatlar;
- C. qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun doimiy xarajatlar
- D. qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan minimal xarajatlar;

4. Firmaning qisqa muddatli davrdagi umumiy (yalpi) xarajatlari (TC) bu -

- A. doimiy (FC) va me'yoriy (MC) xarajatlar yig'indisi;

- B. o'rtacha o'zgaruvchi (AVC) va o'rtacha doimiy xarajatlar (AFC) yig'indisi;
- C. o'rtacha o'zgaruvchi (AVC) va me'yoriy (MC) xarajatlar yig'indisi;
- D. doimiy (FC) va o'zgaruvchi (VC) xarajatlar yig'indisi;

5. Qisqa muddatli davrda firma maksimal darajada foyda olish uchun mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatadi, agarda ...

- A. narx minimal o'rtacha umumiy xarajatlardan kam bo'lsa;
- B. umumiy daromad umumiy xarajatlardan past bo'lsa;
- C. umumiy tushum umumiy o'zgaruvchi xarajatlardan kam bo'lsa;
- D. o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar narxdan past bo'lsa.

6. Agar firma resurslar sotib olgan xarajatlarini 10% ga oshirsa, bunda ishlab chiqarish hajmi esa 15% ga ortsa, u holda:

- A. ishlab chiqarishda salbiy masshtab effekti kuzatiladi;
- B. ishlab chiqarishda ijobiy masshtab effekti kuzatiladi;
- C. unumdorlikni pasayib borish qonuni amal qiladi;
- D. o'rtacha umumiy xarajatlar ortadi;

7. Iqtisodiy foydaning o'sishi raqobatli bozorda nimaga olib keladi?

- A. amal qilayotgan firmalarning ishlab chiqarishni kengaytirishga;
- B. mahsulotni bozor bahosini o'sishiga;
- C. ishlatilayotgan resurslar bahosini o'sishiga;
- D. bu foydani borgan sari nolga yaqinlashtiradigan omillar vujudga kelishiga olib keladi.

8. Quyidagilardan qaysi biri «normal foyda» tushunchasini nisbatan aniqroq ifodalaydi?

- A. firmaning me'yoriy xarajatlari me'yoriy daromadlarga $MC=MR$ teng bo'lganda olinadigan foyda;
- B. tipik firma tomonidan tarmoqdagi olinadigan foyda;
- C. firma normal tarzda ish yuritganda oladigan foyda;
- D. firma mazkur faoliyat bilan shug'ullanishi uchun zarur bo'lgan minimal foyda;

9. Quyida sanab o'tilgan xarajatlardan qaysi biri me'yoriy xarajatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi?

- A. umumiy xarajatlar;
- B. o'rtacha doimiy xarajatlar;
- C. o'zgaruvchi xarajatlar;
- D. doimiy xarajatlar;

10. Qaysi o'rtacha xarajatlar egri chizig'i botiq yoy shaklini ifodalamaydi?

- A. o'rtacha o'zgaruvchi AVC xarajatlar;
- B. o'rtacha (umumiy) yalpi ATC xarajatlar;
- C. o'rtacha doimiy AFC xarajatlar;
- D. uzoq muddatda o'rtacha xarajatlar LAC;

11. Uzoq muddatli davrda ...

- A. o'zgaruvchi xarajatlar doimiy xarajatlarga nisbatan tez o'sadi;
- B. doimiy xarajatlar o'zgaruvchi xarajatlarga nisbatan tez o'sadi;
- C. hamma xarajatlar o'zgaruvchan bo'ladi;
- D. me'yoriy xarajatlar nisbatan tez o'sadi;

12. Ishlab chiqarishda umumiy o'rtacha xarajatlar minimal miqdorda bo'ladi, qachonki:

- A. $AVC=TFC$;
- B. foyda maksimal darajada bo'lganda;
- C. $MC=AVC$;
- D. $MC=AC$;

13. Quyidagi xarajatlardan qaysi biri firmaning optimal ishlab chiqarish Hajmini belgilashda e'tiborga olinmaydi:

- A. o'rtacha o'zgaruvchi;
- B. buxgalteriya xarajatlari;
- C. o'rtacha doimiy;
- D. me'yoriy;

14. Naflilikning pasayib borishi qonunini amal qilishini izohlashda quyidagilardan qaysi biri to'g'ri kelmaydi?

- A. uning amal qilish doirasi cheklangan bo'lib, eng avvalo kundalik ehtiyojlarni qondiradigan tovar xizmatlarga tegishli;
- B. qisqa muddatli davrga xos;
- C. ko'plab tovarlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi;
- D. naflilikni baholuvchi yagona o'lchov yo'q.

15. O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar yigirma ming so'm, o'rtacha doimiy xarajatlar besh ming so'm, umumiy xarajatlar teng bo'ladi:

- A. 25000
- B. 1250000
- C. 750000

mavjud ma'lumotlar asosida aniqlash mumkin emas



Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

<ol style="list-style-type: none"> 1. Pul tushumlari yoki pul daromadlari 2. Foyda 3. Foyda normasi 4. Daromad (yalpi daromad, TR) 5. Chekli daromad (marginal revenue -MR) 	<ol style="list-style-type: none"> 6. O'rtacha daromad (<i>AR</i>) 7. Foydani maksimallashtirish 8. Raqobatlashgan firmaning qisqa muddatli oraliqdagi taklifi 9. Foyda (buxgalteriya)
--	--

- a) korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar;
- b) korxonada, pul daromadlaridan sarflangan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi;
- c) foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi;
- d) sotilgan tovar miqdorini narxga ko'paytirilganiga teng. Mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum;
- e) qo'shimcha bir birlik ne'matni sotish natijasida umumiy daromadning o'sgan qismi;
- f) sotilgan bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan daromaddir;
- g) umumiy daromad bilan umumiy xarajatlar ayirmasini maksimallashtirish demakdir;
- h) firmaning taklif chizig'i har bir mumkin bo'lgan narxlarda firma qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarib taklif qilishini ifodalaydi;
- i) mahsulotni sotishdan tushgan tushumdan ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ketgan yalpi xarajatni (tashqi xarajatni) ayrilganiga teng;



MASALA VA MASHQLAR

Raqobatlashgan bozorda **umumiy daromad** (*TR*) firma tomonidan ma'lum miqdordagi ne'matni sotishdan olgan daromadiga teng, ya'ni umumiy daromad sotilgan mahsulot miqdorini (*Q*) uning narxiga (*P*) ko'paytmasiga teng:

$$TR = P \cdot Q,$$

bu erda TR yoki R - umumiy daromad; P - narx; Q - sotilgan ne'mat miqdori.

Umuman olganda, daromad sotilgan mahsulot miqdoriga bog'liq bo'lganligi uchun, u $R(Q)$ ko'rinishida yoziladi.

O'rtacha daromad (AR) - sotilgan bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan daromaddir, ya'ni:

$$AR = \frac{TR}{Q} = \frac{P \cdot Q}{Q} = P.$$

Chekli daromad (MR) - bu qo'shimcha bir birlik ne'matni sotish natijasida umumiy daromadning o'sgan qismi $\Delta R(Q)$, ya'ni:

Maksimal foyda olish sharti: **MR=MC**

Raqobatlashgan bozorda maksimal foyda olish sharti: **MC=P**

Raqobatlashuvchi firmaning zararsiz ishlash nuqtasini ifodalovchi shart: **P=minATC(Q)**

Qisqa muddatli oraliqda firma kapitali razmeri o'zgarmaydi, shuning uchun u foydani maksimallashtiradigan o'zgaruvchan ishlab chiqarish omillari hajmini tanlashi lozim bo'ladi. Ma'lumki, foydani maksimallashtirish bu umumiy daromad bilan umumiy xarajatlar ayirmasini maksimallashtirish demakdir, ya'ni: **$\pi(Q) = TR(Q) - TC(Q)$** .

1. Mukammal raqobatlashgan firmaning umumiy xarajatlar funksiyasi $TC = 0,5xQ^3 - 15xQ^2 + 300xQ + 250\ 000$ ko'rinishida bo'lsa. Tovaming narxi necha so'rinni tashkil etsa, firma o'z faoliyatini to'xtatadi?

Yechimi:

Qisqa muddatli oraliqda narx o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlarning minimumidan past bo'lsa firma yopiladi, ya'ni $P < \min AVC(Q)$

O'rtacha xarajatlarni topsak $AVC = (0,5Q^3 - 15Q^2 + 300Q) / Q = 0,5Q^2 - 15Q + 300$ AVCni minimumini topish uchun undan hosila olib 0 ga tenglashtiramiz:

$Q - 15 = 0$ bundan $Q = 15$:

$\min AVC = AVC(15) = 0,5 \times 225 - 225 + 300 = 187,5$

Javob: Narx $P < 187,5$ bo'lganda firma yopiladi.

2. Misol. Raqobatlashgan bozorda bir xil sifatli apelsin sotilmoqda. Sotuvchining umumiy, o'rtacha va chekli daromadlarini hisoblaymiz. Ushbu hisob-kitoblar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Sotilgan apelsin miqdori, Q	Apelsin narxi, P	O'rtacha daromad, AR	Yalpi daromad, TR	Chekli daromad, MR
0	75	75	0	-
1	75	75	75	75
2	75	75	150	75
3	75	75	225	75
4	75	75	300	75
5	75	75	375	75
6	75	75	450	75
7	75	75	525	75
8	75	75	600	75
9	75	75	675	75
10	75	75	750	75

Chekli daromad MR yalpi daromadning berilgan qiymatidan oldingisini ayirish bilan aniqlanadi. Masalan,

$$MR(5) = TR(5) - TR(4) = 375 - 300 = 75.$$

Misol. Firma budilnik soat ishlab chiqaradi va raqobatlashgan bozorda harakat qiladi. Umumiy xarajatlar funksiyasi quyidagicha:

$$TC = 60 + Q^2,$$

bu yerda Q - ishlab chiqarish hajmi.

Chekli xarajat $MC = 2 \cdot Q$ va o'zgarmas xarajat $FC = 60$.

a) Budilnik soat narxi 80 so'm bo'lsa, firma foydani maksimallashtirish uchun qancha soat ishlab chiqarish kerak?

b) Olingan foyda qancha bo'ladi?

Yechish. a) Raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firma foydasini maksimallashtiruvchi shartdan foydalanamiz:

$$MC = P \text{ yoki } 2 \cdot Q = 80, \quad Q = 40 \text{ ta budilnik soat.}$$

Demak, maksimal foyda olish uchun firma 40 dona budilnik soat ishlab chiqarishi kerak.

b) Olingan foyda π ni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\pi = TR - TC = P \cdot Q - TC = 80 \cdot 40 - [60 + (40)^2] = 3200 - 1660 = 1540 \text{ so'm.}$$

3. Quyidagi jadvalda mukammal raqobat sharoitida firmaning faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

P	Q	TR	TC	TVC	TFC	ATC	AVC	MC
	100			250ming	150ming			3ming

Bozorda mahsulot birligiga baho 5 ming so'm miqdorida o'rnatiladi.

- 1) Jadvaldagi etishmovchi ma'lumotlarni topib, jadvalni to'ldiring.
- 2) Firma foydani maksimallashtirish uchun harakat qiladimi yoki zararni minimallashtirish uchun, aniqlang.
- 3) Firma foydani ko'paytirish, zararni kamaytirish uchun nima qilishi kerak, tushuntiring.
 - a) mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish;
 - b) mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish;
 - c) korxonani yopish,
 - d) hech narsani o'zgartirish kerakmas.
- 4). Aytaylik, firmani yopilish vaziyati vujudga keldi. Bu qanday baho darajasida yuz beradi?



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. «Mukammal raqobatdosh firma» tushunchasi bu firma:

- A. o'z raqiblari bilan raqobatning faqat qonuniy metodlarini qo'llashni;
- B. bozor bahosi shakllanishiga ta'sir o'tkazmasligini;
- C. bozorni egallash uchun har qanday metodlarni qo'llashni;
- D. o'z raqiblari bilan halol raqobat kurashi olib borishini anglatadi.

2. Agar firma mukammal raqobatli bozorda faoliyat yuritir ekan, o'z mahsulotini taklifini qisqartirsa, u holda:

- A. mahsulotni bozor bahosini pasayishiga olib keladi;
- B. taklifni kamaytiradi, mahsulot narxini ko'taradi;
- C. mahsulotning bozor bahosini o'sishiga olib keladi;
- D. bozorga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi;

3. Quyidagi bozorlardan qaysi birlarini mukammal raqobatga asoslangan bozorga kiritish mumkin?

- A. avtomobil, velosiped bozori;
- B. muzlatkich, televizor bozori;
- C. axborot, intellektual mulk bozori;

D. ko'chmas mulk bozori.

4. Tabiiy monopoliyaga ... misol bo'la oladi.

- A. OPEK – xalqaro neft karteli;
- B. «Sharq» matbaa ishlab chiqarish kontserni;
- C. IBM kompaniyasi;
- D. Toshkent metropoliteni.

5. O'zbekiston iqtisodiyotida ko'pchilik bozor:

- A. mukammal raqobatga asoslanadi;
- B. tartibga solib bo'lmaydigan monopoliya;
- C. tartibga solinadigan monopoliya;
- D. muayyan raqobatga va monopolistik bozorga xos elementlarga xos;

6. Oligopoliya – bu

- A. bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi raqobatlashuvchi ko'plab firmalar;
- B. tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqaruvchi ko'plab raqobatdosh firmalar;
- C. bir necha yirik raqobatdosh firmalar;
- D. yagona yirik iste'molchi kompaniya.

7. Birinchi bo'lib oligopoliya nazariyasini asoslashga harakat qilgan iqtisodchi – bu

- A. Ogyusten Kurno;
- B. Edvard Chamberlen;
- C. Joan Robinson;
- D. Alfred Marshall.

8. Mukammal va monopolistik raqobatga asoslangan bozorning umumiy tomoni

- A. tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqaradi;
- B. bozorda sotuvchi va xaridorlar soni ko'p;
- C. har bir firma o'z mahsulotiga talab egri chizig'i gorizonta bo'lgan sharoitga duch keladi;
- D. har bir firma o'z raqiblarini reaksiyasiga ko'ra ish tutadi.

9. Oligopolistik bozor monopolistik raqobatli bozor bilan quyidagi tomonlari bilan o'xshash

- A. tarmoqqa kirish uchun to'siklar yo'qligi;
- B. firmalar uchun strategik yo'nalish xos;
- C. uncha ko'p bo'lmagan sotuvchilar ish yuritishadi;
- D. firmalar bozorda hukmron rol o'ynaydi;

10. Kartel bitimini buzish uchun urinish shuncha kam bo'ladi, qachonki:

- A. bitimga rioya qilinmagani sezilmaslik ehtimoli yuqori bo'lsa;
- B. diskontlash koeffitsienti yuqori bo'lsa;
- C. kartel a'zolari o'rtasida xarajatlar teng bo'lsa;
- D. kartel bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni tartibga solganda.

11. Foydasini maksimallashtirayotgan firma mahsulot ishlab chiqarishning shunday hajmini tanlashi kerakki, bunda:

- a) o'rtacha xarajatlar minimal bo'lishi kerak;
- b) o'rtacha tushum o'rtacha umumiy xarajatlarga teng bo'lishi kerak;
- c) chekli tushum chekli xarajatga teng bo'lishi kerak;
- d) umumiy tushum maksimal bo'lishi kerak;
- e) to'g'ri javob keltirilmagan.

12. Foydasini maksimallashtirayotgan firma qanday hollarda ishlab chiqarish hajmini o'zgarishsiz qoldirishi mumkin?

- a) $MR > MC$ va $TR > TC$;
- b) $MR = MC$ va $TR > TC$;
- c) $MR > MC$ va $TR = TC$;
- d) $MR - MC$ maksimal holatda;
- e) to'g'ri javob keltirilmagan.

13. Qisqa muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda firmaning taklif egri chizig'i:

- a) MC egri chizig'idan yuqorida yotgan AVC egri chizig'iga mos keladi;
- b) bozor taklifi egri chizig'i orqali aniqlanadi;
- c) AVC egri chizig'idan yuqorida yotgan MC egri chizig'iga mos tushadi;
- d) firma mahsulotiga talab egri chizig'i bilan mos keladi;
- e) to'g'ri javob keltirilmagan.

14. Uzoq muddatli oraliqda foydasini maksimallashtirayotgan firma uchun:

- a) narx o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlarga teng bo'ladi;
- b) narx chekli xarajatlardan yuqori bo'ladi;
- c) narx o'rtacha umumiy xarajatlarga teng bo'ladi;
- d) o'rtacha umumiy xarajatlar minimal bo'ladi;
- e) to'g'ri javob keltirilmagan.

15. Maksimal foydani ko'zlab harakat qilayotgan firma qo'shimcha ishchilarni yollaydi, agar:

- a) umumiy tushum umumiy xarajatdan past bo'lsa;
- b) qiymat ko'rinishidagi chekli mahsulotning miqdori pasayganda;
- c) qiymat ko'rinishidagi chekli mahsulotning miqdori ko'tarilganda;
- d) pul ko'rinishidagi mehnatning chekli mahsuloti ish haqidan yuqori bo'lsa.

3-MODUL. MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI, ULARNING MUTANOSIBLIGI VA IQTISODIY O'SISH.

7-mavzu

ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBLASH.



Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Milliy iqtisodiyot
2. Makroiqtisodiyot
3. Yalpi ichki mahsulot
4. Yalpi milliy mahsulot
5. Milliy hisoblar tizimi
6. Sof milliy mahsulot

7. Milliy daromad
8. Shaxsiy daromad
9. Qo'shilgan qiymat
10. Nominal YaIM
11. Real YaIM
12. Oraliq mahsulot

a) barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir. Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

Investitsiyalarning ko'payishi milliy daromadning o'sishiga olib keladi.

Jon Meynard Keynes

b) bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohaslarini bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir;

c) bu ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib etadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxidagi qiymati;

d) milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi.;

e) milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.;

f) amortizatsiya ajratmalari summasiga kamaytirilgan YaIM sifatida chiqib, tarkiban milliy daromad va egri soliqlardan iborat bo'ladi.;

g) yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SIMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.;

h) milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, korxonada foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo'liga kelib tushadigan ijtimoiy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.;

i) ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste'mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.;

j) joriy narxlarda hisoblangan YaIM.;

k) narxlarning o'zgarishini hisobga olib, o'zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan YaIM;

l) ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar

a) tushirishiga qarab, boshqalar unga ergashadi.

? **QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG**

1-Topshiriq

1.Makroiqtisodiyot fani	A) Bu biror bir aniq iqtisodiy birlikni to'liq tahlil qilishdan iboratdir.
2.Makroiqtisodiyot	B) Keng kulamdagi iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Uning ob'ekti bo'lib yalpi ishlab chiqarish, ish bilan bandlik, baho va tashqi iqtisodiy savdo, inflyatsiya hisoblanadi.
3.Har qanday iqtisodiy tizimda:	C) Mamlakat iqtisodiyoti va uning yalpi ishlab chiqarishining o'sishi, pasayishi, turg'unlik davrlarini iqtisodiy tahlil qiladi va uni tartibga solish iqtisodiy mexanizmlarni yaratadi. Bunda makroiqtisodiyot nazariyasiga asoslanildi.
4.Makroiqtisodiyot	D) U boshqa iqtisodiy fanlarning konsentratsiyalashgan yig'indisi sifatida xizmat qiladi, hamda bu fanlarni bilishga tayanadi.
5.Makroiqtisodiyot fani	E) Korporatsiyalar, uy-xo'jaliklari va xukumatning uzaro manfaatlariga taalluqli ko'pgina masalalarni echishda to'g'ri yo'nalishlar beradi.
6.Mikroiqtisodiy yondoshuv yoki mikroiqtisod	F) Bu chegaralangan imkoniyatlar sharoitida ularning yuqori samaraga erishish uchun qiladigan xattixarakatidir

7.Makroiqtisodiy vaziyatlar asosida	G) Rejali yoki aralash tovar va xizmatlar takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini iqtisodiy resurslar, tovar va xizmatlar hamda daromadlarning doiraviy aylanish ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Asosan xususiy mulkka tayangan iqtisodiy tizimlarda bunday doiraviy aylanish korxonalar va uy xo'jaligi o'rtasida amalga oshiriladi.
8.“Makroiqtisodiyot” kursining ahamiyati shundaki,	J) Bu shunday iqtisodki, unda mamlakatning barcha fuqoralari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.
9.Insonlarning samarali xarakati -	K) Modelida tovarlar, xizmat va kapital oqimlari milliy chegaralar tashqarisiga chiqmaydi
10.Makroiqtisodchilar	L) Mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud va u milliy iqtisodiyotda tovarlar va daromad xarakatida namoyon bo'ladi.
11.Yopiq iqtisodiyot	M) Iqtisodiyotni to'lig'icha, ya'ni aholi daromadlari-ning o'sishi va kamayishi, ishsizlik, ishlab chiqarila-yotgan tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarish darajasi va shuningdek boshqa makroiqtisodiy muammolarni o'rganadi.
12.Ochiq iqtisodiyotda	N) Nafaqat ushbu xolatlarni tushuntirishni, balki iqtisodiyotni rivojlantirish uchun iqtisodiy siyosatlar xam olib boradilar.
13.Ochiq iqtisodiyot	O) Mikroiqtisodiy aloqalar va tahlillar yotganligi uchun ham makroiqtisodchilar ko'p xollarda mikroiqtisodiyot usullaridan foydalanishadi.

2-Topshiriq

1.YaIM	A) Biz tovar va xizmatlarni oxirgi iste'mol uchun sotib olinadigan mahsulotlarga tushunamiz.
2.Transfert to'lovlariga	B) Sotib olingan tovar va xizmatlarni yanada qayta ishlash uchun sotib olingan mahsulotlardan iboratdir
3.Oraliq mahsulotlar	C) Ikki yoqlama hisoblashdan qochish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xar tomonlama o'rganib chiqish kerak va faqat xar bir firmada yaratilgan qo'shilgan qiymatni hisobga olish zarur.
4.Shaxs ixtiyoridagi	D) Studentlarga beriladigan oylik stipendiyalar va boy

daromad deb,	qarindosh-urug'laridan beriladigan bir martalik to'lovlar.
5.Pirovard mahsulot deb,	E) Bu biror-bir mamlakat xududida joylashgan korxonada va tashkilotlarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiy yig'indisidan iboratdir.
6.Sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan,	F) Individual soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlarga aytiladi.
7.Milliy daromadni hisoblashda	G) Daromad solig'i, xususiy mol-mulklarga va meros qolgan mulklarga soliqlardan iborat.
8.Individual soliqlar -	J) Ya'ni qarilikda va baxtsiz xodisalarga shuningdek ijtimoiy dasturlarga asoslangan xolda ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, nogironlarga to'lanadigan xar xil to'lovlar, ishsizlarga va pensionerlarga to'lanadigan nafaqalar, iste'molchilar va davlat tomonidan to'lanadigan protsent to'lovlari va boshqa to'lovlar kiradi.



MASALA VA MASHQLAR

1-masala.

Jadval ma'lumotlari bo'yicha quyidagilarni hisoblang:

- xarajat oqimlari bo'yicha YaIM miqdori;
- daromad oqimi bo'yicha YaIM miqdori;
- SMM miqdori;
- MD miqdori.

Hisob	Mlrd. Pul birl.
Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	10
Sof eksport	20
Dividentlar	105
Korporatsiyalarning foyda solig'i	10
Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi	1000
Alohida qo'yilmalardan daromad	340
Foiz	400
Ijara to'lovi	25
Yalpi sof ichki investitsiyalar	610
Yollanma ishchilarning ish haqi	3140
Biznesga bilvosita soliqlar	400
Iste'mol qilingan kapital hajmi	500
Shaxsiy iste'mol xarajatlari	3300

Yechish:

a) Asosiy makroiqtisodiy o'xshashlikdan kelib chiqqan holda:

$$\mathbf{YaIM (Y) = C + I + G + Nx,}$$

bu yerda, C – iste'mol xarajatlari, G – tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi, I – Yalpi investitsiyalar, Nx – sof eksport.

Iste'mol xarajatlari ko'rsatkichlari (3300), Yalpi investitsiyalar (610), davlat tomonidan sotib olinishi (1 000) va sof eksport (20) qo'shamiz. Xarajatlar bo'yicha YaIM = 4 930 mlrd. pul birligi.

b) Daromadlar bo'yicha YaIMni Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi (10), dividendlar (105), Korporatsiyalarning foyda soliqlari (10), alohida qo'yilmalardan daromadlar (340), foizlar (400), ijara to'lovi (25), yollanma ishchilarning ish haqi (3 140) biznesga bilvosita xarajatlar (400), iste'mol etilgan kapital hajmi (amortizatsiyalar) (500)ni qo'shgan holda aniqlaymiz. Daromad bo'yicha YaIM = 4 930 mlrd. pul birligi. Xarajat bo'yicha YaIM daromad bo'yicha YaIM ga teng.

c) SMM = YaIM – amortizatsiya;

SMM = 4 930 – 500 = 4 430 mlrd. pul birligi;

d) MD = SMM – biznesga bilvosita soliqlar;

MD = 4 430 – 400 = 4 030 mlrd. pul birligi.

2 – masala

Taxminiy mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha yiliga quyidagi ma'lumotlar mavjud:

(mlrd. pul birligi)

Hisoblar	Mrld. pul birl.
Transfert to'lovlari	4
Yalpi ichki investitsiyalar	16
Biznesga bilvosita soliqlar	7
Shaxsiy daromad soliqlari	2,5
Sof eksport	1,5
Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	3
Amortizatsiya	8
Shaxsiy iste'mol xarajatlari	78
Korporatsiyalarning foyda soliqlari	2
Ijtimoiy sug'urta to'lovlari	0,5
Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi	8,5

Quyidagilarni hisoblang:

a) YaIM ko'rsatkichlari;

b) Shaxsiy daromad;

c) Shaxsiy omonatlar hajmi (Cp).

Yechish:

- a) Masala shartida berilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda xarajatlar bo'yicha YaIMni hisoblash mumkin (daromad bo'yicha hisob-kitob uchun ma'lumot yetishmaydi);

$$\mathbf{YaIM (Y) = C + I + G + Nx;}$$
$$\mathbf{YaIM = 78 + 16 + 8,5 + 1,5 = 104.}$$

- b) Shaxsiy daromad hajmini hisoblash uchun dastlab sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD) va shaxsiy daromad (ShD)ni topish zarur:

$$\text{SMM} = \text{YaIM} - \text{amortizatsiya};$$

$$\text{SMM} = 104 - 8 = 96;$$

$$\text{MD} = \text{SMM} - \text{biznesga bilvosita soliqlar};$$

$$\text{MD} = 96 - 7 = 89.$$

$\text{ShD} = \text{MD} - \text{ijtimoiy sug'urta to'lovlari} - \text{Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi} - \text{Korporatsiyalarning foyda soliqlari} + \text{transfert to'lovlari}.$

$$\text{ShD} = 89 - 0,5 - 3 - 2 + 4 = 87,5$$

Mavjud shaxsiy daomad (MShD) daromad soliqlarini chiqarib tashlaganda shaxsiy daromadga teng:

$$\mathbf{MShD = 87,5 - 2,5 = 85}$$

- c) Mavjud shaxsiy daromaddan iste'mol uchun foydalaniladi, ma'lum qismi esa omonatga aylantiriladi (Cr). Binobarin, mavjud shaxsiy daromaddan shaxsiy iste'mol xarajatlarini chiqargan holda shaxsiy omonatlarga ega bo'linadi:

$$\text{Cr} = \text{MShD} - \text{C} = 85 - 78 = 7.$$

3-masala

YaIM 6000 pul birligiga teng.

Iste'mol xarajatlari 4200 pul birligiga teng,

Davlat xarajatlari 900 pul birligiga teng,

Sof eksport 120 pul birligiga teng.

Quyidagilarni hisoblang:

- Yalpi va sof investitsiyalar hajmi;
- Eksport 450 pul birligiga tengligi sharti bilan import hajmi;
- Amortizatsiya 200 pul birligiga tengligi sharti bilan SMM.

Yechish:

- Asosiy makroiqtisodiy o'xshashlikdan kelib chiqqan holda:

$$\mathbf{YaIM = C + I + G + Nx.}$$

Bu yerda, C – iste'mol xarajatlari, G – Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi, I – Yalpi investitsiyalar, Nx – sof eksport.

Yalpi investitsiyalarni quyidagicha topamiz:

$$I = Y - C - G - Nx = 6000 - 4200 - 900 - 120 = 780 \text{ pul birligi.}$$

$$\text{Sof investitsiyalar} = I - A = 780 \text{ pul birl.} - 200 \text{ pul. birl.} = 580 \text{ pul birligi.}$$

- b) $I_m = X - N_x = 450 - 120 = 330$ pul birligi.
 c) $SMM = Y - A = 6000 - 200 = 5800$ pul birligi.

4 – masala.

Taklif etilgan jadvalni tahlil qiling (ma'lumotlar taxminiy):

Yil	Nominal YaIM (mlrd. Pul birl.)	Deflyator (% da)	Real YaIM (mlrd. pul birl.)
2001	1800	50	
2002	2800	70	
2003	3500	100	
2004	4200	105	
2005	6000	120	

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Nominal YaIM nimaning ko'rsatkichi hisoblanadi?
2. Real YaIM nominal YaIMdan qanday farq qiladi?
3. Deflyator nima, uni qanday hisoblash mumkin?
4. Jadvalning so'nggi ustunini to'ldiring.

Yechish:

1.Yalpi ichki mahsulot – yiliga yakuniy iste'mol uchun milliy iqtisodiyot tomonidan ishlab chiqarilgan Tovar va xizmatlarning yillik bozor qiymati. YaIM mazkur mamlakat, jumladan, boshqa mamlakatlar hududida bo'lgan ishlab chiqarish omillar orqali ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini o'lchaydi. Mamlakat ishlab chiqarish sohasi iqtisodiy holatining asosiy ko'rsatkichi.

2.Nominal YaIM – yalpi ichki mahsulot, uning qiymati joriy, haqiqiy narxlarda ifodalangan. U dinamikada olinib, mahsulotning jismoniy hajmi hamda narx darajasi o'zgarishini aks ettiradi. Binobarin, inflyatsiya sharoitida u iqtisodiy faoliyat natijalaridan ortib, tuzatishni talab etadi.

Real YaIM – yalpi ichki mahsulot, uning qiymati narxlarning yillik o'sishi hajmiga tuzatilgan. Shunday qilib: nominal YaIM mamlakat xalq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy pul bahosini beradi; real YaIM ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini xarakterlaydi, ya'ni doimiy narxlarda (basis yili narxlarida) o'lchangan ishlab chiqarish hajmi.

3.Deflyator joriy yilda basis yiliga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulot darajasi o'zgarishini ko'rsatadi.

$$\text{YaIM deflyatori} = \frac{\text{NomimalYaIM}}{\text{RealYaIM}} = \frac{\sum_{i=1}^m (P_1)^t x(Q_1)^t}{\sum_{i=1}^n (P_0)^t x(Q_1)^t};$$

bu yerda, $(P_0)^t$ va $(P_1)^t$ - basis va joriy davrda muvofiq tarzda I turdagi birlik narxlari; $(Q_1)^t$ – joriy yilda sotilgan *i* turdagi tovar miqdori.

Binobarin,

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{NomimalYaIM}}{\text{deflyator}}$$

Real YaIM quyidagilarni tashkil etadi:

2001 y. 1800 mlrd. pul birl.: 0,5 = 3600 mlrd. pul birl.
2002 y. 2800 mlrd. pul birl.: 0,7 = 4000 mlrd. pul birl.
2003 y. 3500 mlrd. pul birl.: 1 = 3500 mlrd. pul birl.
2004 y. 4200 mlrd. pul birl.: 1,05 = 4000 mlrd. pul birl.
2005 y. 6000 mlrd. pul birl.: 1,2 = 5000 mlrd. pul birl.

5. Kichik korxonada jun ipdan paypoq yo'qishni yo'lga qo'ydi. Bu jarayon quyidagi bosqichlar va tegishli xarajatlardan iborat:

Ishlab chiqarish bosqichlari	Sotilgan mahsulot narxi, ming so'm	Qo'shilgan qiymat
1. Fermer xo'jaligi qo'y junini xom ashyo sifatida sotdi.	250	
2. Xom ashyoni yuvish, yigirishga tayyorlash.	410	
3. Ip yigirish.	560	
4. Paypoq to'qish.	720	
5. To'qilgan paypoqni sotish.	850	

Ular asosida sotilgan mahsulotning umumiy qiymati (jami ijtimoiy mahsulot) va pirovard mahsulot, qo'shilgan qiymatni hisoblang. Bo'sh ustunni to'ldiring. Pirovard mahsulot deb qanday mahsulotga aytamiz?



Quyidagi bildirilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

T/N

1. Qo'shilgan qiymat – bu ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va umumli iste'mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chegirib tashlanadi.
2. YaMM mamlakat aholisi farovonligini aniq ifodalovchi ko'rsatkich.
3. Shaxsiy jamg'arma ko'rsatkichidan YaIMni qo'shilgan qiymat usuli bo'yicha hisoblaganda foydalaniladi.
4. Qo'shilgan qiymatda ish haqi hisobga olinadi, lekin foyda hisobga olinmaydi.
5. YaIM hajmi qaysi usul bilan hisoblanishidan qat'iy nazar (xarajatlar, daromadlar, qo'shilgan qiymat) – ularning natijasi teng bo'lishi kerak.
6. Tovar zahiralarini sotish yalpi va sof investitsiya hajmini qisqarishiga olib keladi.
7. Xufyona iqtisodiyot sektori barcha mamlakatlarda mavjud, faqat u miqyosi jihatidan farqlanadi va bu sektorda yaratilgan mahsulot YaIM, (YaMM)da o'z aksini topmaydi.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Milliy daromad qaysi tarmoqlarda yaratiladi?

- A. qishloq xo'jaligida;
- B. moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida;
- C. sanoat korxonalarida;
- D. Fan-texnika soxalarida;

2. Milliy daromadning aholi manfaati uchun bevosita sarflanadigan qismi...

- A. amortizatsiya fondi;
- B. jamg'arish fondi;
- C. iste'mol fondi;
- D. ish xaqi fondi;

3. Davlat ro'yxatidan o'tmagan ishlab chiqarish qanday iqtisodiyot deb ataladi?

- A. soliq to'lamaydigan iqtisodiyot;
- B. xususiy faoliyat yurituvchi iqtisodiyot;
- C. xufyona, ya'ni yashirin iqtisodiyot;

D. hisob, kitoblar to'g'ri yuritilmaydigan iqtisodiyot;

4. Investitsiya sarflari nima uchun zarur?

- A. qo'shma korxonalar tashkil qilish uchun;
- B. ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun;
- C. texnika – texnologiya olish uchun;
- D. yirik qurilishlar qilish uchun;

5. Yalpi milliy mahsulot-bu

- A. Milliy iqtisodiyotda bir yildavomida vujudga keltirilgan mahsulot;
- B. Bevosita istemolchiga borib tushadigan mahsulot;
- C. Mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi so'mmasi;
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

6. Sof milliy mahsulot qanday hisoblanadi?

- A. Yalpi milliy mahsulotdan amortizatsiya yillik summasini ayirish bilan;
- B. Ichki milliy mahsulotdan qo'shilgan qiymatlar yig'indisini ajratish yo'li bilan;
- C. Yalpi milliy mahsulotdan yillik qo'shilgan qiymatlar yig'indisini ajratish yo'li bilan;
- D. Sof milliy mahsulotga ichki milliy mahsulotni qo'shish yo'li bilan.

7. Milliy daromad qanday aniqlanadi?

- A. Sof milliy mahsulotdan to'g'ri va egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan;
- B. Sof milliy mahsulotdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan;
- C. Yalpi milliy mahsulotdan amortizatsiya ajratmalarini chiqarish yo'li bilan;
- D. Milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalarini chiqarish yo'li bilan;


8. Shaxsiy daromad qanday aniqlanadi?

- A. Milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- B. Korxonada foydasidan olinadigan soliqlar;
- C. Korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash xamda aholi qo'liga kelib tushadigan ijtimoiy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan;
- D. A, B, C ni qo'shish yo'li bilan;

9. Milliy hisoblar tizimi qaysi yildan boshlab xalqaro statistikada qo'llanila boshladi?

- A. 1953 yil;
- B. 1954 yil;
- C. 1976 yil;
- D. 1991 yil.

KROSSVORD



KROSSVORD SAVOLLARI

1. Ishlab chiqarilgan mahsulot narxining uni ishlab chiqarish sarf-xarajatlaridan oshishi.
2. Aksiya egasiga to'lanadigan daromad.
3. Aholi, firma va davlat joriy daromadlari bir qismini kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'plab borilishi.
4. Maxsulot ishlab chiqarish uchun qilingan sarflar.
5. Mamlakat ichiga foydalanish yoki sotish uchun chetdan olib kelingan xorijiy mahsulotlar.
6. Jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida milliy daromadning iste'mol fondiga teng bo'lgan tovar va xizmatlardan foydalanish.
7. Ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va unumli iste'mol qilishga tayyor bo'lgan mahsulotlar.
8. Qarzga mablag' beruvchi tomon.



Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Iqtisodiy o'sish
2. Iqtisodiy o'sish sur'ati
3. Ekstensiv iqtisodiy o'sish
4. Intensiv iqtisodiy o'sish
5. Milliy boylik

6. Moddiy–buyumlashgan boylik
7. Tabiiy boylik
8. Nomoddiy boylik
9. Iqtisodiy o'sish modellari

a) YaIM, SMM, MD miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi;

b) real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi;

c) ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi;

d) ishlab chiqarish omillarining mavjud darajasida, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi;

e) insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jang'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in'omlari;

f) milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy – buyum ko'rinishga ega bo'lgan qismi;

g) milliy boylikning tabiat in'omlaridan iborat bo'lgan, foydalanishga jalb qilingan, ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladigan qismi;

h) ashyoviy-buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan nomoddiy qimmatliklardan va insoniyatning intellektual salohiyati natijalaridan iborat.;

i) ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi andozalar.

Milliy boylikning ko'payishi jamiyatdagi ayrim sinflar faoliyati natijasi emas (merkantilistlarda – savdogarlar, fiziokratlarda- yer egalari), balki mehnat taqsimotida qatnashayotgan barcha kishilar faoliyatining natijasidir.
Adam Smit

? **QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG**

1-Topshiriq

1. Iqtisodiy rivojlanish	A) iqtisodiy o'sishda intensiv omillarning yuqori o'ringa egaligini bildiradi
2. Iqtisodiy o'sish mezon	B) iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishda o'z o'rniga ega bo'lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi
3. Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari	C) iqtisodiy o'sishda ekstensiv omillarning ustivor o'ringa ega ekanligini bildiradi

4. Ustuvor ekstensiv iqtisodiy o'sish	D) ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati
5. Ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish	E) ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi
6. Iqtisodiy o'sish omillari	F) iqtisodiy o'sishni nisbatan to'liq darajada baholash imkonini beradigan ko'rsatkichni xarakterlaydi
7. Mehnat unumdorligi	G) iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko'rsatkichlar tizimidan iborat
8. Mehnat sig'imi	J) mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati
9. Kapital samaradorligi	K) jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati
10. Ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi	L) mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Quyidagi omillardan qaysi biri ekstensiv o'sishga mansub?

- A. Fan – texnika yutuqlarining joriy qilinishi;
- B. mehnatni tashkil etishni takomillashtirish;
- C. mahsulotning iste'mol xususiyatini yaxshilash;
- D. kapital quymalarini ko'paytirish va ishlab chiqarishning shu asosda miqdoran o'sishi;

2. Iqtisodiy o'sishning qaysi shakli iqtisodiyotning ravon rivojlanishini to'laroq aks ettiradi?

- A. ekstensiv;
- B. turg'unlik;
- C. jonlanish;
- D. yuksalish;

3. Miliy boylik tushunchasi quyidagi qaysi ko'rsatkichga xos?

- A. mamlakat aholisi qo'lida to'plangan pul mablag'lari?

- B. yer osti va er usti boyliklar yig'indisi;
- C. qishloq xo'jaligi va sanoatda yaratilgan barcha mahsulotlar;
- D. avlodlar mehnati bilan yaratilgan va jamiyatda jamg'arib kelingan ne'matlar va tabiat inomlari yig'indisi;

4. Sikl nima?

- A. krizislarning uzoq davom etishi;
- B. bir krizisdan ikkinchi krizis boshlanguncha bo'lgan davr;
- C. turg'unlik davri;
- D. jonlanish davri;


5. Iqtisodiy rivojlanish – bu

- A. ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi;
- B. YaIM, IMM, SMM, MD miqdorining aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatning yaxshilanishida o'z ifodasini topadi;
- C. ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmini ortib borishi;
- D. ishlab chiqarish omillarining rivojlanib, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

6. Eng katta boyligimiz nima?

- A. iqtisodiy potentsialimiz;
- B. 31 mln. aholimiz;
- C. oltin, o'ran va paxtamiz;
- D. jamiyatimizdagi barqarorlik;

KROSSVORD



KROSSVORD SAVOLLARI

1. Ma'lum vaqt (yil) mobaynida real yalpi ichki mahsulot (yoki YaMM), sof milliy mahsulot xajmining ortib, tarkibi va sifatining o'zgarib borishi.
2. Resurslarni tejab-tergab ishlatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga iqtisodiy o'sish.
3. Milliy boylikning turlaridan biri.
4. Biror maqsadga yo'naltirilishga mo'ljallangan pul mablag'i?
5. Iqtisodiy o'sishning omillaridan biri.
6. Ehtiyojning qondirilish shakli.
7. Modeldagi ichki iqtisodiy o'zgaruvchi.
8. Samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari.
9. Bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne'matlarga almashinishi mumkin bo'lgan barcha narsa.



Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Ishchi kuchi 2. Ishchi kuchi resurslari 3. Iqtisodiy faol aholi 4. Ishchi kuchi migratsiyasi 5. Ishchi kuchi bozori 6. Ishsizlik	7. Friksion ishsizlik 8. Tarkibiy ishsizlik 9. Siklik ishsizlik 10. Ishsizlik darajasi 11. Ouken qonuni
--	---

a) Insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi.;

b) Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnat faoliyatiga layoqatli bo'lgan qismi;

c) Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan shaxslar ishchi kuchi resurslari;

d) Turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishi;

e) Xo'jalik faoliyati jarayonida "ishchi kuchi" tovari egalari va uning asosiy iste'molchilari – davlat va tadbirkorlar o'rtasida mehnat sharoitlari va unga haq to'lash miqdorlari, ishchilarning malaka darajasi, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarning hajmi, intensivligi va mas'uliyat

Iste'mol buyumlariga va ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabning kamligi bahoning pasayishini va taklifning qisqarishini keltirib chiqaradi, bu esa ish joylarining kamayishiga olib keladi. Agar yalpi talab kamaysa, unda u ishlab chiqarishning pasayishiga va mehnatga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Buning natijasida majburiy ishsizlik vujudga keladi.

Jon Meynard Keyns

darajasi bo'yicha tarkib topuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimi;

f) mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi;

g) malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinlar bo'shashini kutayotganlar;

h) ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o'zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik.;

i) iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik;

j) ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.;

k) ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatning matematik ifodasi

? **QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG**

1-Topshiriq

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish	A) ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va vaqtinchalik uy xo'jaligida band bo'lganlar
2. Ishchi kuchi resurslarining potentsial qismi	B) insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash, qarigan ishchilar o'rnini bosadigan yosh ishchilar avlodini etishtirish demakdir
3. Tugal migratsiya	C) mavsumiy ish faoliyati bilan bog'liq migratsiya
4. Tebranuvchi migratsiya	D) ishchi kuchining ba'zi hollarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog'liq migratsiya
5. Mavsumiy migratsiya	E) ishsizlik va inflyatsiyaning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berib, bu bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq, unga ko'ra, inflyatsiya darajasini 1%ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2%ga o'stirish lozim bo'ladi.
6. Tasodifiy migratsiya	F) ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnab ishlashi bilan bog'lik migratsiya
7. Fillips egri chizig'i	G) aholining doimiy yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq migratsiya;

2-Topshiriq

1. Institutsional ishsizlik	A) muayyan hududdagi tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy–ruhiy xususiyatdagi bir qator kompleks omillar ta'siri ostida ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanadi
2. Texnologik ishsizlik	B) ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lmaslik
3. Hududiy ishsizlik	C) mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi

	bo'lmagan qismini qamrab oladi
4. Yashirin ishsizlik	D) bo'sh ishchi o'rinlari mavjudligi sharoitida ishchini ish haqi darajasi yoki mehnatning tavsifi qoniqtirmaganligi sababli paydo bo'luvchi ishsizlik hisoblanadi
5. Turg'un ishsizlik	E) ishlab chiqarish jarayoniga texnologik usullarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Ularning ichida asosiylari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, robotlashtirish va informatsion texnologiyani qo'llash hisoblanadi
6. Ixtiyoriy ishsizlik	F) ish haqining bozor muvozanati nuqtasidan yuqori darajada o'rnatilishi oqibatida ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtasida tafovut vujudga kelishi bilan bog'liq
7. Majburiy ishsizlik	G) Ishsizlikning bu turi ishchi kuchi bozori infratuzilmasi, ya'ni ishchi kuchini ish bilan ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning etarli darajada rivojlanmaganligi yoki samarali faoliyat ko'rsatmasligi natijasida paydo bo'ladi

?

MASALA VA MASHQLAR

1. Agar mamlakatda ishchi kuchi 12,5 mln kishini, ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil qilsa, ishsizlik darajasi necha foizni tashkil qiladi?
2. Ishsizlikning tabiiy darajasi 4% ni, haqiqiy darajasi 9,3 % ni tashkil qilsa, Ouken qonuni bo'yicha YaIM ning orqada qolishi necha foizni tashkil qiladi?
3. Milliy iqtisodiyotda nominal YaIM 560 mlrd so'mni, ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiqligi tufayli YaIM ning orqada qolishi 9,65% ni tashkil qilsa iqtisodiyot qancha mahsulot yo'qotgan bo'ladi?
4. Ishsizlik darajasi 7,5% yoki ko'zda tutilgan 4% li tabiiy darajadan 3,5% yuqori bo'lgan. Bunda YaIM ning orqada qolishi qanchaga teng?
5. Mamlakatda yil boshida ish bilan bandlar soni 180 mln kishi, ishsizlar soni esa 20 mln kishi. Yil davomida har oyda o'rtacha 1% ishchilar turli sabablarga ko'ra ishdan bo'shagan, ishsizlar sonidan 20 %i esa ishga joylashgan. Ishsizlikning tabiiy darajasini aniqlang.

6. Ishchi kuchi 15,5 mln kishini, ishsizlik darajasi 11,6% ni tashkil etsa ishsizlar sonini aniqlang.

7. Artur Ouken qonuniga binoan ishsizlik darajasining 1 foizga oshishi YaIM ning necha foizga kamayishiga olib keladi?

8. Milliy iqtisodiyotda nominal YaIM 330 mlrd so'm, ishsizlikning necha foizli tabiiy darajasiga erishilganda iqtisodiyot 29 mlrd so'mlik mahsulotni yo'qotgan bo'ladi?

9. Mamlakatda nominal YaIM 650 mlrd so'mni, ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiqligi tufayli YaIM ning orqada qolishi 9,65 % ni tashkil qilsa, iqtisodiyot qancha mahsulot yo'qotgan?

10. Mamlakatda ishsizlikning tabiiy darajasi 9,5 yoki ko'zda tutilgan 5 % tabiiy darajadan 4,5 % yuqori bo'lgan. Bunday xolatda YaIMning orqada qolishi qanchaga teng?

26. Jadvalda tahlil qilinayotgan davrning 1 va 5-yillardagi ishchi kuchi resurslari va bandlik ma'lumotlari berilgan. 1 va 5-yildagi ishsizlar soni va ishsizlik darajasini aniqlang.

	1-yil	2-yil
Ishchi kuchi	82500	95300
Ish bilan bandlar	80700	87000
Ishsizlar soni	?	?
Ishsizlik darajasi	?	?

27. Iqtisodiy siklning yuksalish fazasida ish bilan bandlar soni 12,5 mln kishini tashkil etgan, iqtisodiyotning stagnatsiya holatida ishsizlar soni 1,6 mln kishiga yetgan. Ishsizlik darajasini aniqlang.

28. Ish bilan bandlar 85 mln kishi, ishsizlar soni 15 mln kishi, ishsizlik darajasini aniqlang.

29. 85 mln ish bilan bandlardan 0,5 mln kishi ishdan bo'shatildi, ro'yxatdagi 15 mln ishsizlardan 1mln kishi ishga joylashdi. Ish bilan bandlar soni, ishsizlik soni va ishsizlik darajasini aniqlang.

30. Nominal YaIM 750 mlrd dollar, ishsizlikning tabiiy darajasi 5 %, xaqiqiy ishsizlik darajasi 9%. Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi qanchaga kamaygan?



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Ishsizlik deganda...

A. O'ziga ish topolmasdan, mehnat zahirasi armiyasiga aylangan aholining

iqtisodiy faol qismi tushuniladi;

B. mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar tushuniladi;

C. ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlashini kutayotgan aholi tushuniladi;

D. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan aholi tushuniladi;

E. barcha javoblar to'g'ri.

2. Friksion ishsizlik deganda:

A. iste'molchilik talabi va texnologiyadagi turli hududlarda, turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklif nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

B. iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik tushuniladi;

C. ish joylarini o'zgartirish tufayli ishdan bo'shab qolib, malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;

D. ishlashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

E. barcha javoblar to'g'ri.

3. Tarkibiy ishsizlik deganda:

A. ish joyini o'zgartirish tufayli ishdan bo'shab qolib, malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;

B. iste'molchilik talabi va texnologiyaning o'zgarishi tufayli turli hududlarda turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

C. iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

D. ishlashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

E. to'g'ri javob yo'q.

4. Siklik ishsizlik deganda...

A. iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

B. ish joyini o'zgartirishi tufayli ishdan bo'shab qolib malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;

C. iste'molchilik talabi va texnologiyaning o'zgarishi tufayli turli hududlarda turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

D. ishlashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

E. barcha javoblar to'g'ri.

5. Ishsizlik darajasi (ID) qanday aniqlanadi?


- A. $ID=(IS \times IK) \times 100$;
- B. $ID=IS:IK \times 100$;
- C. $ID=IK:IS \times 100$;
- D. $ID=(IS+IK) \times 100$;
- E. $ID=(IK-IS) \times 100$.

IQTISODIY TERMINLARNI TOPING

S	K	P	O	T	E	N	S	I	A	L	O	U	S	K
K	I	A	N	O	R	E	R	E	G	I	O	N	I	E
CH	SH	L	F	A	G	K	A	F	I	L	L	A	K	N
SH	CH	S	L	O	L	I	Q	I	Y	M	I	L	L	F
I	I	K	U	CH	I	SH	M	N	F	A	P	L	I	I
K	B	N	A	F	L	S	I	F	A	T	S	I	K	L
L	A	I	Q	T	F	I	R	L	A	T	O	U	K	E
I	N	D	L	I	R	Z	G	L	O	S	L	S	P	N
F	D	D	O	S	I	L	A	A	Y	I	M	L	N	A
B	L	N	I	S	K	I	T	Y	I	G	I	F	A	Y
A	I	K	O	N	I	K	I	S	K	R	A	T	S	I

QUYIDAGI TERMINLARNI TOPING

- | | |
|-----------------|----------------|
| 1. Ishchi kuchi | 2. Migratsiya; |
| 3. Ishsizlik | 4. Potensial; |
| 5. Bandlik | 6. Faol; |
| 7. Friksion | 8. Qiymat; |
| 9. Siklik | 10. Naflilik; |
| 11. Regional | 12. Ouken; |
| 13. Inflyatsiya | 14. Fillips. |



Yo'nalishlarda topilsin.


Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Yalpi talab 2. Yalpi taklif 3. Umumiy iqtisodiy muvozanat 4. Yalpi taklif egri chizig'i 5. Jami taklif egri chig'ining klassik kesmasi	6. Yalpi investisiya 7. Yalpi talab shoki 8. Yalpi taklif shoki 9. Jami taklif egri chig'ining Keynes kesmasi 10. Jami taklif egri chig'ining oraliq kesmasi
--	---

- a) barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida sotib olinishi mumkin bo'lgan turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabning umumiy hajmi yoki milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi;
- b) mamlakatda muayyan vaqtda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilib, sotishga chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmidir. Bu narxlarning har xil mumkin bo'lgan o'rtacha darajasida milliy ishlab chiqarishning mavjud real hajmi;
- c) Yalpi talab egri chizig'i va yalpi taklif egri chizig'i kesishgan nuqta;
- d) har qanday mumkin bo'lgan narxlar darajasida ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishga tayyor bo'lgan tovar va xizmatlar hajmini ko'rsatadi;
- e) amortizatsiya qiymati bilan sof investisiya (kapitalning o'sgan qismi) ning yig'indisi;
- f) jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli
- g) talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillarining keskin o'zgarishi ta'sirida yalpi talabning ham keskin o'zgarishi (pul taklifining yoki pul aylanish tezligining o'zgarishi, investitsiyalarga bo'lgan talabning o'zgarishi, inflyatsiya kutilishning keskin o'zgarishi va boshqa);
- h) taklifning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillarining keskin o'zgarishi ta'sirida yalpi taklifning ham keskin o'zgarishi (resurslarga bo'lgan narxlarning o'sishi, tabiiy ofatlar);
- i) real YaMM o'zgarganda, narx darajasi doimiy bo'lib qoladigan jami taklif egri chizig'ining yotiq (gorizontal) kesmasi;
- j) to'la bandlikdagi iqtisodiyot holatiga mos keluvchi jami taklif egri chizig'ining tik (vertikal) kesmasi;
- k) jami taklif egri chizig'ining keynsian va klassik kesmalari oralig'ida joylashgan ko'tarilayotgan kesmasi.



MASALA VA MASHQLAR

1-masala.

- 1) Ma'lumotlar (pul birligi) asosida dastlabki hisob-kitoblar qilib, quyidagi jadvalni to'ldiring:
Mavjud daromadning iste'mol xarajatlari = $200 + 0,75$,
- Investitsiyalar = 200,
 - Eksport = 125,
 - Import = 25,
 - Soliqlar = 200.

AS=Y	T	Yd	C	I	G	Xn	AD
1800							
2000							
2200							
2400							
2600							

AS – yalpi ishlab chiqarish;

T – soliqlar;

C – iste'mol;

G – davlat xarajatlari;

AD – Yalpi talab;

Y – milliy daromad;

Yd – mavjud daromad;

I – investitsiyalar;

Xn – sof eksport.

- 2) Qanday daromad darajasida iqtisodiyot makroiqtisodiy muvozanatga erishadi?
- 3) Investitsiyalar multiplikatori nimaga teng?
- 4) Agar investitsiyalar hajmi 150 mlrd. pul birligigacha pasayib ketsa, qanday daromad darajasida iqtisodiyot yangi muvozanatga erishadi?

Yechish:

- 1) Jadvalni quyidagicha to'ldiramiz:
Soliqlar (200) va investitsiyalar (200) miqdori shartda berilgan. Mavjud daromad (Yd) = milliy daromad (Y) – soliqlar (T):
 $1800 - 200 = 1600$ va h.k. darajalar uchun.
Iste'mol xarajatlari (C) = $200 + 0,75 Yd = 200 + 0,75 \times 1600 = 1400$ va yalpi ishlab chiqarish darajalari uchun hokazo.
Sof eksport (Xn) = eksport – import = $125 - 25 = 100$.

Tahlilni soddalashtirish uchun iqtisodiyotda na byudjet defitsiti, na profitsiti, ya'ni davlat xarajatlari (G) daromadlarga (soliqlar – T ga) teng. Yalpi talab (AD) quyidagi komponentlar qiymatini aks ettiradi:

$$AD = C + I + G + X_n.$$

Jadvalni to'ldiramiz.

AS=Y	T	Y _d	C	I	G	X _n	AD
1800	200	1600	1400	200	200	100	1900
2000	200	1800	1550	200	200	100	2050
2200	200	2000	1700	200	200	100	2200
2400	200	2200	1850	200	200	100	2350
2600	200	2400	2000	200	200	100	2500

- 2) Jadvaldan ma'lumki, makroiqtisodiy muvozanatga AS = AD = 2200 orqali erishiladi.
- 3) Investitsiyalar multiplikatori hajmi (m) $m = \frac{1}{1-MPC}$ formulasi bo'yicha yoki $\frac{1}{1-0,75} = \frac{1}{0,25} = 4$ orqali hisoblanadi.
- 4) Milliy daromad va ishlab chiqarishning o'zgarishi quyidagicha hisoblanadi: Daromad ortishi (ΔY) = investitsiyalar ortishi (ΔI) x m = (ΔY) = (150 – 200) x 4 = - 200.

Binobarin, daromad muvozanatining yangi darajasi:

$$2200 - 200 = 2000 \text{ ni tashkil etadi.}$$

2 – masala.

O'tgan yili AD egri chizig'I tenglamasi: $Y = 3300 - 3P$ ko'rinishiga ega edi. Joriy yilda bu tenglama: $Y = 3270 - 3P$ ko'rinishiga ega. Potensial YaIM avvalgi darajasi 3000 da qolgan. Qisqa muddatdagi muvozanatli YaIM va uzoq muddatli inflyatsiya darajasini aniqlang.

Yechish:

Birinchi yilda: $3000 = 3300 - 3P$ $P=100$,

Ikkinchi yilda: $3000 = 3270 - 3P$ $P = 90$, ya'ni bu davrda narxlar darajasi 10%ga pasaygan.

Ikki AD egri chiziq tenglamalariga ko'ra, qisqa muddatda egri chiziq chapga siljigan, shuning uchun:

$Y = 3270 - 300 = 2970$, ya'ni yalpi talabning qisqarishi ikkinchi yilda ishlab chiqarish hajmi kamayishiga olib kelgan.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Nominal yalpi ichki mahsulotning va baholar darajasining bir vaqtda pasayishi klassik model bo'yicha quyidagicha tushuntiriladi:

- a) faqat AD egri chizig'i chapga siljiydi;
- b) faqat AD egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- v) faqat potensial YAIM darajasi pasayadi;
- g) AS egri chizig'i o'ngga siljiydi.

2. Baholar darajasi o'zgarmagan holda YAIMning pasayishi klassik model buyicha quyidagicha tushuntiriladi:

- a) potensial YAIM o'zgarmagan holda yalpi talab o'sadi;
- b) bir vaqtning o'zida yalpi talab va potensial YAIM kamayadi;
 - v) yalpi talab o'zgarmagan holda potensial YAIM o'sadi;
- g) potensial YAIM pasaygani holda yalpi talab o'sadi.

3. AD egri chizig'ining chap va o'ng tomonga siljishi baholar darajasiga ta'sir etmaydi, agar:

- a) bu siljish AS egri chizig'ining gorizontaal kesimida balsa;
- b) bu siljish AS egri chizig'ining vertikal kesimida bo'lsa;
- v) bu siljish AS egri chizig'ining oraliq kesimida bo'lsa;
- g) iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitida bo'lsa.

4. Agar baho darajasi oshsa, ishlab chiqarish pasayadi, bu holat AD –AS modelida izohlanadi:

- a) AD egri chizig'ining o'ngga siljigani bilan;
- b) AD egri chizig'ining chapga siljigani bilan;
- v) AS egri chizig'ining chapga siljigani bilan;
- g) AS egri chizig'ining o'ngga siljigani bilan;

5. AS egri chizig'i Keynes kesimida:

- a) ijobiy egilishga ega;
- b) salbiy egilishga ega;
- v) vertikal ko'rinishga ega;
- g) gorizontaal ko'rinishga ega.

6. Iqtisodiyot ASning klassik kesimida bo'lganda, AD ning o'sishi quyidagiga olib keladi:

- a) baholarning o'sishiga, lekin real YAIM (darajasi) dinamikaga tasir qilmaydi;
- b) YAIMning o'sishiga olib keladi, lekin baholar darajasiga ta'sir qilmaydi;
- v) baholar darajasi va real YAIMning o'sishiga;
- g) baholar darajasining pasayishiga va real YAIM o'sishiga.

7. Yalpi talab AD egri chiziq bo'ylab yuqoriga suriladi, agar:

- a) baholar darajasi pasaysa;
- b) baholar darajasi oshsa;
- v) ishlab chiqarish quvvatlari pasaysa;
- g) milliy valyutaning kursi ko'tarilsa;

**Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar**

1. Iste'mol (consumption)	6. Investitsiya (investment)
2. Ist'emol xarajatlari	7. Investitsiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest)
3. Iste'mol narxlar indeksi	8. Transfert to'lovlari
4. Iste'molga o'rtacha moyillik	9. Foiz stavkasi (interest rate)
5. Iste'molga (jamg'arishga) chegaralangan moyillik;	10. Jamg'arishga chegaralangan moyillik

- a) kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi;
- b) tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste'mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo'jaliklari va davlatning iste'mol xarajatlariga bo'linadi. YAIMning xarajatlariga ko'ra tarkibida eng katta va barqaror component;
- c) o'rtacha oila tomonidan, odatda, iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o'zgarishi o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyasiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi;
- d) iste'mol xarajatlarining daromaddagi (yoki shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmidagi) hisyasi;
- e) iste'mol xarajatlaridagi (jamg'arish hajmigi) o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDdagi) o'zgarish miqdoridagi ulushi;
- f) ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud;
- g) investitsiya xarajatlarining daromaddagi hisyasi;
- h) evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stendiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar);
- i) kredit yoki qarz kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir- birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi;
- j) jamg'arish hajmi o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDning) o'zgarish miqdoridagi ulushi.

**MASALA VA MASHQLAR**

1-masala.

Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar bilan yoritilgan:

1. Iste'mol xarajatlari (C) = 2300;
2. Yalpi investitsiyalar (I) = 700;
3. Davlat xarajatlari (G) = 800;
4. Transfert to'lovlari (TP) = 100;
5. Davlat qarzi bo'yicha foiz to'lash (N) = 100;
6. Soliqlar (T) = 800.

YaIM = YaMM deb taxmin qilinsin.

Hisoblang:

- a) shaxsiy omonatlar;
- b) davlat omonatlari;
- c) agar defitsit obligatsiyalar chiqarish bilan 80%ga moliyalashtirilishi ma'lum bo'lsa, davlat byudjeti defitsitini qoplash uchun chiqarilgan davlat obligatsiyalari qiymati va qo'shimcha pul miqdori.

Yechish:

- a) Shaxsiy omonatlar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C_n = (Y + TP + N - T) - C$$

$$Y = C + N + G$$

$$Y = 2300 + 700 + 800 = 3800$$

$$C_n = (3800 + 100 + 100 - 800) - 2300 = 900$$

- b) Davlat omonatlari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C_T = T - TP - N - G$$

$$C_T = 800 - 100 - 800 = -200$$

- c) Davlat omonatlarining salbiy belgisi davlat byudjeti defitsiti mavjudligini anglatadi:

$$BD = -C_T = -200$$

Defitsit 80% obligatsiyalar chiqarish bilan moliyalashtiriladi, ya'ni

$$\Delta B = 0,8 \times BD$$

$$\Delta B = 0,8 \times 200 = 160$$

Defitsitning qolgan qismi qo'shimcha pul chiqarish orqali moliyalashtiriladi:

$$\Delta M = 200 - 160 = 40.$$

2 – masala

Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar orqali yoritiladi:

1. Iste'mol xarajatlari (C) = 1200;
2. Yalpi investitsiyalar (I) = 500;
3. Davlat xarajatlari (G) = 300;
4. Transfert to'lovlari (TP) = 200;
5. Davlat qarzi bo'yicha foiz to'lash (N) = 100;
6. Soliqlar (T) = 400.
7. Sof eksport (Xn) = -100.

Quyidagilar nimaga teng?

- a) shaxsiy omonatlar;
- b) davlat omonatlari;

c) tashqi dunyo omonatlari?

Yechish:

a) Shaxsiy omonatlar quyidagi formula bo'yuicha hisoblanadi:

$$C_n = (Y + TP + N - T) - C$$

$$Y = C + I + G$$

$$Y = 1200 + 500 + 300 = 2000$$

$$C_n = (2000 + 200 + 100 - 400) - 1200 = 700$$

b) Davlat omonatlari quyidagi formula bo'yuicha hisoblanadi:

$$C_t = T - TP - N - G$$

$$C_T = 400 - 200 - 100 - 300 = -300$$

c) Tashqi dunyo omonatlari quyidagi formula bo'yuicha hisoblanadi:

$$C_n = I_m - X, \text{ yoki } C_p = -X_n$$

$$C_n = -X_n = (-100) = 100.$$

3-masala

Mamalakat iqtisodiyotidagi omonatlar (C) real foiz stavkasiga X bog'liq (P): $C = 100 + 400P$. Agar nominal foiz stavkasi 40% ga teng, narxlar oshishi sur'ati esa 30% ni tashkil etsa, u holda, omonatlar nimaga teng bo'ladi?

Yechish:

$$C = 100 + 4P, \quad C = 140, \quad 140 = 100 + 400P, \quad 40 = 400P, \quad P = 40:400 = 0,1, \quad C = 100 + 400P, \quad 100 + 400 \times 0,1, \quad C = 100 + 40 = 140.$$

Omonatlar 140 ga teng yoki nominal foiz stavkasi $P_n = P_p - P$, u holda real foiz stavkasi $P_p = P_n - P$, $40\% - 30\% = 10\%$, koef. 0,1 (10:100), $C = 100 + 400 \times 0,1 = 100 + 40 = 140$

4 – masala

Oilaning bir a'zosiga yillik daromad va iste'mol miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir oila guruhi bo'yuicha omonatlar, shuningdek, iste'molga so'nggi moyillik (MPC) va omonatga so'nggi moyillikni (MPC) hisoblang.

Hisob-kitoblarni quyidagi jadvalda rasmiylashtirish mumkin.

Oila guruhlari	Bir oila a'zosining daromadi	Iste'mol xarajatlari	Iste'molga ortiqcha moyillik MPC	Omonatlar S	Omonatga ortiqcha moyillik MPS
A	900	900			
B	1200	1140			
C	1800	1608			
D	2400	2052			

Yechish:

Jadvalni to'ldirish uchun quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$\text{Daromad} = \text{Iste'mol} + \text{Omonatlar} = Y = C + S,$$

Bu yerda, Y – daromad, C – iste'mol, S – omonatlar.

Bu yrdan $S = Y - G$ ekanini aniqlaymiz.

Hisoblaymiz $C: 900 - 900 = 0; \quad 1200 - 1140 = 60; \quad 1800 - 1608 = 192$ va hokazo. Natijalarni jadvalga kiritamiz.

Iste'molga so'nggi moyillik va omonatga so'nggi moyillikni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$MPC = \frac{\Delta C}{\Delta Y}; \quad MPS = \frac{\Delta S}{\Delta Y},$$

Bu yerda, MPC – iste'molga so'nggi moyillik; ΔC – iste'molning o'zgarishi (ortishi); ΔY – daromad ortishi; MPS – omonatga so'nggi moyillik; ΔS – omonatlarning o'zgarishi (ortishi).

Iste'molga so'nggi moyillikni hisoblaymiz:

$$MPC = \frac{1140 - 900}{1200 - 900} = \frac{240}{300} = 0,8$$

$$MPC = \frac{1608 - 1140}{1800 - 1200} = \frac{468}{600} = 0,78$$

Shu tarzda boshqa belgilarni hisoblaymiz va natijalarni jadvalga kiritamiz.

Omonatga so'nggi moyillikni yuqorida keltirilgan hamda quyida keltirilgan formula yordamida hisoblash mumkin:

$$MPC + MPS = 1,$$

Bu yerda, $MPS = 1 - MPC$

$$MPS = 1 - 0,8 = 0,2; \quad 1 - 0,78 = 0,22 \quad \text{va hokazo.}$$

Natijani jadvalga kiritamiz, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Oila guruhlari	Bir oila a'zosining daromadi	Iste'mol xarajatlari	Iste'molga ortiqcha moyillik MPC	Omonatlar S	Omonatga ortiqcha moyillik MPS
A	900	900		0	
B	1200	1140	0,8	60	0,2
C	1800	1608	0,78	192	0,22
D	2400	2052	0,74	348	0,26
E	3000	2472	0,7	528	0,3

5 – masala

Dastlabki avtonom investitsiyalar natijasida yalpi milliy mahsulot 10 mlrd. Pul birligiga oshdi (ΔI). Omonatga so'nggi moyillik (MPS) 0,2 ga teng bo'lsa, bu investitsiyalar miqdorini toping.

Yechish:

Investitsiyalar miqdorini investitsiyalar multiplikatori (m) yordamida topish mumkin, u omonatga ortiqcha moyillik asosida hisoblanadi.

$$m = \frac{1}{MPS} = \frac{1}{0,2} = 5.$$

YaIMning ortishi (ΔY) = $\Delta I \times m$, bunda investitsiyalar o'zgarishini aniqlash mumkin: $10 = \Delta I \times 5$, $\Delta I = 2$.

Binobarin, dastlabki investitsiyalarning 2 mlrd. pul birligiga ortishiga sabab bo'ldi.

6 – masala

Tadbirkorlarning investitsiyalari (I) 50 pul birligi, davlat xarajatlari (G) – 200, sof eksport (Xn) – 70, avtonom iste'mol xarajatlari (C) – 100, omonatga so'nggi moyillik (MPS) – 0,25 ga teng bo'lsa, YaIMning muvozanatli darajasini aniqlang.

Yechish:

$$MPS = 1 - MPC = 1 - 0,25 = 0,75;$$

Iste'mol xarajatlari vazifasi:

$$C = 100 + 0,75 \text{ YaIM.}$$

$$\text{YaIM} = C + I + G + X_n.$$

Mavjud ma'lumotlarni asosiy makroiqtisodiy o'xshashlikka qo'ygan holda, bir no'malum – YaIMli tenglamaga ega bo'lamiz. Tenglamani yechish orqali YaIMning izlanayotgan muvozanatli miqdorini topamiz.

$$\text{YaIM} = 100 + 0,75 \text{ YaIM} + 50 + 200 + 70 \text{ pul birl.}$$

$$0,25 \text{ YaIM} = 420 \text{ pul birl.}$$

$$\text{YaIM} = 420 : 0,25$$

$$\text{YaIM} = 1680 \text{ pul birl.}$$

7 – masala

Mamalakat aholisi mavjud daromadlarning 20% ini omonatda saqlaydi, avtonom iste'mol quyidagiga teng: $a = 200$. Narxlar darajasi va ish haqining nominal stavkasi o'zgarasdir. Investitsiya talabi $I = 200$, davlat xaridlari $G = 800$, real milliy daromad $Y = 3000$. Soliqlar darajasi daromad darajasiga bog'liq emas.

Agaro'zgarmas soliqlarda davlat xarajatlari 50 birlikka oshgan bo'lsa, real milliy daromad qanday o'zgaradi?

Yechish:

Masala shartiga ko'ra $\Delta G = 50$, $MPC = 20\%$ yoki $0,2$.

Davlat xarajatlar multiplikatori quyidagicha aniqlanadi:

$$M = 1 / MPC = 1 / 0,2 = 5.$$

Bunda real milliy daromadning o'zgarishi quyidagini tashkil etadi:

$$\Delta Y = \Delta G \times m = 50 \times 5 = 250.$$

**Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar**

1. Avtonom investitsiyalar	6. Foiz stavkasi samarasi
2. Avtonom iste'mol xarajatlari	7. Keyns kesishmasi
3. Avtonom jami xarajatlar	8. Klassik model
4. Avtonom xarajatlar multiplikatori	9. Kichik ochiq iqtisodiyot
5. Haqiqiy investitsiyalar	10. Umumiy muvozanatlik

- a) tasarrufdagi yillik daromad darajasiga bog'liq bo'lmagan investitsiya xarajatlari; hajmi va o'zgarishi tasarrufdagi daromadga bog'liq bo'lmagan iste'mol xarajatlarining qismi;
- b) har bir berilgan vaziyatda hajmi va o'zgarishi tasarrufdagi joriy daromadga bog'liq bo'lmagan jami xarajatlarning qismi;
- c) muvozanatli YaIM o'zgarishiga avtonom xarajatlarining har qanday komponentining o'zgarish nisbati;
- d) yil oxirida ishlab chiqarish zahiralarda rejalashtirilmagan o'zgarishlar miqdoriga kamaytirilgan (oshirilgan) rejadagi investitsiyalar;
- e) narxlar darajasining ko'tarilishi (pasayishi) va u keltirib chiqargan pulga bo'lgan talabning o'sishi (pasayishi);
- f) Keynsning nazariyasiga asosan daromad aniqlashni sodda modeli bo'lib, xarajatlar o'zgarishi natijasida jami daromadni multiplikativ samara bilan oshishini vujudga keltiradigan mexanizmni ifodalaydi;
- g) Keynsga davrigacha hamda klassik g'oyalarga asoslangan iqtisodiy model;
- h) bunday iqtisodiyotda ichki bozor foiz stavkasi jahon foiz stavkasining darajasi bilan belgilanadi va kapital oqimlarning harakatiga hech qanday to'siqlar xalaqit bermaydi;
- i) – barcha bozorlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida o'rnatiladigan muvozanatlik. Barcha bozorlarni muvozanat xolatda bo'lishi. Bunda biror bozorda muvozanatlik buzulsa boshqa bozorlarda xam muvozanatlik buziladi.



MASALA VA MASHQLAR

1-masala.

Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar orqali yoritilgan:

$$Y = C + I; \quad C = 100 + 0,8Y; \quad I = 50,$$

Bu yerda, Y – muvozanatli daromad darajasi; I – avtonom investitsiyalar; G – muvozanatli iste'mol darajasi; C – omonatlar hajmi.

Quyidagilarni aniqlang:

- Muvozanatli daromad darajasi;
- Muvozanatli iste'mol darajasi;
- Agar ishlab chiqarish darajasi 800 ga teng bo'lsa, u holda, mahsulot zahiralarining rejadan tashqari ortishi qanday bo'ladi?
- Agar avtonom investitsiyalar 100 gacha ohsa, u holda, muvozanatli ishlab chiqarish qanday o'zgaradi? Avtonom xarajatlar multiplikatorining qiymati qanday?

Yechish:

- Dastlabki muvozanatli ishlab chiqarish (daromad) darajasini quyidagi tenglamani yechish orqali topish mumkin:

$$Y = C + I = 100 + 0,8Y + 50$$

Algebraik o'zgartirishlar orqali muvozanatli ishlab chiqarish hajmi qiymatiga ega bo'lamiz: $Y = 750$.

- Muvozanatda quyidagi tenglikka amal qilinadi:

$$S = I, \text{ binobarin:}$$

$$C = I = 50, \text{ muvozanatli iste'mol darajasi:}$$

$$C = Y - S = 750 - 50 = 700.$$

- Mahsulot zahiralarining rejadan tashqari ortishi quyidagini tashkil etadi: $800 - 750 = 50$.
- Agar avtonom investitsiyalar 50 dan 100 gacha ohsa, u holda, rejalashtirilayotgan xarajatlar egri chizig'I yuqoriga siljiydi va mahsulot ishlab chiqarish $\Delta Y = \Delta I \times m$ miqdoriga nisbatan ortadi, bu yerda, ΔY – muvozanatli mahsulot ishlab chiqarish; ΔI – avtonom investitsiyalarning ortishi; m – avtonom xarajatlar multiplikatori.

2 – masala.

Real daromad darajasi $Y = 4000$, iste'molga moyillik $MPC = 0,8$, potensial daromad $Y^* = 4200$. Mamlakat iqtisodiyoti potensial ishlab chiqarish hajmiga erishishi uchun hukumat soliq tushumlari hajmini qancha o'zgartirishi kerak?

Yechish:

Soliqlar multiplikatori formulasi quyidagicha:

$$MPC : MPS = 0,8 : 0,2 = 4.$$

Bunda soliqlarning o'zgarish miqdorini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\Delta Y = - \Delta T \times m, \quad \Delta T = - \Delta Y : m = - 200 : 4 = - 50,$$

ya'ni agar soliq tushumlari 50 ga kamaysa, iqtisodiyot o'z imkoniyatiga erishadi.


Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Moliya	5. Davlat qarzlari
2. Moliya tizimi	6. Soliqlar
3. Davlat byudjeti	7. Soliq stavkasi
4. Byudjet taqchilligi	8. Laffer egri chizig'i

l) pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar;

m) moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir;

Qog'oz pullarning miqdori yaratilgan tovar va xizmatlarning miqdoriga mos kelmagan sharoitda bunday pullardan foydalanish noqulayliklari paydo bo'ladi.

Ann Rober Jak Tyurgo

n) davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi;

o) byudjet xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo'lishi natijasida vujudga kelgan farq;

p) byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar;

q) jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli

r) soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi;

s) davlat byudjeti daromatlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi;

Nafaqat qimmatli metall va toshlar hamda pul boylik hisoblanadi, balki mamlaka-ning yeri, uylar, kemalar, tovarlar va hatto uy jihozlari ham boylikni tashkil etadi.

Uilyam Petti



QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG

1-Topshiriq

1. Fiskal siyosat	A) Bu kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir.
2. Davlat byudjeti	B) Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatbaho qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish.
3. Davlat byudjeti defisiti	C) Banklarda yaratiladigan yangi pulning zaxira salmog'iga nisbati
4. Davlat byudjeti profitsiti	D) Daromad hajmi o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi o'sib boruvchi soliqlar
5. Progressiv soliqlar	E) Daromad hajmi o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi pasayib boruvchi soliqlar
6. Regressiv soliqlar	F) davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortib ketishi.
7. Proportsional soliqlar	G) tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya–kredit muassasalari majmuidir
8. Moliyaviy siyosat	J) soliq ob'ektlari birligiga solingan soliq miqdori. U qat'iy, progressiv, regressiv, proporsional turlarga bo'linadi.
9. Moliya-bank tizimi	K) Daromad hajmi o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi o'zgarishsiz qoluvchi soliqlar
10. Soliq stavkasi	L) ma'lum davrda daromadlar miqdorining xarajatlardan ortib ketishi.
11.NLS -	M) davlat xarajatlari va soliqlarni o'zgartirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan byudjet va soliq siyosatini o'z ichiga oluvchi moliyaviy siyosatning bir qismi
12.Pulning xarid qilish qobiliyati	N) iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, davlatning o'z funksiyasi va vazifalarini bajarishda moliyani tashkil etish va undan foydalanish tadbirlarini ifodalaydi.
13.LKB	O) davlatning daromadlari manbai va mablag'larni sarflash yo'nalishlari ko'rsatilgan holda tuzilgan davlatning ma'lum davr, odatda bir yilga mo'ljallangan daromadlari va xarajatlari smetasi

2-Topshiriq

1.SKV -	A) Maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan tovar hisoblanib, barcha turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash vositasi hisoblanar ekan.
2.Nisbiy kamligi	B) Likvidlik (ya'ni, tez almashtirish) xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham ideal vosita hisoblanadi.
3.Hisob stavkasi deb	C) Muomilaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullar (xazina va bank biletleri)ning jami miqdori.
4.Pul	D) Barqarorligi tovar va xizmatlar narxining keskin o'zgarishi oldini oladi.
5.Ochiq bozordagi operatsiyalar -	E) O'z ichiga tanga pullar, qog'oz pullar joriy hisobdagi pullar va yo'l cheklarini oladi.
6.M1 -	F) Likvid qimmatbaho qog'ozlar (obligatsiyalar, sertifikatlar, xazina majburiyatlari va boshqalar)
7.Pulning real qiymati	G) Jamoat va byudjet tashkilotlari hisoblaridagi mablag'lar;
8.Pul taklifining multiplikatori	J) Kapital mablag'larni moliyalashtiruvchi mablag'lar
9.Pul massasi -	K) Pul bo'lmagan likvid mablag'lar (oltin, brilliant, kumush, platina va shu kabi qimmatbaho pul bo'lmagan mablag'lar).
10.Majburiy rezervlar -	L) YA'ni, pul qiymati uning foydaliligiga nisbatan kamligi bilan aniqlanadi.
11.Pullar maxsus xususiyatga	M) Mamlakat yoki to'lov qobiliyati - pul birligiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori orqali aniqlanadi.
12.SBO -	N) Qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarz berish ma'nosini beradi.
13.Kredit -	O) Markaziy bank tomonidan banklarga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi

3-Topshiriq

1.Balans -	A) Byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek maxalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.
2.Davlat	B) Qat'iy maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi

	bo'lib, undan foydalanish sharti buzilganda ularni qaytarib olish mumkin.
3.Balanslar yordamida	C) Bu pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko'rsatiladi.
4.Tovlanish xarajatlari	D) Bu ikki qismdan iborat bo'lgan iqtisodiy hisob-kitobdir. Birinchi bo'limda, resurslarni tashkil etish manbalari, ikkinchisida ulardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi
5. Subvensiya -	E) Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish borasidagi siyosati
6.Bozor tizimi rivojlanishi bilan	F) Talab va taklifni tartibga soluvchi asosiy vosita hisoblansada, biroq dunyoning barcha mamlakatlarida davlat narxlarni shakllantirish jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.
7.Subsidiyalar -	G) Bozor tizimining faoliyat ko'rsatishida baho mexanizmidan, xususan chegaralangan baholardan keng foydalaniladi
8.Balanslar -	J) Xalq xo'jaligi tarmoqlari, turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faoliyatlari hamda moddiy va moliyaviy bo'limlar xarakati o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi.
9.Dotatsiya -	K) Mamlakat aholisi oladigan daromadlar va qiladigan xarajatlari o'rtasida nomutanosibliklar paydo bo'ladi
10.Monetar siyosat deb yuritiladi	L) Tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishda uchinchi bir tomondan kutilmagan xarajatlar paydo bo'lishi tovlanish xarajatlarini bildiradi.
11.Bozor tizimida narxlar	M) Moddiy balanslar, mehnat balanslari, moliyaviy balanslarga bo'linadi.



Quyidagi bildirilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

T/N

1. Moliya tizimi murakkab, unga turli jihatdan yondashish mumkin. Unga nazariy jihatdan qarasaq, turli darajadagi moliya munosabatlari, moliya siyosati va uni amalga oshiradigan moliya mexanizmlaridan iborat.

2. Xayriya fondlari ikki jihati bilan ajralib turadi.

a) Mablag'lar donorlarni majbur qilish yo'li bilan to'planadi;

b) Fond nimani zarur deb topsa, shunga sarflanadi.

3. Byudjetning taqchilligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga doimo salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Iqtisodiy tanazzul kuchaygan sharoitda byudjet taqchilligi yuz beradi. Ana shu taqchillikni yaxshisi pul chiqarish bilan qoplangan ma'qul, sababi aholidan qarz olinsa, foiz stavkasi o'sadi hamda xususiy investorlarni "siqib chiqarish" holati yuz beradi.

5. Tarixiy tajriba ko'rsatadiki, davlat qarzini vujudga kelishiga urushlar va iqtisodiy tanazzullik sabab bo'ladi.

6. Davlat soliqlarni pasaytirib, o'z sarflarini orttirsam, "tiyib turuvchi" fiskal siyosat qo'llanilayotgan bo'ladi.

7. Davlat jismoniy shaxslar daromadiga soliq ijtimoiy ta'minotga ajratmalar, foydaga soliqni oshirdi. Lekin davlat sarflari avvalgi holda qoldi. Bunday fiskal siyosat rag'batlantiruvchi fiskal siyosat bo'ladi.

8. Sug'urta sarflarni ko'paytiradi. Shuning uchun ko'pchilik zo'rg'a majburiy sug'urta to'lovlarini to'laydi, xolos.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Moliyaviy munosabatlarning mohiyatini quyidagilardan qaysi biri to'la xarakterlanadi?

A. pul mablag'larining shakllanishi bilan bog'liq munosabatlar;

B. pul mablag'larining taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;

C. pul mablag'larining ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;

D. pulning xarakati, ya'ni uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar;

2. Moliyaviy munosabatlarning sub'ektlari?

A. barcha turdagi korxonalar va muassasalar;

B. aholining keng qatlamlari;

C. davlat tashkilotlari va muassasalari;

D. moliyaviy munosabatlarning barcha ishtirokchilari.

3. Milliy valyutamiz-o'zbek so'mi qachon muomalaga kiritilgan?

- A. 1992 yil 8 dekabrda;
- B. 1993 yil 2 martdan;
- C. 1994 yil 1 yanvardan;
- D. 1994 yil 1 iyuldan;

4. Hozirgi davrda jahon puli vazifasini qaysi pullar bajaradi?

- A. erkin konvertirlanadigan valyutalar;
- B. oltin;
- C. AQSH dollari;
- D. Quvayt dinori;

5. Byudjet taqchillik qachon vujudga keladi?

- A. byudjetning daromadlar va xarajatlar qismi teng bo'lganda;
- B. daromadlar harajatlar qismidan ortiq bo'lganda;
- C. byudjetning daromadlari xarajatlar qismidan kam bo'lganida;
- D. sof eksport ijobiy bo'lganda;

6.Soliq stavkasi –

- A. Ob'ektning davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir;
- B. Ob'ektning Soliq inspeksiyasi tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir;
- C. Ob'ektning Moliya vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir;
- D. Ob'ektning har birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir;

7.Soliq nima

A. Bu muayyan miqdorlarda o'ndiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlar;

- B. Bu aholidan olinadigan va qaytarib beriladigan yig'im;
- C. Bu qonunchilik asosida milliy daromadni qayta taqsimlash uslubi;
- D. Yuridik shaxslardan olinadigan va qaytarilmaydigan;

8.Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi-

A. Bu bir-biri bilan o'zaro bog'liq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlarining yig'indisidir;

B. Bu bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlarining yig'indisidir;

C. Bu o'zaro bog'liq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlarining yig'indisidir;

D. Bu bir- biri bilan o'zaro bog'liq soliq turlarining yig'indisidir;

9.Soliq siyosati

A. Bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq soxasidagi faoliyatidir;

B. Davlatning muayan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir;

C. Bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir;

D. Bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib soliq sohasidagi faoliyatidir;

10.Byudjet defetsiti deganda nimani tushunasiz.


A. Byudjet daromadlarini xarajatdan ortishi;

B. Byudjet xarajatlari daromaddan ortishi;

C. Byudjet daromadlar va xarajatlari teng bulganda;

D. Hammasi to'g'ri;

KROSSVORD



KROSSVORD SAVOLLARI

1. Pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar

2. Qonun yo'li bila ma'lum muddatga belgilangan davlatning daromadlari va xarajatlari

3. Davlat xarajatlari va soliqlarni o'zgartirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan byudjet va soliq siyosati

4. Davlat byudjetiga majburiy tarzda undiriladigan to'lov.

5. Davlatning byudjet-soliq

6. Daromad hajmi o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi pasayib boruvchi soliqlar.

1. Iqtisodiyotni tartiblash 2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi 3. Milliy iqtisodiyot mustaqilligini ta'minlash 4. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik nazariyasi 5. Iqtisodiyotni tartibga solishning keynscha modeli	6. Iqtisodiyotni tartibga solishning monetar modeli 7. Kouz teoremasi 8. Ratsional kutish nazariyasi 9. Monetar qoida 10. Iqtisodiyotni tartiblashning bevosita usullari
---	--

a) Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash bozor bajara olmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish;

b) Iqtisodiyot o'zini-o'zi bozor mexanizmi va bozor regulyatorlari asosida tartibga soladi, ular yordamida mamlakatdagi resurslar to'la ishga solinadi;

c) Iqtisodiyotni chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, buning uchun chora tadbirlar belgilash, milliy manfaatlarni himoya qilish;

d) Bozor o'z-o'zicha iqtisodiyotni samarali tartibga sola olmaydi, resurslardan to'la foydalanishni amalga oshira olmaydi. Shuning

Davlatning qudrati nafaqat armiyada, balki xazina mablag'larida hamdir. Lekin davlat qimmatbaho buyumlarni jamg'arish bilan qiziqib ketmasligi, davlat mablag'larining bir qismini xalq manfaatlari yo'lida sarflashi lozim.

Yusuf Xos Hoib

Bozor iqtisodiy munosabatlari takomillashgan va o'zini-o'zi tartiblab turuvchi tizim hisoblanmaydi va shuning uchun faqat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ish bilan bandlikni maksimal oshirishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin.

Jon Meynard Keyns

uchun davlatning iqtisodiyotga fiscal va pul-kredit siyosati orqali faol aralashuvi qo'yilgan maqsadga erishish mumkinligi to'g'risidagi konsepsiya;

e) Makroiqtisodiy nisbatlarning bir-biriga mos holda rivojlanib borishi, undagi turli bo'g'inlar faoliyatini bir-biriga bog'liq holda muvozanatlashuviga erishish;

f) Monetarizm tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan. Unga ko'ra muomaladagi pul massasi yiliga real YaIM o'sishining

potensial sur'ati darajasiga teng miqdorda o'sishi kerak. Pul massasi barqaror 3-5% o'sishi zarur;

g) Ijobiy yoki salbiy samarasi kelib chiqadigan muammolarning ma'lum bir qismini davlat aralashmay yechish mumkinligini e'tirof etuvchi konsepsiya. Unga muvofiq tashqi samaraning ma'lum qismi manfaatdor tomonlar o'rtasida ovoza qilinmaydigan "kishi bilmas" individual bitimlar orqali yechish mumkin bo'lgan muammolardir;

h) Keyneschilikka muqobil, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimum darajada muomaladagi pul miqdorini tartibga solish doirasidagina bo'lishi zarurligini asoslovchi konsepsiya. Unga ko'ra narx darajasi muomaladagi pul miqdoriga bog'liq, shuning uchun monetar qoidaga rioya qilishi kerak;

i) Gipoteza, unga muvofiq firmalar va uy xo'jaliklari davlat, pul-kredit va byudjet siyosati orqali iqtisodiyotga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi deya kutishadi va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, bu siyosatni samarasiz qilib qo'yadigan turli chora-tadbirlar qo'llashadi;

j) Iqtisodiyotni davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuviga asoslangan vosita va dasturlar orqali tartibga solish.

Iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartiblanishining samaradorligi davlat investitsiyalari yordamida vositalarni qidirishga, aholining to'la ish bilan bandligiga erishishga, foiz normasini pasaytirish va belgilashga bog'liq.

Jon Meynard Keynes



QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG

Topshiriq

1. Bevosita usullar	A) qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish	B) iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi
3. Bilvosita usullar	C) iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.
4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi	D) tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi
5. Davlatning iqtisodiy vazifalari	E) iqtisodiyotni tartibga solishning ta'qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakteridagi ma'muriy vositalari

6. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari	F) iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.
7. Monetar siyosat deb yuritiladi	G) Tovarlarini ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishda uchinchi bir tomondan kutilmagan xarajatlar paydo bo'lishi tovlanish xarajatlarini bildiradi.



Quyidagi bildirilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

T/N

1. Iqtisodiyotni tartibga solish ikki yo'l bilan: a) iqtisodiyot o'z-o'zini tartiblashi (bozor mexanizmi yordamida); b) davlat tomonidan tartibga solish tarzida amalga oshiriladi.

2. Markazdan rejalashtirishga asoslangan tizimda iqtisodiyot reja tuzish va uni bajarishni nazorat qilish orqali tartibga solingan.

3. Davlat raqobatni qo'llab-quvvatlashi, antimonopoly qonunlar qabul qilishi shart emas. Erkin iqtisodiyot raqobat uchun o'zi sharoit yaratadi.

4. Davlatning huquqiy, ma'muriy yo'l bilan: taqiqlash, ruxsat berish, majbur qilish, nazorat qilish orqali iqtisodiyotni tartibga solish deyish mumkin.

Inqiroz paytida davlat yalpi talabni pul-kredit va byudjet siyosati vositasi yordamida tartiblab turishi, hamda eng avvalo, xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga asosiy e'tiborni qaratish kerak.

Jon Meynard Keyns

5. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishni iqtisodiy yo'l bilan amalga oshirishi ham ikkiga, iqtisodiyotga: bevosita ta'sir ko'rsatish va bilvosita ta'sir ko'rsatishga bo'linadi.

6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi me'yori shu darajada bo'lishi kerakki, u bozor mexanizmining ishlashiga xalaqit bermay, uning uchun sharoit yaratishi va kamchiligini to'ldirib turishi zarur.

Davlat - mavjud tuzumni isloh va modernizatsiya qilishga intiladi, biznes tizimini shunchalik samarali qilish kerakki, u o'zini-o'zi saqlashga qodir bo'lsin.

Jchr.Kommons

7. Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy aloqalarning globallashuvi, aholi farovonlogini ta'minlashdagi bozor mexanizmining kamchiligi iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklashga undasa, ikkinchidan, bozor mexanizmini to'laqonli ishlashi uchun sharoit yaratilishi talabi uning rolini kuchaytirishni talab qiladi.

8. Kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishida davlatning muhim vazifalaridan biri tashqi samaralarga ta'sirko'rsatishidir.

9. Tashqi samara – bu bozor bitimlarida tovar va xizmatlar narxida aks etmagan qo'shimcha xarajat, chiqim, naf va yutuqlardir.

10. Ijobiy tashqi samara deganda tovar va xizmatlar narxida aks etmagan qo'shimcha xarajatlar tushuniladi.

«Davlat iste'molga bo'lgan moyillikka o'zining rahbarlik ta'sirini qisman muvofiq ravishdagi soliq tizimi, qisman foiz normasini belgilash yo'li bilan va ehtimol, boshqa usullar bilan o'tkazishi lozim bo'ladi»

Jon Meynard Keyns



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatning tub mohiyati nimalarda ko'rinadi?

- A. ijtimoiy tabaqalar o'rtasida mumkin qadar tenglik tamoyilining joriy qilinishida;
- B. millatlararo hamjihatlikni va xalqaro totuvlikni vujudga keltirishda;
- C. kam ta'minlangan ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ximoya qilish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda;
- D. ish xaqi darajasini oshirishda.

2. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda islohotlar qachon sezilarli samara beradi?

- A. milliy valyuta muomilaga kiritilganda;
- B. chinakam mulkdorlar sinfi shakllanganda;
- C. iqtisodiy himoya tizimi yaratilganda;
- D. makroiqtisodiy barqarorlikka erishilganda.

3. Iqtisodiyotni tartiblash usullari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A. rejali va ilmiy tashkil etish usullari;
- B. iste'molni e'tiborga olish hamda istiqbolni belgilash usullari;
- C. tartiblashning rejali va bozor usullari;
- D. iqtisodiy muvozanatlik va mutanosibliklar usullari;

4. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishda nimaga ustunlik beriladi?

- A. raqobatga;
- B. iste'molga;
- C. investitsiyalarni ko'paytirishga;
- D. iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga.

5. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vositalaridan biri bo'lgan subsidiya mazmunini to'g'ri aks ettiruvchi javobni aniqlang.

- A. chetdan kiritilayotgan tovarlar uchun qo'yiladigan xaq;
- B. davlat byudjetidan tadbirkorlarga aniq maqsad yo'lida ishlatish uchun beriladigan mablag';
- C. kelajakdagi iste'molni ko'zlab ajratilgan mablag';
- D. iqtisodiy xavf – xatarning oldini olish uchun ajratilgan pullar;

6.Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning qo'lida qanday vazifalar qoladi?

- A. qonun chiqarish vazifasi;
- B. iqtisodiy dastur va rag'batlantirish vazifasi;
- C. milliy ma'naviytni rivojlantirish vazifasi;
- D. ko'rsatilganlarning barchasi.

7.Quyidagi javoblardan qaysi biri iqtisodiyotni tartibga solish mazmunini to'g'ri ifoda etadi?

- A. soliq tizimini takomillashtirib borish;
- B. iqtisodiyotdagi turli bo'g'inlar faoliyatini bir-biriga bog'lash va mos ravishda rivojlanib borishini ta'minlash;
- C. xalq xo'jaligining muntazam rivojlanib borishiga erishish;
- D. ishsizlik muammolarini hal etish.

8.Davlatning iqtisodiy vazifalari:

- A. ijtimoiy–iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish;
- B. iqtisodiy tizimni amal qilishiga shart–sharoit yaratish, hamda iqtisodiyotni tartibga solish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- C. tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari;
- D. iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

9.Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish – bu

- A. davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan;
- B. iste'mol tovarlariga narxning o'sishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash;
- C. adolat tamoyillariga ixchillik bilan rioya qilish;
- D. narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarni kam va o'rtacha darajasini oshirib borish;

10.Iqtisodiyotni tartiblashning asosiy usulini aniqlang?

- A. rejali tartiblash;
- B. bozor mexanizmi orqali tartiblash;
- C. ma'muriy buyruqbozlik orqali tartiblash;
- D. narx orqali tartiblash;


Mavzuni chuqur o'rganish uchun asosiy tayanch tushunchalar

1. Xalqaro savdo	7. Import
2. Mutlaq ustunlik (afzallik)	8. Tashqi savdo balansi
3. Qiyosiy afzallik	9. To'lov balansi
4. Ishlab chiqarish omillari nisbati (Xeksher-Olin) nazariyasi	10. Valyuta
5. Import qilingan inflyatsiya	11. Valyutaning konvertatsiyalanishi
6. Eksport	12. Valyuta kursi
	13. Xarid quvvati pariteti

- a) Mamlakatdan chetga chiqarilgan tovarlar miqdori (qiymat o'lchovida);
- b) xalqaro savdo yo'nalishi ishlab chiqarish omillari qiyosiy narxlariga nisbatan shakllanadi;
- c) chetdan mamlakatga olib kelingan tovarlar miqdori (qiymat o'lchovida);
- d) mamlakatga chet el valyutasining kirib kelishi, milliy valyutaning past kursi va import qilinayotgan tovarlar narxining o'sishi;
- e) Tovar birligini ishlab chiqarish uchun boshqa mamlakatga qaraganda nisbatan past xarajatlar bilan ishlab chiqarish;
- f) Ma'lum vaqt (yil) mobaynida mamlakatning barcha tashqi iqtisodiy bitimlarning eksporti va importini aks ettiradi;
- g) Mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari tovar aylanmasi hajmi bilan ko'rsatiladi;
- h) Mamlakatning milliy pul birligi, shu mamlakatning milliy boyligi bilan ta'minlangan;
- i) Mamlakatning eksport va importi farqi;
- j) Mamlakat valyutasi (milliy pul birligi)ni chet el valyutasiga almashtirilishini tashkil etuvchi operatsiyalar;
- k) Mamlakatda turli valyutalar birligiga soyib olinishi mumkin bo'lgan tovar-xizmatlar miqdori;
- l) Milliy valyutaning chet el valyutasi birligida ifodalanishi.

Chetga pul chiqarishni ta'qiqlash bema'ni, bunday xatti-harakat mamlakatga chetdan tovar keltirishni man etish bilan bir narsadir.
Uilyam Petti



QUYIDAGI JAVOBLARDAN TO'GRISINI TANLANG

1-Topshiriq

1. Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari)	A) iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi
2. Reeksport	B) mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur etkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan qismi
3. Reimport	C) Qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olinishi
4. Eksport multiplikatori	D) Importni hisobga olgan holda eksport hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'siri
5. Import multiplikatori	E) investitsiyalar multiplikatori singari iste'mol sohasidagi ichki jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, iste'mol yoki jamg'armaga so'nggi qo'shilgan moyillik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi
6. Barter	F) o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olish orqali naqd pulsiz hisoblashuv
7. Kliring operatsiyalari	G) tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga ayirboshlash
8. Boj to'lovlari	J) litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo'yish yoki oddiy ma'muriy taqiqlashlar tushuniladi
9. Import kvotalari	K) Boj to'lovlari import tovarlarga aktsiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin
10. Tarifsiz to'siqlar	L) Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi

1. Erkin savdo (fritrederlik) siyosati	A) qiymatning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo'lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarning sarflaydi
2. Iqtisodiy bitimlar	B) proteksionizm siyosatining aksi bo'lib, tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan. Bu siyosat xalqaro savdo hajmlarini o'sishiga olib keluvchi turli tarif va kvotalarni qisqartirish, milliy iqtisodiyotning ochiqligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi
3. Kredit	C) qiymatning mamlakatdan chiqib ketishi bo'lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qoplovchi to'lovlar ekvivalentini oladi
4. Debet	D) qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlardan iborat
5. Absorbtsiya	E) Markaziy bank tomonidan chet el valyutalarining bunday sotilishi va sotib olinishi
6. Rasmiy zahiralar bo'yicha operatsiyalar	F) valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi
7. Milliy valyuta tizimi	G) xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli
8. Xalqaro valyuta tizimi	J) o'ziga a'zo mamlakatlarning valyuta kursi va to'lov balanslarini tartibga soladi, ularning valyuta-moliyaviy muammolarini hal etish maqsadida kreditlar ajratadi, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p tomonlama to'lovlari tizimini va tashqi qarzlarini nazorat qiladi
9. Xalqaro valyuta fondi (XVF)	K) Tovarlar eksporti va importi o'rtasidagi farq
10. Savdo balansini	L) yalpi ichki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xo'jaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi



MASALA VA MASHQLAR

1. «Alfa» mamlakatda A va B tovarlarning ishlab chiqarish harajatlari 1 A : 4 B nisbatda, «Beta» mamlakatda esa 1A : 1 B. Bu tovarlarning jahon bozoridagi narxlari o'rtasidagi nisbat esa 1 A : 2 B har bir mamlakat uchun savdo imkoniyatlari chizig'ini tasvirlang.

2. «Alfa» va «Beta» mamlakatlari bir xil burchak ostidagi transformatsiya egri chizig'iga ega. Ushbu mamlakatlar o'rtasida savdo munosabatlarini o'rnatish samarali bo'ladimi?

3. A.Smitning mutloq nazariyasiga ko'ra, qaysi mamlakat qanday tovarlar ishlab chiqarishi maqsadga muvofiqligini aniqlang.

Mamlakat	A	B	S	D
Alfa	5	8	7	4
Beta	4	10	7	6

4. Quyidagi jadvalda «Alfa» va boshqa mamlakatlarda harakatlar birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

Ishlab chiqaruvchi	Gazmol ishlab chiqarish (harajatlar birligiga)	Qand ishlab chiqarish (harajatlar birligiga)
«Alfa» mamlakat	100	300
Boshqa mamlakatlar	200	400

Qiyosiy ustunlik tamoyilidan va harajatlar o'zgarmasligi hamda faqat ikkita tovar ishlab chiqarilishini nazarda tutib quyidagilarni aniqlang:

a) «Alfa» mamlakat gazmol va qand ishlab chiqarishda mutloq va qiyosiy ustunlikka egami?

b) Narxlar nisbati qanday bo'lganda, qaysi tovarni «Alfa» mamlakat boshqa mamlakatlar bilan savdo qilishi kerak.

5. Agar ma'lum tovarning qismlari turli mamlakatlarda ishlab chiqarilsa va u bir mamlakatda yig'ilib pirovard tovarga keltirilsa, bunday ishlab chiqarish baynalminallashuvning qaysi turiga mansub?

6. Yil davomida eksport miqdori – 8, yillik yalpi ichki mahsulot – 40 bo'lsa ekspert kvotasini toping.

7. Yil davomida eksport – 8, import -10, yalpi ichki mahsulot – 50 bo'lsa tovarlilik indeksini (indeks tovarnosti) toping.

8. Quyidagi operatsiyalarning qaysi biri O'zbekiston iqtisodiyoti nuqtai nazaridan kapital eksportiga tegishli.

a) O'zbekiston Milliy Banki Tojikiston yirik kompaniyasiga 100 ming \$ dollar ssuda berdi.

b) O'zbekiston importeri Rossiya «Zil» zavodidan olingan ehtiyot qismlarni to'lash uchun yirik Rossiya bankidan qisqa muddatli qarz oldi;

s) Toshkentdagi konditer fabrikasi Rossiyaning shokolad ishlab chiqaruvchi korporatsiyasining aksiyalarini sotib oldi.

9. Quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida «Delta» mamlakatining to'lov balansini tuzing, har bir operatsiyani «kredit» va «debet»ga ajrating.

Neft eksporti _____ 6 mln.doll

Don Importi _____ 5 mln.doll.

Qurol-asloha eksporti _____ 2 mln.doll.

Mamlakatga kelgan turistlardan _____ 6 mln.doll.

Mamlakatdan chet elliklarga o'tkazilgan pullar _____ 2 mln.doll.

Frantsiya xususiy korparatsiyalarining aksiyalarini sotib olish _____ 6 mln.doll

Chet el fuqarolaridan oltin sotib olish _____ 1 mln.doll

10. Yuqoridagi masala (№2) ma'lumotlari asosida joriy balans va kapital harakati balans bo'limlari ko'rsatilgan holda to'lov balansini tuzing.

11. Valyuta bozorida 1 AQSH dollarining kursi 900 so'mdan 1000 so'mga ko'tarildi.

Bu eksport va import miqdoriga qanday ta'sir qiladi?

12. Faraz qilaylik, AQSH va Angliya valyutalarining almashuv kursi 2 doll.=1 f.st. AQSH da inflyatsiya sur'ati yiliga 3%, Angliyada esa -10%.

Jamg'armani bu valyutalarning qaysi birida saqlash maqsadga muvofiq?

13. Ikkita bir xil matatsiklning bittasi Rossiyada ishlab chiqarilgan va narxi 4 mln.rub, ikkinchisi AQSH da ishlab chiqarilgan bo'lib narxi 2 ming doll. AQSH valyutasining nominal almashuv kursi 5000 rub / 1 AQSH doll.ni tashkil etadi. Bunday holatda real almashuv kursi qanday bo'ladi?

14. Yuqoridagi 13-masala Rossiya mototsikli narxi inflyatsiya tufayli 6 mln.rubl. bo'lib qoldi. Agar valyuta nominal kursi o'zgarmay qolsa, real almashuv kursi qanday bo'ladi?

15. Quyidagi valyuta kurslarining qaysi biri O'zbekiston iqtisodiyoti nuqtai nazaridan so'mning to'g'ri kotirovkasi hisoblanadi.

1000 so'm / 1 AQSH doll. yoki 0,001 AQSH doll./ 1 so'm.



Quyidagi bildirilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

T/N

1.V. Leontyev o'zining “xarajatlar-natija (ishlab chiqarish)” modelida AQSH iqtisodiyotini tadqiq qilib, nisbatan ortiqcha capital omiliga ega bo'lgan bu

mamlakat kapital sig'imi yuqori tovarlarni import qilishi, mehnat sig'imi yuqori tovarlarni eksport qilishini ko'rsatib, "Xeksher-Olin" nazariyasini shubhaga qo'ygani – Leontyev paradoksi deyiladi.

2. Eksportning importga nisbati to'lov balansi deyiladi.

3. Xeksher-Olin nazariyasiga ko'ra mamlakat ortiqcha omillardan samarali foydalanib, ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport qiladi. O'zida taqchil bo'lgan omillar sarflangan tovarlarni import qiladi.

4. Mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq:

a) Turli tovarlar yaratish uchun ishlab chiqarish omillarining turlicha nisbatda birlashuvi;

b) Ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanish darajasining turlicha bo'lishi oqibatida kelib chiqadi.

5. M. Porter xalqaro savdoni mamlakatlar o'rtasidagi raqobatchilik nuqtai nazaridan o'rganib chiqib, mamlakatning raqobatdagi ustunligi u yuritayotgan iqtisodiy siyosatga bog'liq, degan xulosaga keldi.

6. Proteksionizm bu – milliy iqtisodiyotni himoya qilish maqsadida erkin savdoni cheklash, ya'ni tashqi savdo hajmini tarifli va tarifsiz to'siqlar orqali tartibga solish.

7. Agar milliy valyuta kursi pasaysa, import qiluvchilar manfaatiga salbiy ta'sir qiladi.

8. Agar milliy valyuta kursi ko'tarilsa, uning eksport faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Valyuta konvertatsiyasini qaysi javob to'g'ri ifodalaydi?

- A. milliy valyuta kursining davlat tomonidan qisman pasaytirilishi;
- B. valyuta kursining yuqoriga qarab o'zgarishi;
- C. milliy valyutaning boshqa valyutalarga bemaol almasha olishi;
- D. valyuta kursining muntazam tarzda qat'iy valyutalarga bog'lab qo'yilishi;

2. Valyuta:

- A. milliy doirada amal qiluvchi qadr-qiymati shu mamlakat boyligi bilan ta'minlangan pul;
- B. mamlakatning oltin zahiralarini tushuniladi;
- C. mamlakatda to'plangan xorijiy valyutalar tushuniladi;
- D. milliy valyutaning boshqa valyutalarga almasha olish xususiyati tushuniladi;

3. Erkin iqtisodiy xududlar belgilarini ajrating.

- A. Eksport va import uchun yuqori soliqlar belgilash;
- B. Eksport va import uchun past darajada soliqlar belgilash;
- C. Foyda uchun yuqori soliqlar belgilash;
- D. Foyda uchun past darajada soliqlar belgilash.

4. Ochiq iqtisodiyot tushunchasi nima?

- A. Xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilar cheklanmagan xolda bo'ladi;
- B. Xalqaro tovarlar bozorida bojxona to'lovlari undirilmaydi;
- C. Soliqlar undirilmaydi;
- D. Xalqaro tovar va kapital bozorida barcha oldi sotdilarni davlat amalga oshiradi.

5. Yopiq iqtisodiyot deb nimaga aytiladi?

- A. Qisman xalqaro savdoda ishtirok etadi;
- B. Savdo-sotiq bojxona va soliq to'lovlari asosida amalga oshiriladigan iqtisodiyot;
- C. Xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot;
- D. Tovar va xizmat kapital oqimlari milliy chegaradan 20% tashqariga chiqadi

6. Tashqi savdo aylanmasi bu –

- A. eksport hajmi;. import hajmi;
- C. eksport va importning aylanmasi;
- D. reeksport hajmi


7. Agar so'mning real almashuv kursi ko'tarilsa, u holda:

- A. import tovarlarini sotib oluvchilar kamayadi;
- B. O'zbekiston sof eksporti ko'payadi;
- C. Joriy operatsiyalar taqchilligi kamayadi;
- D. O'zbekiston fuqarolari uchun import arzonlashadi.

8. Agar ochiq iqtisodiyotga mamlakatda daromad solig'i ko'tarilsa, u holda bu mamlakatda:

- A. investitsiyalar ko'payadi;
- B. eksport ortadi;
- C. milliy valyutaning almashuv kursi ko'tariladi;
- D. eksport kamayadi

KROSSVORD



KROSSVORD SAVOLLARI

1. Har bir mamlakat iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining bir qismiga aylanib, yagona Tovar va xizmatlar, capital, ish kuchi, intellectual bozor sifatida ifodalanishi;
2. Chetdan qo'yilgan investitsiya evaziga olingan foydani chet elga olib ketilishi;
3. Mehnat resurslarini chetdan, boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi;
4. Eski pul birliklarini ma'lum nisbatda yangilari bilan almashtirish;
5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat taqsimoti chetdan kapital jalb qilishga qaratilgan bo'lishi va rivojlangan mamlakatlardan importga yo'l ochish kerakligini targ'ib qiluvchi nazariya.

GLOSSARY

A

Amortizatsiya-iste'mol qilingan asosiy kapital qiymatiga teng bo'lgan yillik ajratmalar.

Aktivlar– iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

“Arzon pullar” siyosati-jami talabni, bandlikni va ishlab chiqarishning o`shishini rag`batlantirishga qaratilgan Markaziy bankning pul – kredit siyosati. Uning asosiy belgisi – pul taklifini oshirish maqsadida Markaziy bank hisob stavkasini va zahira me'yorini kamaytirib, ochiq bozorda qimmatbaho qog`ozlarni sotib oladi.

Asosiy kapitalning eskirishi-ishlatish jarayonida asosiy kapitalning (binolar, mashinalar, asbob-uskunalar) qiymatini pasayishi.

Asimmetrik axborot – **bu shunday xolatki, bunda bozorda bo'ladigan savdo-sotiqda bozor qatnashchilaridan bir qismi kerakli, muxim axborotga ega qolgan qism ega emas.**

Avtomatik (o'rnatilgan) barqarorlashtirgichlar– byudjet- soliq siyosatining iqtisodiy tebranishlarning ta'sirini avtomatik zaiflashtiruvchi elementlari.

Akselerator –sof investitsiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o'sish sur'atlari o`rtasidagi bog`liqlikni ifodalovchi iqtisodimy ko`rsatkich.

Alternativ xarajatlar (opportunity cost) – tanlashda voz kechilgan eng yaxshi alternativ variantdan olinadigan natija (qiymat, foyda, naflik). Alternativ qiymatni foydalanilmagan imkoniyat deb xam qarashadi: biror ne'mat qiymatini voz kechilgan boshqa bir nechta ne'mat qiymati bilan ifodalanishi.

Almashtirish samarasi – ish xaqini ortishi natijasida bo'sh vaqtning qisqarishi.

“Avtomatik” stabilizatori-bu mexanizm davlat maxsus choralarni qo'llamasdan avtomatik ravishda iqtisodiyotdagi siklik tebranishlarni silliqlashga inkoniyat beradi. Masalan: soliq solishning progressiv shkalasi, transfertlar tizimi, ishsizlik bo`yicha nafaqalar va boshqa.

Avtonom investitsiyalar-tasarrufdagi yillik daromad darajasiga bog`liq bo`lmagan investitsiya xarajatlari.

Avtonom iste'mol xarajatlari-hajmi va o`zgarishi tasarrufdagi daromadga bog`liq bo`lmagan iste'mol xarajatlarning qismi.

Avtonom jami xarajatlar-har bir berilgan vaziyatda hajmi va o`zgarishi tasarrufdagi joriy daromadga bog`liq bo`lmagan jami xarajatlarning qismi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori-muvozanatli YaIM o`zgarishiga avtonom xarajatlarning har qanday komponentining o`zgarish nisbati

Auksion – **tovarni oldi-sotdisini tashkil qilish usullaridan biri bo'lib unda transaksiya xarajatlari real vaqt rejimida o'tadi.**

B

Baholar indeksi- tovarlar va xizmatlar, yoki aktivlar o`rtacha bahosining o`zgarishi ko`rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb

yuritiladigan ma'lum to'plamdagi tovarlar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'indisiga bo'lib topiladi.

Bazis yili-narxlar indeksini hisoblashda boshqa yillardagi narxlar bilan solishtirish uchun asos qilib olingan yil.

Bandlik darajasi-umumiy ishchi kuchidagi band bo'lganlarning foizda ifodalangan miqdori.

Bank tizimi-aholi, firma va boshqa tashkilotlardan omonat (depozitlar) va jamg'armalarni oluvchi, pul o'tkazishni ta'minlab beradigan, kredit va qarzlar beradigan, davlat va aksionerlik jamiyatlarining qimmatbaho qog'ozlariga sarmoya kirituvchi tijorat banklarining tarmog'i.

Bank zahiralari-kredit sifatida berilmagan bank omonatlarining malum bir qismi. Ular banking naqd puli va Markaziy bankdagi maxsus hisobda saqlanadigan mablag'lar ko'rinishida bo'ladi.

Bankning xususiy kapitali-aktivlar passivlar (majburiyatlar)dan ortiq bo'lgan miqdor.

Banknota- Mamlakat Markaziy banki tomonidan chiqariladigan naqd qog'oz pullar bo'lib, iqtisodiyotdagi pul taklifining bir qismini tashkil etadi.

Befarqlik chizig'i – bir xil darajadagi naflik beruvchi ne'matlar miqdorlari kombinasiyalarini ifodalovchi egri chiziq.

Bertran muvozanati (Bertrand equilibrium) – bozor duopolik bo'lganda firmalar tovar narxini tushirish va maxsulot ishlab chiqarish xajmini oshirish orqali bir biri bilan raqobatlashadi. Tovar narxi chekli xarajatga teng bo'lganda muvozanat xolat barqarorlashadi.

Bilvosita soliqlar-firma o'zining ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga qo'shadigan soliqlar: ular tovar va xizmatlar narxini ko'tarish yo'li bilan iste'molchilar zimmasiga yuklanadi.

Bitimlar uchun pulga bo'lgan talab-muomala vositasi sifatida foydalanish uchun zarur bo'lgan pul miqdori: YaMM nominal hajmi o'zgarishiga to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradi.

Boylik – bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne'matlarga almashinishi mumkin bo'lgan barcha narsa. Fizik aktivlar, moliyaviy aktivlar, ko'nikmalar, tadbirkorlik malakasi, savdo markalari xullas daromad keltiradigan barcha narsalar.

Boylik samarasi (yoki real kassa qoldiqlari samarasi)–qayd etilgan narxli moliyaviy aktivlar real qiymatining o'zgarishi bilan belgilangan xarajatlar umumiy hajmida narxlarning o'sishi yoki pasayishi tufayli yuz bergan o'zgarish.

Byudjet(soliq siyosati)–makroiqtisodiy siyosatining turi bo'lib, davlat daromadlari va xarajatlarini, soliq solish tizimini o'zgartirish hamda davlat byudjeti muvozanatini tartibga solish asosida iqtisodiyotda to'la bandlikni va inflatsiyasiz iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan.

Byudjet chizig'i – byudjetni to'liq sarflash sharti bilan iste'molchi sotib oladigan tovarlar kombinasiyalarini ifodalovchi chiziq.

Byudjet chegarasi (budget constraint) – «umumiy vaqt - daromad» koordinatalariga ega bo'lgan to'g'ri chiziq bo'lib, uning yotqlik burchagi ish xaqini ifodalaydi. (daromad 0 bo'lganda vaqt 24 soatga teng, ya'ni (24,0)).

Byudjet taqchilligi-ma'lum bir yildagi hukumat xarajatlarining uning daromadlaridan ortiq bo'lgan miqdori.

Byudjet ortiqchaligi-ma'lum bir yildagi hukumat daromadlarining uning xarajatlaridan ortiq bo'lgan miqdori.



Daromad-fuqarolar va firmalar tomonidan olinadigan pullar bo'lib, quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: ish haqi, renta, foiz to'lovi, foyda, turli xil nafaqalar va xokazolar.

Daromad samarasi – ishchining ish xaqining o'sishi natijasida ish vaqtining qisqarishi xisobidan dam olish vaqtining ortishi.

Davlat byudjeti-davlatning markazlashgan moliyaviy resurslar fondi. Bunda moliyaviy yil davomidagi daromadlarning manbalari va tushumlarning hajmi hamda sarflash yo'nalishlari va ularning miqdorlari ko'zda tutiladi.

Davlat jamg'armalari-davlat byudjetining tushumlari va xarajatlari orasidagi farq; byudjetning musbat saldosi.

Davlat qarzi-davlat qimmatli qog'ozlari egalariga davlatning avvalgi yillardagi byudjet taqchilliklari miqdoridan byudjet ortiqchaligining ayirmasiga teng bo'lgan qarzlarning umumiy miqdori.

Davlat xarajatlarning multiplikatori-bu koeffitsient davlat xarajatlari qo'shimcha o'sishiga nisbatan YaIM qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi.

Davlat xaridlari-Davlat tomonidan tovar va xizmatlarning sotib olingan miqdori.

Davlatning barqarorlashtirish siyosati-bu siyosat iqtisodiyotda shoklar sababli kelib chiqqan tebranishlarni yumshatishga hamda muvozanatni tiklashga qaratilgan.

Davriy balanslangan byudjet-ishchan davr chegarasida hukumatning tovarlar va xizmatlarga kergan xarajatlari hamda soliq tushumlari tengligi bilan ifodalanadi.

Davriy ishsizlik-ishlab chiqarishning davriy pasayishi natijasida yuzaga kelgan ishsizlik.

Davriy taqchillik-ishchan faollikning pasayishi va u bilan bog'liq ravishda tushumlarning kamayib ketishi sababli yuzaga kelgan federal byudjet taqchilligi.

Deflatsiya-umumiy narx darajasining pasayishi.

Deflatsion uzilish-to'liq bandlik sharoitida etarli bo'lmagan jami talabning hajmi.

Demping-tashqi savdoning shunday siyosatiki, bunda eksport qiluvchi firma o'z mahsulotini chet elda ichki bozordagi narxdan yoki tovarning tannarxidan past narx bo'yicha sotadi.

Demping-bozorda o'z ta'sir doirasini kengaytirish va raqiblarni yo'qotish

maqsadida mahsulotni tannarxidan past narxlar qo'yib sotish.

Depositlar (omonatlar)-moliya-kredit tashkilotlarida saqlanadigan pul mablag'lari yoki qimmatbaho qog'ozlar.

Depozit foizi – mablag' qo'yuvchining pulidan foydalangani uchun unga bank tomonidan to'lanadigan to'lov, ya'ni narx.

Devalvatsiya-qayd etilgan valyuta kurslar tizimi amal qilgan sharoitda boshqa valyutalarning kurslariga nisbatan milliy valyuta kursini pasaytirishga qaratilgan hukumat chora – tadbirlari.

Diskretsiyon fiskal siyosati-hukumatning maxsus qarorlari natijasidagi davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti saldosi miqdorining maqsadli o'zgarishi. Bu qarorlar iqtisodiyotdagi bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi va inflatsiya sur'atlarini o'zgartirishiga qaratilgan.

Diskontirlash - qiymatlarni (daromadni, xarajatni, kapitalni) boshlang'ich yilga yoki oxirgi yilga keltirish.

$$PDV = \frac{R_t}{(1+i)^t}$$

PDV – bugungi qiymat, t –yil, i – diskontirlash stavkasi (bank foiz stavkasi bo'lishi xam mumkin.)

Differensial renta – boshqa resurslarga nisbatan yuqori unumdorlikka ega bo'lgan resurs egasi tomonidan olinadigan renta.

Diversifikasiya – **tavkkalchilikni pasaytirish usuli bo'lib bunda tavakkalchilik (yo'qotishlar) bir qator tovarlarga shunday taqsimlanadiki, tovarlardan bittasini sotib olishdan tavakkalchilikning ortishi boshqa tovarni sotib olishdagi tavakkalchilikning pasayishini bildiradi.**



E. Domarning iqtisodiy o'sish modeli-bu nazariy konseptsiyada jami talabning kengayishida hamda ishlab chiqarish quvvatlarning (jami taklif) ko'payishida investitsiyalarning ikkiyoqlama roli tahlil qilinadi.

E. Felpsning "Oltin qoidasi"-bu shunday jamg'arma me'yoriki, bunga muvofiq iqtisodiyotdagi barqaror o'sish holati har bir ishchiga iste'molning maksimal darajasini ta'minlaydi.

Egiluvchan valyuta kursi-valyuta bozorida talab va taklifning tebranishlari natijasida valyutaning muvozanat narxi sifatida belgilanadigan almashtirish kursi.

Eksport-bir mamlakat boshqa mamlakat fuqarolari va firmalariga sotadigan tovar va xizmatlar.

Eksport subsidiyalari-eksportni rag'batlantirish uchun davlat tomonidan milliy

Ekstensiv iqtisodiy o'sish-qo'shimcha resurslarni jalb qilish hisobiga amalga oshadi va jamiyatdagi o'rtacha unumdorlikni o'zgartirmaydi.

Ekzogen o'zgaruvchi-modeldagi tashqi iqtisodiy o'zgaruvchi.

Endogen o'zgaruvchi-modeldagi ichki iqtisodiy o'zgaruvchi, masalan davlat xarajatlari, soliqlar yoki pul massasining o'zgarishi.

Engel chiziqlari – iste'mol qilingan tovarlar miqdorini iste'molchi daromadining o'zgarishidan bog'liqligini ko'rsatuvchi chiziq.

Extiyoj (needs) – insonni, korxonani faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha narsalar. Extiyoj – bu insonlarni iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishiga undaydigan ichki kuch.

Extimol (probability) – ma'lum natijaga erishish imkoniyati.

Er narxi – cheklanmagan vaqt davomida erdan olingan barcha daromadlar yig'indisining keltirilgan (boshlang'ich yilga) qiymati.

$$C = \frac{R}{i}; \quad R - \text{yillik renta}; i - \text{foiz stavkasi.}$$



Fisher samarasi-pul massasining o'sishi inflatsiyaning o'sishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatda nominal foiz stavkasining oshishiga sabab bo'ladi.

Firma (firm) – jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida maxsulot ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy sub'ekt.

Firmaning bozordagi strategik xarakati – bunda firma o'zining xarakatini raqobatlashuvchi firmaning xarakatiga ko'ra ishlab chiqadi.

Foyda (buxgalteriya) – maxsulotni sotishdan tushgan tushumdan ushbu maxsulotlarini ishlab chiqarish uchun ketgan yalpi xarajatni (tashqi xarajatni) ayirilganiga teng.

Foiz stavkasi (interest rate) – nominal foiz stavkasi inflyasiyani xisobga olmagan joriy kursdagi foiz stavkasi.

Foiz stavkasi samarasi-narxlar darajasining ko'tarilishi (pasayishi) va u keltirib chiqargan pulga bo'lgan talabning o'sishi (pasayishi). Pulga bo'lgan talabning o'sishi esa foiz stavkasi darajasini ko'taradi (pasaytiradi), hamda shu orqali mamlakatda jami xarajatlarning umumiy darajasini o'zgartiradi.

Foiz stavkasining real darajasi-inflatsiya hisobga olingan pul ifodasidagi foiz stavkasi.

Friksion ishsizlik-ish joyini ixtiyoriy ravishda o'zgartirish bilan bo'g'liq bo'lgan ishsizlik.

Funksional talab – tovarni sifatidan kelib chiqib unga bo'lgan talab.

Fyuchers – **xozirgi narxlarda ma'lum miqdordagi tovarni kelajakda ma'lum kunda etkazib berish uchun tuzilgan muddatli shartnoma. Tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lmagan aktivlar** – aktiv tomonidan tushadigan pullar miqdori oldindan belgilangan miqdorda bo'lishi.



Giperinflatsiya-puldanda "qochish"ni vujudga keltiruvchi narxlarning juda tez o'sishi.

Gollandcha auksion – **bu auksionda stavka yuqoridan pastga tovar sotilgunga qadar pasayib boradi.**

H

Haqiqiy investitsiyalar-yil oxirida ishlab chiqarish zahiralarida rejalashtirilmagan o'zgarishlar miqdoriga kamaytirilgan (oshirilgan) rejadagi investitsiyalar. Xususiyl firmalar investitsiyalarining real hajmi.

Haqiqiy YaMMning potensial YaMMdan nisbiy og'ishi-potensial real YaMM miqdoridan haqiqiy real YaMM miqdorining ayirmasi.

Hisob stavkasi-depozit muassasalariga berilgan qarzlilar bo'yicha Markaziy bank oladigan foiz stavkasi.

I

Ichki muvozanat -iqtisodiyotda to'la bandlik darajasida va inflatsiya yo'g'ligidagi talab va taklifning balansi

Ichki qarz-davlatning fuqarolar, firmalar, banklar va boshqa davlat qimmatbaho qog'ozlarini saqllovchilarga bo'lgan qarzi.

Ijara haqi-mulkdorning ko'chmas mulkdan oladigan daromadi.

Ijtimoiy ne'matlar-bu shunday tovarlar va yoki xizmatlarki, ularni bo'laklarga bo'lib alohida shaxslarga sotish mumkin emas. Ular faqat jamoa tomonidan iste'mol qilinishi mumkin.

Import-biz boshqa mamlakat fuqarolari va firmalaridan sotib olayotgan tovarlar va xizmatlar.

Import xaridlari samarasi-mamlakat eksportining sof hajmi va mamlakatdagi mavjud narxlar darajasi, shuningdek boshqa mamlakatlardagi narxlar darajasi o'rtasidagi teskari bog'liqlik.

Import kvotasi-import qilinadigan ma'lum bir tovar turlarining miqdorini qonun tomonidan cheklanishi.

Import boji-davlatning milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatchilardan ximoya qilish va davlat daromadlarini ochirish maqsadida import mahsulotlari soladigan solig'i.

Indusirlangan investitsiyalar-milliy daromad darajasining o'zgarishiga bo'g'liq bo'lgan firmalarning investitsion xarajatlari.

Inglizcha auksion – **bunda stavka pastdan yuqoriga tovar sotilgunga qadar oshib boradi, tovar taklif qilingan maksimal narxda sotiladi.**

Inflatsion kutilmalar-fuqarolar va firmalarning kelajakda narxlar daradajisini oshishini ko'zda tutishi.

Inflatsion uzilish-to'la bandlik sharoitida jami xarajatlarni (jami talab) YaIMning potensial darajasidan ochiq bo'lgan miqdori. Bu miqdor inflatsiyasiz to'la bandlik darajasigacha muvozanatli YaIMni pasaytirish uchun yalpi talabni qanchaga qisqartirish kerakligini ko'rsatadi.

Inflatsiya-narxlar umumiy darajasining ko'tarilishi.

Innovatsiya-yangi texnologiyaning birinchi marta tijoriy qo'llanishi.

Inson kapitaliga investitsiyalar-ishlovchilarning malakasini oshirish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar.

Institutlar – iqtisodiy sub’ektlar xarakterini cheklovchi, ularning o’zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me’yorlar, qoidalar xamda ushbu me’yor va qoidalarni bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari.

Intensiv iqtisodiy o’sish-ishlab chiqarishning mukammalroq omillar va texnologiyaning qo’llanilishi bilan bog’liq, ya’ni resurslar unumdorligining o’sishi hisobiga amalga oshadi.

Investitsiyalash – asosiy kapitalni to’ldirish va o’stirish uchun vapital qo’yish jarayoni.

Investitsiyalar-(kapital sarmoyalar) qimmatbaho qog’ozlarni (aksiya, obligatsiya) va moddiy aktivlarni (mashina, bino, asbob-uskunalar va hk.) sotib olish uchun bo’lgan uzoq muddatli kapital qo’yilmalari. Qimmatbaho qog’ozlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlar moliyaviy (portfel) investitsiyalar, moddiy aktivlar uchun sarmoyalar esa real investitsiyalar deb ataladi.

Investitsiya akseleratori-investitsiyalarni iste’mol o’zgarishi bilan bog’liqlik koeffitsienti $A_i q I_t G' (Y_t - Y_{t-1})$.

Investitsiyani ichki oqlash normasi (IRR – internal rate of return) – investision loyixa samaradorligi ko’rsatkichi. Investitsiyani (minus bilan olingan) qiymati bilan kelajakda olinadigan sof foydaning diskontirlangan qiymati yig’indisini nolga aylantiruvchi ichki qaytim normasi:

$$NPV = -I + \frac{R_1 - C_1}{1 + IRR} + \frac{R_2 - C_2}{(1 + IRR)^2} + \dots + \frac{R_T - C_T}{(1 + IRR)^T} = 0$$

Investision loyixani oqlash muddati – joriy foydalar yig’indisini investisiya qiymatiga teng bo’lishini ta’minlovchi minimal vaqt oralig’i.

Iqtisodiy ne’mat (economic good) – extiyojni qondirish vositasi.

Iqtisodiy davr-mavsumiy tebranishlar bilan bog’liq bo’lmagan iqtisodiy faollik darajasining doimiy tebranishlari.

Iqtisodiy resurslar (economic recourses) – ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar yoki ishlab chiqarish omillari.

Iqtisodiy o’sish-iqtisodiyotda absolyut ifodadagi yoki aholi jon boshiga hisoblangan YaMM real hajmining ko’payishi.

Iqtisodiy renta – resursni sotilishi mumkin bo’lgan narx bilan muvozanat narx ayirmasiga teng. Noyob, cheklangan resur va ishchining yuqori malakasi uchun to’lanadigan qo’shimcha to’lov.

IS – LM modeli-makroiqtisodiyotning ikkita sektorini - tovar (IS egri chizig’i bilan ifodalanadi) va pul bozorlarini (LM egri chizig’i bilan ifodalanadi) bir-biri bilan bog’laydigan iqtisodiy modeli. Egri chiziqlarning kesish nuqtasi iqtisodiyotdagi umumiy muvozanat holatini ifodalaydi.

IS egri chizig’i-tovar va xizmatlar bozorida foiz stavkasi va daromad darajasi o’rtasidagi teskari bog’liqlik.

Iste’molchi ortiqchaligi (yutug’i) – iste’molchi tovarlar uchun to’lashi mumkin bo’lgan narxlar bilan tovarlarga bozorda xaqiqiy to’langan narxlar ayirmalarining yig’indisi.

Ish bilan bandlar-mehnatga layoqatli yoshdagi ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lgan aholi.

Ishchi kuchi-aholining mehnatga layoqatli yoshdagi tarkibiga kiruvchi ishlayotgan va ishsizlarning umumiy soni tushuniladi.

Ish haqi-mehnat sarflari birligi uchun to`lov.

Ishlab chiqarish (product) - ishlab chiqarish omillaridan foydalangan xolda maxsulot yaratish jarayonini yoki ishlab chiqarish omillarini tayyor maxsulotga aylantirish jarayoni.

Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarilgan maxsulot miqdori bilan shu maxsulotni ishlab chiqarishdagi sarflangan ishlab chiqarish omillari miqdori o`rtasidagi bog`liqlikni ifodalovchi funksiya.

Ishlab chiqarish funksiyasi umumiy xolda quyidagicha yoziladi:

$$Q = f (F_1 F_2 \dots F_n)$$

$F_1 F_2 \dots F_n$ – ishlab chiqarish omillari miqdori.

Ishlab chiqarish xarajatlarining o`shishi tufayli narx o`shishi-ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar, shu jumladan imtiyozlarni berish.

Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi (yutug`i) – tovarlarnig xaqiqiy narxlaridan chekli (bir birlik qo`shimcha tovar ishlab chiqarishga ketgan) xarajatlarni ayirmalari yig`indisiga teng.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig`i – mavjud bo`lgan ishlab chiqarish resurslaridan to`liq va samarali foydalanish orqali ishlab chiqariladigan tovarlar kombinasiyasini ifodalovchi chiziq.

Ishlab chiqarish shartnomalari chizig`i – **resurslarni Pareto samarali joylashtirish chizig`i bo`lib, bunda quyidagi shart bajariladi:**

$$MRTS_{LK}^A = MRTS_{LK}^B = \frac{\omega}{r}$$

A – tovar; V – tovar; L – mehnat; K – kapital.

Ishsizlar-bu ishchi kuchining bir qismi bo`lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va ish qidirayotganlar.

Ishsizlikning darajasi-umumiy ishchi kuchidagi ishsizlarning foizda ifodalangan miqdori.

Ishsizlikning tabiiy darajasi-davriy ishsizlik bo`lmagandagi ishsizlik darajasi.

Ishchining nafliligini maksimallashtirish sharti (utility maximization rule) – bo`sh vaqtni daromad bilan chekli almashtirish normasini ish xaqiga tengligi $MRS_{HR} = W$.

Iste'mol funksiyasi-tasarrufdagi daromadning turli ehtimoliy darajalarida ma'lum vaqt mobaynida rejalashtirilayotgan iste'mol xarajatlari.

Iste'mol narxlari indeksi-joriy yildagi “bozor savati” yalpi bahosining asos qilib olingan yildagi “bozor savati” bahosiga nisbatini ifodalovchi ko`rsatkich.

Iste'molga bo`lgan me'yoriy moyillik-iste'molga yo`naltiriladigan foizlarda ifodalangan tasarrufdagi yillik daromadning har bir qo`shimcha birligining ulushi.

Iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik-iste'molga yo'naltiriladigan foizlarda ifodalangan tasarrufdagi yillik daromad ulushi.

Izokvanta – bir xil xajmda maxsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi omillar sarflari kombinasiyalarini ifodalovchi egri chiziq.


Izokosta – yig'indisi bir xil yalpi xarajatga teng bo'lgan resurslar sarflari kombinasiyalarini ifodalovchi chiziq. Izokosta tenglamasi:

$$\omega L + rK = C$$

Bu erda: C – yalpi xarajat;

ω – ish xaqi;

r – kapital narxi.



Jamg'arma funksiyasi-berilgan ushbu vaziyatda, boshqa teng sharoitlarda jamg'arma hajmi va tasarrufdagi daromadning turli miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik.

Jamg'armaga bo'lgan me'yoriy moyillik-tasarrufdagi yillik daromadning jamg'armaga yo'naltiriladigan foizlarda ifodalangan har bir qo'shimcha birligining ulushi.

Jamg'armaga bo'lgan o'rtacha moyillik-jamg'armaga yo'naltiriladigan foizlarda ifodalangan tasarrufdagi yillik daromad ulushi.

Jami taklif egri chig'ining Keyns kesmasi-real YaMM o'zgarganda, narx darajasi doimiy bo'lib qoladigan jami taklif egri chizig'ining yotiq (gorizontal) kesmasi.

Jami taklif egri chig'ining klassik kesmasi-to'la bandlikdagi iqtisodiyot holatiga mos keluvchi jami taklif egri chizig'ining tik (vertikal) kesmasi.

Jami taklif egri chig'ining oraliq kesmasi-jami taklif egri chizig'ining keynsian va klassik kesmalari oralig'ida joylashgan ko'tarilayotgan kesmasi.

Jonlanish-kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning boshlanishi va rivojlanishning tangligacha bo'lgan darajasiga etishi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy davrning fazasi.

Joriy operatsiyalar hisobi-mamlakat to'lov balansining tovar va xizmatlar eksporti hamda importi, investitsiyalardan sof daromad hajmlari va transfert to'lovlarining sof hajmi qayd etilgan bo'limi.



Kapital-ishlab chiqarish faoliyati natijasida odamlar tomonidan yaratiladigan va iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan resurslar. (mashinalar, asbob-uskunalar, binolar, moddiy zahiralar)

Kapital bilan ta'minlanganlikning barqaror darajasi-bu shunday kapital zahiralarining darajasiki, bunda investitsiyalar ishdan chiqib ketgan kapital hajmiga tengdir.

Kapital harakati hisobi-kapitalning kelishi va chiqishi qayd etiladigan mamlakat to'lov balansining bo'limi.

Katta ochiq iqtisodiyot-bunday iqtisodiyotda ichki bozor foiz stavkasi xalqaro bozorga va jahon foiz stavkasining darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Keyns kesishmasi-Keynsning nazariyasiga asosan daromad aniqlashni sodda modeli bo'lib, xarajatlar o'zgarishi natijasida jami daromadni multiplikativ samara bilan oshishini vujudga keltiradigan mexanizmni ifodalaydi.

Kichik ochiq iqtisodiyot-bunday iqtisodiyotda ichki bozor foiz stavkasi jahon foiz stavkasining darajasi bilan belgilanadi va kapital oqimlarning harakatiga hech qanday to'siqlar xalaqit bermaydi.

Kirimlar-bu ichki ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'moli uchun qilindigan har qanday qo'shimchasidir. Bularga investitsiyalar, davlat xarajatlari va eksport kiradi.

Klassik model-Keynsga davrigacha hamda klassik g'oyalarga asoslangan iqtisodiy model. Model

Koldora-Xiks mezoni – **turmush farovonligi mezoni bo'lib, unga ko'ra yutganlar o'z yutug'ini boy berganlarning yo'qotishidan yuqori deb baxolasa.**

Kompensatsion (dempingga qarshi) bojlar – chet el eksport subsidiyalarni betaraf qiladigan import bojlari.

Kooperativ o'yin (cooperative game) – o'yinda bir neta o'yinchilar o'zaro kelishib, birgalikda o'ynaydi (iqtisodiyotda kooperativ o'yinga misol sifatida karterni qarash mumkin).

Kurno muvozanati – duopolik bozorda xar bir firma mustaqil ravishda shunday optimal ishlab chiqarish xajmini tanlaydiki ushbu maxsulot xajmi ikkinchi firmani qanoatlantiradi. Kurno muvozanati firmalarning aks ta'sir qiluvchi funksiyalari grafiklarining kesishish nuqtasida vujudga keladi.

Kutilgan inflatsiya-daromad oluvchilar avvaldan taxmin qilgan narxlar ko'tarilishi. Shuning uchun ular o'zlarining real daromadlariga inflatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish (yoki yo'qotish) choralarini ko'rishi mumkin.

Kutilmagan inflatsiya-daromad oluvchi shaxs yoki davlat tomonidan oldindan ko'rilgan chora – tadbirlarning yo'qligi tufayli, real daromadga salbiy ta'siri susayishi mumkin bo'lmagan narxlar ko'tarilishi.

Kvota-import yoki eksport hajmini miqdoriy cheklashtirish.

Kvazioptimum – **Pareto-samarali xajmida tovar ishlab chiqarish mumkin bo'lmaganda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan variantlardan eng yaxshisini tanlash (optimalga yaqin).**

Ko'pchilikka qo'shilishi samaradorligi – bu iste'mol talabni o'sish samarasi bo'lib, ko'pchilik sotib oladigan tovarni umumiy qabul qilingan me'yorlarga ko'ra sotib olish.



Laspeyres narx indeksi-tovarlarning ma'lum bir to'plami asosida hisoblanadigan narxlar darajasi ko'rsatkichi.

Likvidlilik-birorta aktivni naqd pulga qanchali tez almashtirish mumkinligining o'lchovi.

LM egri chizig'i-real pul bozorida foiz stavkasi va daromad darajasi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlik.

Lorens chizig'i – biror bir ko'rsatkichni taqsimlanish darajasini ifodalovchi egri chiziq. Bu amerikalik olim Maks Otto Lorens (1876-1944) tomonidan axoli

daromadlarining taqsimlanishini baxolash uchun ishlab chiqilgan. Axolidan daromad solig'i olinib, ularga transfert berilgandan keyin Lorens chizig'ining botiqligi kamayadi.



M1-naqd metall va qog'oz pullarni hamda chekdagi qo'yilmalarni o'z ichiga oluvchi pul agregati.

M2-M1, chekda bo'lmagan jamg'arma qo'yilmalarni va uncha katta bo'lmagan muddatli qo'yilmalarni o'z ichiga oluvchi pul agregati.

M3-M2 va yirik muddatli qo'yilmalarni o'z ichiga oluvchi pul agregati.

Majburiy zahiralar-bu kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan va Markaziy bankda foizsiz qo'yilmalar ko'rinishida saqlanadigan bank omonatlarining bir qismidir.

Makroiqtisodiy model-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar orasidagi funksional bog'liqliklarni o'rganishga asoslanuvchi formal (mantiqiy, grafik, algebraik) ta'rifidir.

Makroiqtisodiy muvozanat-narxlar darajasi va milliy ishlab chiqarishning real hajmi o'rtasidagi muvozanat. Bu muvozanat yalpi talab yalpi taklifga teng bo'lganda ta'minlanadi.

Makroiqtisodiy siyosat-davlat tomondan mamlakat iqtisodiy rivojlanishining maqsadlarini aniqlash va ularga erishish uchun turli vositalardan foydalanish. Maqsadlarga to'la bandlik, narxlarning barqaror darajasi, iqtisodiy o'sish, to'lov balansning muvozanati, vositalarga esa byudjet – soliq va pul – kredit siyosati kiradi.

Makroiqtisodiyot-bu iqtisodiyot xatti-harakatini bir butun ko'rinishda o'rganuvchi va izohlab beradigan iqtisod fanining sohasidir.

Mamlakatning rezidentlari-mamlakatda yarim yildan ko'proq (183 kun) yashagan barcha jismoniy shaxslar shu mamlakatning rezidentlari deb hisoblanadi. Bular qatoriga boshqa davlatlarning diplomatik va harbiy shaxslari kirmaydi. Bundan tashqari shu mamlakatda tashkil qilingan barcha yuridik shaxslar ham millati hamda hamkorlar rezidentligidan qat'i nazar mamlakat rezidentlari deb hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu yuridik shaxslarning xorijiy yoki shu'ba kompaniyalari qayerda joylashgan bo'lsa o'sha mamlakatlarning rezidentlari deb hisoblanadi.

Mandell-Fleming modeli – bu kichik darajali ochiq iqtisodiyot uchun IS – LM modelidir. Model daromad va almashtiruv kursi tebranishlarining sabablarini tahlil qiladi.

Maqsadlar dilemmasi-davlat moliya idoralari bir vaqtning o'zida ham muomaladagi pul massasini, ham foiz stavkasi darajasini barqarorlashtira olmasligi natijasida kelib chiqadigan muammo.

Markaziy bank-vazifasi pul muomalasini tartibga solish, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, yagona pul - kredit siyosatini o'tkazish, hisob – kitoblarni va xazina xizmatini tashkil etish, tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari faoliyatini nazorat qilish, tashqi savdo faoliyati bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bo'lgan bank.

Masshtab samarasi – bu ishlab chiqarish masshtabining kengayishi surati bilan maxsulot ishlab chiqarishni o'sish surati o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar miqdoriga ishlab chiqarish masshtabi deyiladi.

Ma'naviy tavakkalchilik – yo'qotishlar sug'urta kompaniyasi tomonidan to'liq qoplanishiga ishonch xosil qilgan xolda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar extimolini ongli ravishda oshirib ko'rsatishga intiluvchi shaxsning xatti-xarakati.

Mexnatni chekli maxsuloti – boshqa ishlab omillari sarfi o'zgarmaganda bir birlik qo'shimcha mexnat sarfi xisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha maxsulot.

Mexnat bozorida monopsoniya – bu mukammallashgan raqobatdagi mexnat bozorining aloxida bir chetki ko'rinishi bo'lib, bunda biror kichik shaxardagi yagona firma maxalliy axolining ko'p qismini ish bilan ta'minlaydi.

Milliy Daromad-(MD) – bu ishlab chiqarish omillarining egalari olgan daromadidir va unga yollanma ishchilarning ish haqi, ijara to'lovlari, foizlar, mulkdan kelgan daromad va korporatsiyalar foydasi kiradi.

Milliy daromadning kengaygan takror ishlab chiqarilishi-ishlab chiqarishning kengaygan miqyosda qaytadan boshlanishi (iqtisodiy o'sish).

Milliy daromadning oddiy takror ishlab chiqarilishi-ishlab chiqarishning o'zgarmas miqyosda qaytadan boshlanishi.

Milliy daromadning takror ishlab chiqarilishi-ishlab chiqarishning doimiy qaytariladigan jarayonidir.

Moliyaviy aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab-moliyaviy va real aktivlar bilan amalga oshiradigan bitimlardan foyda olish uchun odamlarning jamg'arma ko'rinishdagi tutib turgan pul miqdori. Foiz stavkasi miqdoriga teskari bog'liqlikda o'zgaradi.

Monopoliya – bu shunday bozorki, unda faqat bitta maxsulot ishlab chiqaruvchi firma faoliyat olib boradi va maxsulot ishlab chiqarishni, sotishni to'liq nazorat qiladi.

Monopoliyaning o'lik yuki yoki jamiyatning sof yo'qotishi – monopolist bo'lmagandagi maxsulot ishlab chiqarish xajmidan monopolist ishlab chiqargan maxsulotni ayirmasiga teng.

Muddatli qo'yilmalar-kredit muassasalaridagi faqat shartnomada belgilangan davr tugagandan keyingina mablag'lar jarimasiz olinishi mumkin bo'lgan foiz keltiruvchi qo'yilmalar.

Mulkdan olinadigan daromad-noaksioner korxonalarining (individual firma, hamkorlik) egalari oladigan sof daromad.

Mutloq afzallik-mamlakatning tovar yoki xizmatlarni boshqa savdo sheriklarga nisbatan kamroq resurs sarflab ishlab chiqarish qobiliyati.

Muvofiqlashgan byudjet-(G=T) bu byudjetning shunday holatiki, unda soliqlardan transfert to'lovlarini ayirganda, bu miqdor davlat xarajatlarining hajmiga teng bo'ladi.



Narx (price) – bir birlik tovarni sotib olish uchun to'lanadigan pul miqdori.

Narx diskriminatsiyasi-ishlab chiqarish hajmini oshirish va bozorda o'z ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida ishlab chiqaruvchi tomonidan o'z mahsulotiga har xil narxlarni qo'yish (masalan, ichki bozorda baland narxlar, tashqi bozorda esa past narxlarni belgilash).

Narxlar indeksi-ikki turli vaqt davrlaridagi tovar va xizmatlarning narxlari nisbatini ifodalovchi ko'rsatkich.

Naflik – iqtisodiy ne'matlarni, shaxs extiyojini qondirish darajasi. Ne'mat inson extiyojini qancha to'laroq qondirsa uning nafli shuncha yuqori bo'ladi.

Noaniqlik – axborotlar etarli, to'liq bo'lmaganda qabul qilingan qarorlarda noaniqlik vujudga keladi. Noaniqlik sharoitida qabul qilingan qarorlar natijasida tavakkalchilik vujudga keladi.

Nodiskretion fiskal siyosati-davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti saldosing avtomatik ravishdagi o'zgarishi. Bu o'zgarishlar "avtomatik stabilizatorlar" harakati ta'sirida jami daromadning siklik tebranishlari natijasida paydo bo'ladi.

Nol so'm yutuqqa ega bo'lgan o'yin (zero sum game) – o'yinda bir kishining yutug'i boshqa o'yinchilarning yutqazgan summalari yig'indisiga teng.

Nolga teng bo'lmagan so'mga ega bo'lgan o'yin (non zero sum game) – bu o'yinda bir gurux o'yinchilar yo yutadi yoki boy beradi.

Nokooperativ o'yin – bu o'yinda qatnashchilar mustaqil ravishda qaror qabul qiladi (Iqtisodiyotda misol sifatida oligopolik bozorda xarakat qiluvchi firmalar o'rtasidagi «narxlar jangini» keltirish mumkin).

Nominal valyuta kursi-ikki mamlakat valyutalarining nisbiy narxi.

Nominal ish xaqi (nominal wage rate) – yollanma ishchi tomonidan olinganpul miqdori.

Nominal YaMM-bu bir yilda mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan va joriy narxlarda o'lchangan tovar va xizmatlarning qiymati.

Norasional talab – bu rejalashtirilmagan talab bo'lib, shaxsning xozirgi xoxishini, kayfiyatini, injiqligini o'zgarishi bilan vujudga keladigan vaqtinchalik talab.

Normal tovarlar – daromad oshganda talab oshadigan tovarlar.

Notarif to'siqlar-milliy tovarlarni import tovarlardan afzall ko'rish uchun kvotalar, eksportning ixtiyoriy cheklashtirishlar va boshqa choralar shaklida olib boriladigan proteksionist siyosati.

Nofunksional talab – tovarni sifati bilan bog'liq bo'lmagan omillarga asoslangan talab.



Ob'ektiv (matematik) extimol – voqea va xodisalar jarayonida takrorlanishlarni xisob-kitob qilishga asoslangan extimol.

Ochiq bozordagi operatsiyalar-pul – kredit siyosatining vositasi bo'lib, mamlakatda pul taklifini tartibga solish uchun Markaziy bank tomonidan davlat qimmatbaho qog'ozlarni sotish yoki sotib olish.

Ochiq iqtisodiyot-barcha fuqarolari tovar va kapitalning xalqaro bozorida bitimlarni erkin amalga oshira olish huquqiga ega bo'lgan mamlakat.

Oliver-Tanzi samarasi – soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga soliq tushumlarni to'lashda atayin keyinga cho'zishlari.

Oliy kategoriyali tovar – daromad oshganda talab oshib ketadigan tovarlar.

Oltin qoida-Solouning o'sish modelida har bir ishchiga iste'molning maksimal darajasi to'g'ri kelgani holda iqtisodiyotning barqaror o'sish darajasi o'rnatiladigan jangarmalar darajasi. Yoki ishchi kuchining samarali birligiga to'g'ri keladigan iste'molning maksimal darajasi.

Oqimlar-vaqt birligida o'lchanadi (bir oyda, kvartalda va bosgq.) va iqtisodiy jarayonlarning vaqt ichida haqiqiy oqimini ifodalaydi: bir yildagi iste'mol xarajatlarining hajmi, bir yildagi investitsiyalar hajmi, bir kvartalda ishini yo'qotganlar va boshq.

Ortiqcha rezervlar-bankning haqiqiy zahiralari uning majburiy zahiralardan ortiq bo'lgan pul miqdori.

Ouken qonuni-ishsizlikning joriy davrdagi darajasining uning to'la bandlikdagi darajasidan 1%ga ortiqligi real YaMMning potensial YaMMdan 2,5% orqada qolishiga olib keladi.



Paashe narx indeksi–tovarlarning o'zgaruvchan to'plami asosida hisoblanadigan narxlar darajasi ko'rsatkichi.

Pareto optimum (**Pareto samaradorlik**) – ne'matlarni shunday taqsimlanishiki bunda biror kishining turmush farovonligini pasaytirmasdan boshqa kishining turmush farovonligini oshirib bo'lmaydi.

Pasayish–milliy ishlab chiqarish darajasining pasayishi, investitsiyalar va bandlik qisqarilishi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy davrning fazasi.

Past kategoriyali tovarlar – daromad oshganda talab kamayadigan tovarlar.

Potensial YaMM-resurslarning to'la bandlik sharoitida erishilgan real ishlab chiqarishning maksimal darajasi.

Proteksionizm-erkin savdo yo'lida to'siqlar o'rnatish.

Pullar-bitimlarni amalga oshirishda ishlatiladigan aktivlar yig'indisi.

Pul–kredit siyosati-(monetary policy) – makroiqtisodiy siyosatning turi bo'lib, jami talabni nazorat qilish maqsadida Markaziy bank tomonidan olib boriladi va pul taklifini, kreditni va foiz stavkasini tartibga solishdan iboratdir.

Pul agregati-pul massasining muqobil o'lchovlari bo'lib xizmat qiluvchi likvid aktivlarning o'ziga xos bir nechta guruhlaridan biri.

Pul bazasi-Markaziy bankning bevosita nazorat ostida bo'lgan pul taklifining bir qismi. Unga naqd pullar va tijorat banklarning majburiy rezervlari kiradi. U yana "yuqori samarali" pullar (high-powered money) deb ataladi.

Pul bozori-pulga bo'lgan talab va pul taklifi foiz stavkasini (yoki foiz stavkasi darajasini) belgilovchi bozor.

Pul massasi-muomaladagi pul miqdori. Bu miqdorni tartibga solish – mamlakatda Markaziy bank pul – kredit siyosatining muhim vazifasidir.

Pul multiplikatori-tijorat banklari tizimi muomaladagi pul massasini va muddatsiz qo`yilmalar miqdorini yangi qarzlarni berish yoki qimmatli qog`ozlarni sotib olish yo`li bilan ko`paytirish uchun foydalanishi mumkin bo`lgan ortiqcha zahiralarning qismi; bir taqsim majburiy zahira me'yoriga teng.

Pulga bo`lgan umumiy talab-bitimlar uchun pulga va aktivlar tomonidan pulga bo`lgan talab yig`indisi.

Pullar-umumiy ekvivalent bo`lmish bu maxsus tovar bitimlar uchun ishlatiladigan moliya aktivlarining eng likvidli turidir.

Pullarning aylanish tezligi-muomalada bo`lgan pul birligi bir yilda necha marta tovar va xizmatlar sotib olish uchun ishlatilishi. uni ishlab chiqarishda sarf qilingan xomashyo va materiallar qiymatini chegirish. R. Solou modeli – bu iqtisodiy o`shishning neoklassik modelida ishlab chiqarish hajmi kapital va mehnat omillariga bog`liqdir va shu bilan birga kapitalni mehnat bilan R. Xarrodning iqtisodiy o`shish modeli - bu nazariy konseptsiyada makroiqtisodiy muvozanat shartini (jag`arma investitsiyalarga teng $S = I$) qondiradigan milliy daromadning o`shish sur'atlari belgilanadi.



Rasmiy zahiralalar-mamlakat markaziy banki ixtiyoridagi xorijiy valyuta.

Real valyuta kursi-ikki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy narxi.

Real YaMM-bu bir yilda mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan va doimiy narxlarda o`lchangan tovar va xizmatlarning qiymati.

Real ish xaqi (real wage rate) – olingan pul mablag`i xisobidan sotib olinishi mumkin bo`lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalovchi ish xaqining sotib olish imkoniyati.

Real foiz stavkasi – inflyasiyadan tozalangan foiz stavkasi. Nominal, real foiz stavkalari va narx o`shishi (inflyasiya) o`rtasidagi miqdoriy bog`liqlikni quyidagicha yozish mumkin:

$$(1 + i) * (1 + \Delta P) = 1 + R$$

bu erda: i – real foiz stavkasi;
 ΔP - inflyasiya darajasi;
 R – nominal foiz stavkasi.

Rejadagi investitsiyalar-yillik daromadning har qanday imkoniyatli darajasida ishlab chiqaruvchilar amalga oshirishni ko`zlagan investitsiya xarajatlari.

Resurslarga chekli xarajat - qo`shimchabir birlik resurs sotib olish uchun sarflangan qvo`shimcha xarajat.

Resursning chekli daromadlilik yoki resursning pulda ifodalangan chekli maxsuloti – resursdan qo`shimcha bir birlik foydalanish natijasida olingan qo`shimcha maxsulotni sotishdan tushgan qo`shimcha daromad.

Renta – taklifi qat'iy cheklangan resurs egasi tomonidan olinadigan daromad.

Retcession uzilish-bu miqdor inflatsiyasiz to'la bandlik darajasigacha muvozanatli YaIMni ko'tarish uchun yalpi talabni qanchaga oshirish kerakligini ko'rsatadi.

Revalvatsiya-qayd etilgan valyuta kurslar tizimi amal qilgan sharoitda boshqa valyutalarning kurslariga nisbatan milliy valyuta kursini oshirishga qaratilgan hukumat chora – tadbirlari.



Savdo imkoniyatlari egri chizig'i-bir mahsulotga ixtisoslashish va uni boshqa mahsulot olish uchun ayirboshlashda (eksportda) mamlakat ega bo'lgan tanlash variantlari.

Savdo shartlari-eksport va import narxlarning nisbati.

Savdo siyosati-tashqi savdoni soliqlar, subsidiyalar, eksport va importlarning to'g'ridan – to'g'ri cheklantirish orqali tartibga solishdan iborat bo'lgan davlat byudjet – soliq siyosatning nisbatan muzstaqil yo'nalishidir.

Savdo yutug'i-xalqaro savdoda qatnashayotgan mamlakatlar o'z ichki ishlab chiqarish imkoniyatlaridan ortiq iste'mol darajasiga erishadilar.

Senoraj-muomalaga qo'shimcha pul miqdorini chiqarishdan olgan davlatning daromadi.

Siqib chiqarish samarasi-bu iqtisodiy hodisada davlat xarajatlarning o'sishi xususiy investitsiyalar va sof eksportni siqib chiqaradi.

Sof diskontirlangan (keltirilgan) qiymat (NPV) - bu kelajakda olinadigan sof daromadning diskontirlangan qiymatidan diskontirlangan investisiya ayirmasi:

$$NPV = -I + \frac{R_1 - C_1}{1+i} + \frac{R_2 - C_2}{(1+i)^2} + \dots + \frac{R_T - C_T}{(1+i)^T}$$

Bu erda: I – investisiya; R – daromad; C – xarajat; $\Pi = (R - C)$ - foyda; T – proektni amalga oshirish muddati.

Sof iqtisodiy renta (pure economic rent) – narx bo'yicha absolyut elastik bo'lmagan taklifga ega bo'lgan resurs egasi tomonidan olinadigan daromad.

Sof eksport-tovar va xizmatlar eksportidan tovar va xizmatlar importini chegirish.

Sof investitsiyalar-yalpi investitsiyalar va amortizatsiyaning ayirmasi, jamlangan kapitalning o'zgarishini ifodalaydi.


Sof yalpi mahsulot-(SYaM) ma'lum davr ichida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan tovar va xizmatlarning hajmi.

Soliqlar multiplikatori-bu koeffitsient soliqlar kamayishiga nisbatan YaIM qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi.

Ssuda foizi – kapital egasiga uni kapitalidan foydalangani uchun iqtisodiy sub'ekt tomonidan to'lanadigan narx.

Standart (o'rta kvadratik) chetlanish – **dispersiyadan olingan kvadrat ildiz**:

$$D = \sqrt{\delta^2}$$



Tadbirkorlik qobiliyati, boshqaruv qobiliyati, axborot – biror ob'ekt to'g'risida va unda bo'layotgan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Talab (demand) – berilgan narxlarda xaridorlar tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori.

Taklif (supply) – bu ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar tomonidan berilgan narxlarda sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori.

Taklif qonuni – to'g'ridan-to'g'ri narx o'zgarishi bilan bog'liq xolda taklifning o'zgarishi.

Talab qonuni – narxdan boshqa omillar o'zgarmaganda talab miqdori bilan narx o'rtasidagi bog'liqlik.

Talab inflatsiyasi-YaMMning real hajmi o'zgarmagan holatda talab ortiqchaligi tufayli narxlarning o'sishi.

Talab qilib olinguncha bo'lgan omonatlar-(talab qilib olinadigan omonatlar) bankda saqlash uchun qo'yilgan va kerak bo'lganda bitimlarni amalga oshirishda hisobdan olinadigan mablag'lar, misol uchun, joriy hisobdagi mablag'lar.

Taqqosiy afzallik-mamlakatning tovar yoki xizmatni boshqa savdo sheriklarga nisbatan kamroq muqobil xarajatlar bilan ishlab chiqarish qobiliyati.

Tarif-(boj) import yoki eksportga qo'yilgan bojxonaninj solig'i.

Tarkibiy-(strukturaviy) ishsizlik ishchi kuchi talabi tarkibidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, jiddiy muammo hisoblanadi. Ammo u friksion ishsizlik kabi har qanday iqtisodiyotda muqarrardir.

Tarkibiy taqchillik-iqtisodiyotning to'la bandlik sharoitidagi soliq tushumlarining davlat xarajatlaridan kam bo'lishi.

Tasarrufdagi daromad-(Y-T) turli soliqlar to'langandan keyin uy xo'jaliklari tasarrufida qoladigan milliy daromadning ma'lum bir qismi. Bu daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi.

Tashqi muvozanat-valyuta kursining ma'lum tartibidagi to'lov balansining Oga teng bo'lgan saldosi.

Tashqi qarz-davlatning chet el fuqarolari, firmalari va tashkilotlariga bo'lgan qarzlari.

Tavakkalchilik (risk) - qo'yilgan maqsadga erishidagi yo'qotishlar.

Tavakkalchilikka qarshi inson (**zist orvezse person**) – **kutilgan daromadga nisbatan kafolatlangan daromadni ustun ko'radigan inson.**

Tavakkalchilikka befarq qarovchi shaxs – **kutiladigan daromadda u kafolatlangan daromad bilan tavakkal daromaddan qaysi birini tanlashga befarq qaraydigan shaxs.**

Tavakkalchilikka moyillik (**zist prefeped**) – **kutiladigan daromadda kafolatlangan natijaga ko'ra ko'proq tavakadchilik bilan bog'liq bo'lgan natijani ustun ko'radigan shaxs.**

Tavakkalchiliklarni qo'shish – **ushbu usul tasodifiy yo'qotishlarni o'zgarmas xarajatlarga aylantirish orqali tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan (mulkni sug'urtalash).**

Tavakkalchilikni taqsimlash – **ushbu usulga ko'ra zarar ko'rish extimoli bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik qatnashuvchi sub'ektlar o'rtasida shunday taqsimlanadiki, oqibatda xar bir sub'ektning kutiladigan zarari nisbatan kichik bo'ladi.**

Tavakkalchilik bilan bog'liq aktivlar – **aktivdan olinadigan daromad miqdori tasodifiy.**

Tijorat bank-bu bank kreditlarni jalb etish va berish, mijozlarning topshirig'iga binoan hisob – kitoblarni amalga oshirish kabi xizmatlarni va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatadi (faktoring, lizing, valyuta almashirish va hokazo).

Tijorat banking balans hisoboti-hisobotning chap tomonida bank aktivlari, o'ng tomonida bank passivlari (majburiyatlari) va bankning xususiy kapitali o'rtasidagi tenglik (balans)ni ko'rsatuvchi bankning ma'lum sanadagi ishlarining ahvoli haqidagi buxgalteriya axborotlarining ma'lum joylashuvi.

To'la bandlik byudjeti-agar iqtisodiyot yil mobaynida to'la bandlik sharoitida rivojlanganda, davlat xarajatlari va daromadlari o'rtasida shakllanishi mumkin bo'lgan nisbat.

To'la ish bilan bandlik-davriy ishsizlik yo'qligi bilan tavsiflanadigan mehnat resurslarning bandlik darajasi. Iqtisodiyotda faqatgina friksion va strukturaviy ishsizlik mavjud bo'lganda to'la ish bilan bandlikka erishiladi.

To'lov balansi-bir mamlakat rezidentlari va boshqa chet el mamlakatlari rezidentlari o'rtasida yil davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni qayd etadi.

To'lov balansi debeti-xorijiy valyutani ishlatish (sarflash).

To'lov balansi krediti-xorijiy valyutani “ishlab topish”.

To'lov funksiyasi – o'yin natijasi bo'lib o'yinchining yutug'ini yoki yo'qotishini bildiradi.


Tovar va xizmatlarning davlat xaridi-yakuniy mahsulot va xizmatlarga davlatning barcha xarajatlari.



Umumiy muvozanatlik – barcha bozorlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida o'rnatiladigan muvozanatlik. Barcha bozorlarni muvozanat xolatda bo'lishi. Bunda biror bozorda muvozanatlik buzulsa boshqa bozorlarda xam muvozanatlik buziladi.

Uy xo'jaliklari-bir yoki bir necha shaxslardan iborat va resurslarni taklif qiluvchi, olingan daromadni bir qismini iste'mol qiluvchi va qolganini jamg'aruvchi iqtisodiy birlik.

Uzoq muddatli davr-narxlar darajasi o'zgarishi mumkin bo'lgan va milliy ishlab chiqarish xajmi potensial darajaga erishgan davr oralig'i.



Valyuta kursi-bir valyutaning boshqa valyutada ifodalangan narxi.

Valyuta bozori-xorijiy valyutani oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshiriladigan bozor.

Vaqt bo'yicha ustun ko'rish – joriy iste'molga sarflash bilan kelajakda iste'mol qilish uchun sarflashdan qaysi birini befarqlik chizig'i asosida tanlash.

Vaqt bo'yicha ustun ko'rishni cheklash normasi – umumiy turmush darajasi o'zgartirilmagan joriy iste'moldan bir birlik kechishni to'liq qoplaydigan kelajakdagi qo'shimcha iste'mol qiymati.

Vaqtlararo muvozanatlik – joriy va kelajakda iste'mol qilish o'rtasida tanlayotgan shaxs uchun maksimal naflik keltiruvchi xolat

Vaqtlararo byudjet chegarasi – shaxsning daromadi va ssuda foizi stavkasi

bilan aniqlanadigan vaqtlaro ustun ko'rish kartasidagi chiziqning xolati.

Veblen samarasi – tovarning narxi juda yuqori bo'lganligi bilan bog'liq bo'lgan iste'mol talabining o'sish samarasi.



Xarajatlar (costs) – maxsulot ishlab chiqarish uchun qilingan sarflar.

Xaridorlik qobiliyat pariteti-ikki mamlakat o'rtasidagi valyutalar kurslari va narxlar darajasining nisbati.

Xarajat inflatsiyasi-jami taklifning keskin o'zgarishlari natijasida yuzaga keladigan inflatsiya. Bunday holatni yuz berishiga ish haqi oshishi yoki xom ashyo narxlarini oshishi sabab bo'lib, uning natijasida real ishlab chiqarish xajmi va bandlik darajasi pasayadi.



Shaxsiy daromad-soliq to'languncha uy xo'jaligiga tushadigan daromad.

Shaxsiy iste'mol xarajatlari-iste'mol tovarlari va xizmatlarni sotib olishga yo'naltirilgan uy xo'jaligi xarajatlari.

Snoba samarasi – talabni o'zgarish samarasi bo'lib boshqalar iste'mol qilgani uchun iste'mol qilinadi.

Shtakelberg muvozanati – bu duopolik sharoitda lider firma bilan ergashuvchi firma faoliyat ko'rsatganda lider tovar narxini va ishlab chiqarish xajmini mustaqil belgilaydi, ergashuvchi firma lider firmaga moslashgan xolda narx va maxsulot xajmini belgilaydi.

Shartnomalar chizig'i – 2 iste'molchi o'rtasida ikkita ne'matning samarali taqsimlanish variantlarini ifodalovchi chiziq.



Zahira me'yori-Markaziy bank tomonidan belgilanadigan kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining ulushidir.

Zahiralar-faqatgina muayyan bir vaqt oralig'ida o'lchanishi mumkin va obyektning ma'lum sanadagi (yilning boshi yoki oxirida) holatini ifodalaydi. Masalan, davlat qarzi, iqtisodiyotdagi kapital zahirasi, ishsizlarning umumiy soni va boshqalar.



Chayqovchilik muxiti talabi (spekulyativ) – narxni kelajakda ortishining kutilishi tovarga talabni bugungi kunda

ortishiga olib keladi (tovarni bugungi kunda iste'mol qilishdan naflik ortadi).

Chekda bo'lmagan jamg'ariladigan qo'yilmalar-chek yozib berilishi mumkin bo'lmagan jamg'arma hisobvaraqa.

Chekda qo'yilmalar-tijorat banklari yoki jamg'arma muassasalaridagi chek yozib berish mumkin bo'lgan qo'yilmalar.

Chekli texnologik almashtirish normasi (marginal rate of technological substitution, $MRTS_{xy}$) - ishlab chiqarish xajmi o'zgarmaganda bir birlik X omilini necha birlik Y omil bilan almashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Chekli daromad (marginal revenue) – bir birlik qo'shimcha tovar sotishdan tushgan qo'shimcha daromad $MR = \frac{\Delta TR}{\Delta Q}$

Chetlanish – **kutiladigan natija bilan xaqiqiy natija o'rtasidagi farq.**

Chekli transformasiya normasi (MRT) – birinchi tovardan qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarish uchun ikkinchi tovardan qancha voz kechish kerakligini ko'rsatadi.

Chiqimlar-mamlakat ichidagi daromadni ishlab chiqarilgan mahsulotni sotib olishdan o'zga narsalarga sarf qilish. Bularga jamg'armalar, soliqlar va import kiradi.



Yalpi Ichki Mahsulot-ma'lum davr ichida mamlakat hududidagi barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan qo'shimcha qiymatlarining yig'indisi. (YaIM)

YAlpi investisiya (gross investment) – bu amortizatsiya qiymati bilan sof investisiya (kapitalning o'sgan qismi) ning yig'indisi.

Yalpi Milliy Mahsulot-ma'lum davr ichida mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovar va xizmatlarning bozor qiymatlari yig'indisi. (YaMM)

Yalpi taklif-iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarga bo'lgan barcha individual takliflarning yig'indisi yoki har qanday mumkin bo'lgan narxlar darajasida ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishga tayyor bo'lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmidir.

Yalpi taklif egri chizig'i-har qanday mumkin bo'lgan narxlar darajasida ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishga tayyor bo'lgan tovar va xizmatlar hajmini ko'rsatadi.

Yalpi talab-iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarga bo'lgan barcha individual talablarning yig'indisi yoki har qanday mumkin bo'lgan narxlar darajasida iste'molchilar cotib olishga tayyor bo'lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmidir.

Yalpi talab shoki-talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillarining keskin o'zgarishi ta'sirida yalpi talabning ham keskin o'zgarishi (pul taklifining yoki pul aylanish tezligining o'zgarishi, investitsiyalarga bo'lgan talabning o'zgarishi, inflyatsiya kutilishning keskin o'zgarishi va boshqa). Yalpi taklif shoki – taklifning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillarining keskin o'zgarishi ta'sirida yalpi

taklifning ham keskin o'zgarishi (resurslarga bo'lgan narxlarning o'sishi, tabiiy ofatlar).

YaMM deflatori-narx indeksi, joriy yildagi mahsulot birligining o'rtacha narxini bazis yildagi narxiga nisbatan o'zgarishini ko'rsatadi. Paashe indeksi bo'yicha aniqlanadi.

YaMMni daromadlar oqimi bo'yicha hisoblash usuli-joriy yilning jami mahsulotini ishlab chiqarishdan olingan barcha daromadlarni jamlash.

YaMMni xarajatlar oqimi bo'yicha hisoblash usuli-yakuniy mahsulotga ketgan xarajatlarni jamlash.

Yopiq auksion bunda tovara uchun auksion qatnashchilari bir - **biriga bog'liq bo'lmagan xolda stavkalarini qo'yadi va tovar kim ko'p stavka qo'ygan bo'lsa shunga beriladi.**

Yopiq iqtisodiyot-halqaro savdoda qatnashmaydigan mamlakat iqtisodiyoti.



Qayd etilgan valyuta kursi-Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiyalari orqali valyuta kursini ushlab turish.

Qisqa muddatli davr-narxlar darajasi o'zgarmaydigan va milliy ishlab chiqarish xajmi potensial darajaga erishmagan davr oralig'i.

"Qimmat pullar" siyosati-inflatsiya darajasini pasaytirishga qaratilgan Markaziy bankning pul - kredit siyosati. Uning zahira me'yorini oshirib, ochiq bozorda qimmatbaho qog'ozlarni sotadi.



O'rindosh ne'matlarni chekli almashtirish normasi (marginal rate of substitution) – umumiy naflik darajasi o'zgarmaganda iste'molchi bir birlik birinchi ne'matni qancha birlik ikkinchi ne'mat bilan almashtirishini ko'rsatadi:

$$MRS = \frac{MU_1}{MU_2}$$

Bu erda: MRS – birinchi ne'mat bilan ikkinchi ne'matni chekli almashtirish normasi;

MU_1 va MU_2 – mos xolda birinchi va ikkinchi ne'matning chekli nafliklari.

O'rtacha daromad (average revenue) – bir birlik tovarni sotishdan tushgan daromad: $AR = \frac{TR}{Q}$

O'yin – oldindan belgilangan qoidalar asosida iqtisodiy suub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (qarorlar qabul qilish)

O'yinlar nazariyasi – fan yo'nalishi bo'lib u o'yin qatnashuvchilarining vaziyat bo'yicha xarakat qilish va qaror qabul qilishni matematik usullar yordamida o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Xalq so'zi. 16 yanvar 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 7 iyundagi “Har bir oila - tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Qarori “Xalq so'zi”, 8.06.2018 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni. Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil.
4. Bakiyeva I.A. Mikroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – 436 b.
5. Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. – 300 b.
6. Ergashev E.I., N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabbarov. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 352 b.
7. M.P.Eshov, M.M.Bo'stonov, M.F.Maxmudov. “Makroiqtisodiyot” fanidan masalalar yechish bo'yicha uslubiy qo'llanma. –T.: “Fan va texnologiya”, 2010, 186 bet.
8. E.I.Ergashev, I.Bakiyeva, Sh.Fayziyev, B.Shermuxammedov. Mikroiqtisodiyot makroiqtisodiyot. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 680 b.
9. Abdulhakimov Z.T. Mintaqa va mahalliy xo'jaliklar iqtisodiyoti fanidan masalalar to'plami. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 112 b.
10. Фуломов С.С., Алимов Р.Х., Салимов Б.Т., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Микроиктисодиёт: Дарслик. –Т.: Шарқ-МАТБАА АК бош тахририяти, 2001 й.
11. Қ.С.Ҳамдамов. Микроиктисод. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2001 йил.
12. Пиндайк Р., Рубинфельд Д. “Микроиктисод” Инглиз тилидан таржима. – Т.: Шарқ нашриёт МАТБАА АК бош тахририяти, 2002 й.
13. Erkin Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot. Darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 304 b.
14. Erkin Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Qayta ishlangan 2-nashri –T.: “ILM ZIYO” nashriyot uyi, 2008. – 234 b.
15. Ishmuxamedov A.E. “O'zbekiston milly iqtisodiyoti” Darslik. –T.: TDIU, 2005 yil. 320 b.
16. N.Maxmudov, M Asqarova, I.Umarov. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. Darslik. Toshkent, 2014 yil.
17. Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala-mashqlar.(1-qism) Toshkent Moliya instituti.Toshkent. 2007.
18. T. Jo'rayev, D. Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism). Toshkent “Fan va texnologiya”, 2013. 379 b.

19. Ishmuxamedov A.E., Xaydarov M.T., Muxamedjanova G.Ya., Abdusattarova X.M. “Makroiqtisodiy siyosat muammolari” (o`quv qo`llanma) - T.: TDIU 2005.
20. Salimov B.T., Muxitdinova U.S., Mustafakulov Sh.I., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot: Darslik –T.: O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005. 208b.
21. Salimov B.T., Mustafakulov Sh.I., Salimov D. Mikroiqtisodiyot: masalalar, namunalar, topshiriqlar, testlar. (O`quv qo`llanma) - T.: Iqtisodiyot, 2012. - 191 b.

